

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

M.U.Azimova

**ILK VA MAKTABGACHA
YOSHDAGI BOLALAR
PEDAGOGIKASI**

O'quv qo'llanma

60110200 - Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'im yo'nalishi I kurs
talabalari uchun

**«ILM ZIYO ZAKOVAT»
Toshkent – 2025**

UDK: 331.116.69
KBK: 889.015.21
X 187

M.U.Azimova

ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PEDAGOGIKASI. /

[O'quv qo'llanma]. — Toshkent: “Ilm ziyo zakovat”, 2025. 168 b.

Annotatsiya

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fani maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda tarbiya turlari, ta'limni amalga oshirishning shakl, metod va vositalari kabi masalalar yoritilgan. O'quv qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari, magistrleri, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mudira va tarbiyachilariga mo'ljallangan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim tarbiyasi, bola shaxsini rivojlanish omillari shuningdek, tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri, jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya, sensor tarbiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya, fuqarolik tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi va ularni bolalarda shakllantirish usul va yo'llari bayon etiladi.

Аннотация

Наука педагогика детей раннего и дошкольного возраста в подготовке дошкольников к школьному обучению освещаются такие вопросы, как виды воспитания, формы, методы и средства реализации образования. Учебное пособие предназначено для студентов, магистров, заведующих и воспитателей дошкольных образовательных организаций высших учебных заведений педагогики, обучающихся по направлению дошкольного образования, и посвящено вопросам развития и воспитания детей дошкольного возраста, факторам развития личности ребенка, а также видам воспитания и их влиянию на созревание личности, в том числе психическому воспитанию, сенсорному воспитанию, нравственному воспитанию, физическое воспитание, экологическое воспитание, экономическое воспитание, гражданское воспитание, эстетическое воспитание, изложены методы и пути трудового воспитания и их формирования у детей.

Annotation

The science of pedagogy of early and preschool children in the preparation of preschoolers for school education highlights such issues as types of education, forms, methods and means of education. The textbook is intended for students, masters, heads and educators of preschool educational organizations of higher educational institutions of pedagogy studying in the field of preschool education, and is devoted to the development and upbringing of preschool children, factors of child personality development, as well as types of education and their impact on personality maturation, including mental education, sensory education, moral education, physical education, environmental education, economic education, civic education, aesthetic education, The methods and ways of labor education and their formation in children are described.

Taqrizchilar:

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent:**
**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent:**

Sh.N.Xaydarova

U.N.Umurzakova

ISBN 978-9910-9214-4-5

© M.U.Azimova. 2025 y.
© «Ilm ziyo zakovat» 2025 y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MEHNAT FAOLIYATIDAGI DANGASALIGI.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnat faoliyatidagi dangasaligi, sabablari, o'ziga xos yechimlari

2. Mehnatni bajarishga xoxishni yo'qligi muammosiga bolaning psixo-nevrologik tomondan ta'siri

3. Bolalarda "dangasalik"ni kamaytirishda pedagoglar va ota onalarning roli

***Tayanch tushunchalar:** dangasalik, psixologik, fiziologik, nevrologik, passiv, aktiv, harakter, temperament, hamkorlik, amaliy ahamiyati, moslashuv.*

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnat faoliyatidagi dangasaligi, sabablari, o'ziga xos yechimlari.

Dangasalik - motivatsiyaning yetishmasligi (ishlash, biror narsa qilish istagi yo'qligi), ya'ni maqsadlar bolaning manfaatlari doirasida emas ekanligidir. Shunday qilib, bola kattalar tomonidan qo'yilgan maqsadlarni o'zi uchun qabul qilmadi yoki hatto ularni o'zi tanlagan bo'lsa ham. Bolalarning dangasaligining bir qancha sabablari bor. Bular ota-onaning haddan tashqari g'amxo'rliqi, temperament xususiyatlari, zerikish va motivatsiyaning yetishmasligi, shuningdek, muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi. Bola charchagan bo'lishi mumkin, dam olish va dangasa bo'lish istagi mutlaqo tabiiy bo'ladi. Dangasalik hatto uning paydo bo'lish sababiga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

- motivatsiyaning yetishmasligi;
- bolaning psixofiziologik xususiyatlari;
- holsizlik, charchoq;

Shuningdek, bolada mehnat qilishni hohlamaslik, dangasalik asab tizimining tug'ma xususiyati bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin, ya'ni asab tizimi jarayonlarning zaif harakatchanligi. Bola sekin o'ylaydi, sekin

gapiradi, sekin harakat qiladi, sekin reaksiya hosil qiladi va bu kasallik emas, rivojlanishda og'ish ham emas. Bu bolaning fiziologik, psixologik, nevrologik holatini namoyon bo'lishi ham demakdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatda dangasalik qiladigan bo'lsa, pedagog hamda ota ona vaziyatni qanday tuzatish haqida, yechim topish haqida o'ylashi lozim. Jumladan,

- bolalar kattalar qilgan va aytgan hamma narsani o'ziga o'rnak qilib oladi va shu sababli birinchi navbatda kattalar ya'ni pedagoglar, ota onalar, akalar va opalar xatti-harakatlariga diqqatli bo'lishi lozim. Ya'ni, bola eshitganiga emas, ko'rganiga amal qiladi tamoyiliga amal qilish lozim;

- maktabgacha yoshdagi bolaning mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rag'batlantirish va ortiqcha g'amxo'rlik faqat unga zarar yetkazishini unutmang. Agar bola changni siz kabi toza artmasa yoki idishlarni joylashtirganda idishlardan bitta piyolani sindirib qo'ysa, hech qanday yomon narsa bo'lmaydi. Bu muammo yoki fojia emas, shuni unutmang!

- majburiy mehnat bilan jazolamang ("Itoatsizlik uchun bugun idish yuvasan!", "Agar topshiriqlarni bajarmagan bo'lsang, xonangni tozala!"). Bunday jazolar bolaning har qanday mehnatdan nafratlanishiga va ishlashni mutlaqo istamasligiga olib keladi. Ishlashni istamaslik esa, o'z navbatida, dangasalikni keltirib chiqaradi.

- maktabgacha yoshdagi bola uchun kichik vazifalarni tez-tez berish lozim, shunchaki buyruq ohangida emas, balki iltimos shaklida aytish kerak. Shunda, bola unga ishonganingizni his qiladi - bu uning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi. Agar biror narsa birinchi harakatda ishlamasa, hamma narsani qanday qilib bajarish mumkinligini xotirjam va do'stona ohangda tushuntirish yaxshiroqdir.

- maktabgacha ta'lim tashkilotida barcha bolalar uchun kunlik ishlar jadvalini tuzing va bolalarni unga rioya qilishga o'rgating, unga bir nechta mumkin bo'lgan ishlarni tayinlang. Misol uchun, gullarni sug'orish, idishlarni qo'yishga yordam berish, oyoq kiyimlarni taxlash, o'yinchoqlarni yig'ishtirish va shu kabilar. Ammo jadvalga tarbiyachi doimo amal qilishni unutmaslik kerak. Shunda bola tartib intizomga, mehnat munosabatlariga, ma'suliyatli bo'lishga o'rganadi.

- oila muhitida ham ota onalar va kattalar bolaning kun tartibini kuzatib borishi lozim. Esda tutingki, uy ishlari va turli harakatli o'yinlar o'ynash bilan bir qatorda, u to'liq dam olishi ham kerak (ammo, bola televizor tomosha qilish va kompyuter, telefonda vaqt o'tkazish kabi "dangasa odatlar" bilan bo'sh vaqtini suiiste'mol qilmasligiga e'tibor berish lozim). Agar bolaning uyqusi, dam olishi va ish tartibi doimiy ravishda

o'zgarib tursa, unda uning bioritmlari ham buziladi va bu sog'liq bilan bog'liq muammolarini va yomon kayfiyatning keltirib chiqaradi. Dam olish vaqtlarini ota onasi bilan suhbatlashish, sayr qilish, stol o'yinlari o'ynash va o'zi hohlagan ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin;

bolani doimo kattalarga yordam berishga undash kerak. Dangasalik kattalar bolalarga biror narsa qilishni taqiqlaganda ayniqsa rivojlanadi. Oilada ota ona farzandi bilan uy yumushlarini birgalikda bajarishi, maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagog oddiy vazifalar uchun o'yin shaklini o'ylab topishi va har doim yordami uchun uni maqtashi lozim;

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytishimiz mumkinki, bolaning mehnatga munosabati, dangasa bo'lishi yoki aktivligi, kattalar mehnatiga qiziqishi avvalambor bolaning характери, ijtimoiy muhit hamda ota ona va pedagoglar motivatsiyaga bog'liq jarayondir.

2. Mehnatni bajarishga xoxishni yo'qligi muammosiga bolaning psixo-nevrologik tomonlari ta'siri

Maktabgacha yoshdagi bolalar ularning yosh xususiyatlariga ko'ra, hayotiy energiya va quvvatning katta zaxirasiga ega davr bo'lib hisoblanadi. Faol, qiziquvchan, tashabbuskor bola uning muvaffaqiyatli psixo-emotsional holati va rivojlanishining muhim dalilidir. Shu bilan birga, bolalarda passivlik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdan bosh tortishning namoyon bo'lishi ham kundalik hayotda tez-tez duch kelish mumkin bo'lgan holatlardandir. Bunda bolaning individual xususiyatlarini va uning hayotiy kontekstini tushunish muhimdir. Har qanday chora ko'rishdan oldin, bu xatti-harakatning sabablarini yaxshilab tushunish kerak.

Mehnatni bajarishga xoxishni yo'qligi muammosiga bolaning psixo-nevrologik tomonlariga quyidagi jihatlarni kiritishimiz mumkin:

1. Bolada kasallikdan keyingi tiklanish davri;
2. Bolaning individual psixologik, temperament xususiyatlari;
3. Bolaga mehnatni xoxish bilan bajarishi uchun kattalar tomonidan beriladigan motivatsiyaning yo'qligi;

Bolada kasallikdan keyingi tiklanish davri. Ushbu muammoni o'rganishning bu kontekstida dangasalik, mehnatni bajarishga xoxishni yo'qligi, ko'pincha hayotiylikni tiklashning zaruriy davri bo'lib hisoblanadi: masalan, agar bola hech qanday sababsiz, ilgari ishtiyoq bilan shug'ullangan mashg'ulotdan keskin bosh tortsa, harakatlarida sekinlik, passivlik kuzatilsa, bu kasallikdan keyin tiklanish davri bo'lishi ham

mumkinligini aytish mumkin. Charchoq his qilish dangasalikning jiddiy sababi bo'lishi mumkin. Bunday hollarda bolaning kunini to'g'ri tashkil etish, dam olish, toza havoda ko'proq sayr qilish va organizmni tiklash protseduralariga murojaat qilish muhimdir: ya'ni kerakli vitaminlar ichishi, ertalabki mashqlar, massaj, basseynga borishi va hk. Bu jarayonlarda ayniqsa ota onadan bolaga alohida e'tibor, ma'suliyatli bo'lish hamda har bir bola uchun individual yondashuv talab qilinadi.

Bolaning individual psixologik, temperament xususiyatlari. Temperament – bu inson faoliyati va hulq-atvorining dinamik va emotsional holatini xarakterlovchi shaxs individual xususiyatlarining yig'indisidir. Bolalarda dangasalikning namoyon bo'lishida temperament muhim rol o'ynaydi. Dangasalik muammosiga temperamentning bog'liqlik xususiyatlari haqida to'xtalamiz:

Xolerik bola — kuchli barqaror, harakatchan tip. Bu temperament tez paydo bo'luvchi va kuchli tuyg'ular, zo'r ta'sirlanish, tajanglik, tunganmas g'ayrat, ko'proq harakatchanlik, aniq imo-ishoralar va boy mimika bilan xarakterlanadi. Qo'nimsiz va shoshqaloq. Chidamsiz, muammolarda keskin va to'g'ri so'z. Tashabbuskor va tezda bir qarorga keladi. Ishga goh berilib ketadi, goh tashlab qo'yadi. Tavakkalchi. Doim yangilikka intiladi. Harakatlari keskin va shiddatli. Maqsadga erishishga chidamli. Kayfiyati tez o'zgaruvchan. Bunday temperamentdagi bolalar kattalarga yordam berishga shoshiladi, lekin juda shoshqaloq bo'lganligi sababli, ishning natijasi siz kutganday bo'lmasligi mumkin. Maqtov, rag'batlantirish bo'lmasa, keying safar o'sha ishni bajarmasligi ham mumkin.

Sangvinik bola — kuchli, barqaror, harakatchan tip vakillari. Bu temperamentdagi bola ishchan, g'ayratli. . Har qanday ishga zo'r qiziqish bilan kirishadi. Lekin, ko'pchilik hollarda boshlagan ishini oxiriga yetkazmaydi. Qiziqishi va mayli turg'un emas. Muvaffaqiyatsizlik va ko'ngilsizlikni yengil o'tkazadi. O'zini qiziqitirmagan ishdan tezda soviydi. Bir ishdan ikkinchi ishga oson o'ta oladi va tez kirisha oladi. Bir xil, mashaqqatli ishdan qiynaladi. Ko'pchilik hollarda masalani hal qilishda xayolparast va shoshqaloq. Bu temperamentdagi bolani dangasaligi, mehnatga xoxishi yo'qligi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ya'ni bolaga kayfiyati, tashqi muhit, hohishlari ta'sir qiladi. Agar bola sangvinik bo'lsa, unga bir joyda o'tirib ish qilish, kitob o'qish, doimiylik qiyin kechadi.

Flegmatik bola — kuchli barqaror, kam harakat tip. Bu temperament tuyg'ularning sust paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Flegmatik bolani tinch holatdan olib chiqish oson emas, u harakat va gapirishda ham shoshilmaydi, mimikasi kam ifodali, harakatlari sust. Ishda batartib va

sharoitni hisobga oladi. Ehtiyotkor, chidamli va o'zini tuta biladi. Boshlagan ishni oxiriga yetkazadi. Ishga behuda kuch sarf qilmaydi. Ish tartibi va rejimiga qat'iy amal qiladi. O'z qiziqishlarida hamma vaqt bir xil. Bir ishdan ikkinchi ishga qiyin moslashadi. Chidamli, sabr-toqatli. Ko'pchilik hollarda atrofidagi voqea-hodisalarni sezmay qoladi. Agar bola flegmatik bo'lsa, unda u yangilik qilishga, harakat qilishga umuman qiziqmaydi. Uni faqatgina motivatsiya, rag'batlantirish, birgalikda bajarish, undash orqali mehnatga jalb qilish mumkin.

Melanxolik bola — bo'shang va xayolparast tip. Bu temperament tuyg'ularning nisbatan kam xilma-xil bo'lgani holda ularning sekin paydo bo'lishi bilan ajralib turadi: tashqi tomondan tuyg'ular deyarli ko'zga tashlanmaydi: melonxolik bolani ko'p narsa bezovta qilmaydi, lekin his-tuyg'ular paydo bo'lganda u, odatda, chuqur, davomli va ancha kuchli bo'ladi. Melonxolik bola ko'pincha g'amgin kayfiyatda yuradi. Yangi sharoitda o'zini yo'qotib qo'yadi. O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonmaydi. Muvaffaqiyatsizliklarda o'zini yo'qotib qo'yadi. Ta'sirchan, hatto yig'lashi ham mumkin. Kamharakat va beso'naqay. Atrofdagilardan o'zi uchun kuyinish va yordam kutadi. Tez charchaydi. Shu sababli melanxolik bolaga ish taqsimot qilinganda passiv harakatli, ortiqcha kuch talab qilinmaydigan ishlar birlashtirilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi muvaffaqiyatsiz natija uni depressiyaga olib borishi hamda mustaqil ravishda mehnat qilishdan, ish bajarishdan qo'rqib qolishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bolaga biron bir topshiriq berganda va undan natija kutganda uning fe'l-atvoriga ham alohida e'tibor berish talab qilinadi. Shuningdek, bolalik davridagi "dangasalik" ning sababi muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi va o'ziga ishonchsizlik bo'lishi mumkin. Bola oddiygina biror narsani qanday qilishni bilmasligi mumkin va ba'zida u pedagog yoki ota-onadan so'rashdan qo'rqadi. Ko'pincha bolalarning dangasaligi, mehnatga xoxishni yo'qligi stress bilan qo'zg'atiladi — ya'ni, oila tarkibining o'zgarishi, ko'chish, maktabda yoki bolalar bog'chasidagi ziddiyatli vaziyatlar. Bolalikdagi dangasalikning alohida sababi bolalik depressiyasining namoyon bo'lishi mumkin.

Bolaga mehnatni xoxish bilan bajarishi uchun kattalar tomonidan beriladigan motivatsiyaning yo'qligi. Bolalikdagi dangasalikning eng keng tarqalgan sababi ota-onaning haddan tashqari himoyasi. Ba'zan, bolalarning yoshi yoki tajribasizligini aytib, biror narsa qilishni taqiqlash orqali siz ularning tashabbusi va biror narsa qilish istagini o'ldirasiz. Agar

bola sizga idish yuvishda yordam bermoqchi bo'lsa, uni to'xtatib: "Sen kichkinasan, men hamma narsani o'zim qilaman" deb aytmasligingiz kerak. Bunday vaziyatlarda bola mustaqillikka intilish istagini butunlay yo'qotishi mumkin. Bolalar uchun hatto kichik vazifalar ham tartibni, o'z-o'zini tashkil qilishni va kundalik hayotga hissa qo'shish muhimligini tushuntirishi muhimdir. Bu bir so'z bilan aytganda, ota ona va pedagoglar tomonidan bolaga "motivatsiya" bo'lib hisoblanadi. Motivatsiya ichki va tashqi, ijobiy va salbiy kabi sifatlarga ega. Jumladan:

Tashqi motivatsiya bolaga tashqaridan ta'sir qiladi: ota-onaning nasihatlari, ko'rsatmalari, pedagoglarning nazorati, mukofot va'dalari, baholash yoki jazo.

Ichki motivatsiya bolaning o'ziga bog'liq bo'lib, qiziqish, intiluvchanlik, g'urur va o'zini o'zi qadrlashga asoslangan. Boshqa holatda - sharmandalik hissi va jazoni kutish.

Ijobiy va salbiy tomonlari: Ijobiy motivatsiya mukofot olishga asoslanadi: ma'naviy (g'urur va qoniqish) yoki moddiy (yaxshi baho, mehr, sovg'a).

Salbiy motivatsiya ichki norozilik, uyat, qo'rquv, og'riq, jazo, ortiqcha salbiy fikr-mulohazaga asoslanadi.

Qoidaga ko'ra, bolalar tashqi rag'batlantiruvchi omillarga ko'proq e'tibor berishadi va ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishi, xuddi samolyot yoqilg'i quyishni talab qilganidek, muntazam ravishda kuchaytirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ichki motivatsiya tashqi motivatsiyaga qaraganda ancha kuchli va barqarorroq, ijobiy motivatsiya esa salbiyga qaraganda uzoq muddatda istiqbolliroqdir. Doimiy ijobiy ichki motivatsiyani shakllantirish uchun bolada muvaffaqiyat tuyg'usini uyg'otish va u biror mexnat turini osonlikcha bajarishini ko'rsatish kerak. Shu bilan birgalikda o'rnak ko'rsatish ham natijali texnika bo'lib hisoblanadi. Ota-onaning namunasi odamni ilhomlantirishi yoki mexnat qilish istagidan mahrum qilishi mumkin. Bola bilan birgalikda bajarish va namuna ko'rsatish kichik yoshdagi bolalar hayotida juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

3. Bolalarda "dangasalik"ni kamaytirishda pedagoglar va ota onalarning roli

Dangasalik ko'pincha ota-onalar bolaning barcha istaklari va inijliklarini bajarganda paydo bo'ladi. Bola nafaqat ota-onasining mehnatga bo'lgan qarashlari ta'sirida, balki oilada aktiv ish muhitining yo'qligi tufayli ham dangasa bo'lishi mumkin. Shu bois oilada tartib va

intizom bo'lishi, har bir a'zoning ma'lum uy vazifalari bo'lishi, bolalar mehnati rag'batlantirilishi va e'zozlanishi muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yangi faoliyatni o'zlashtirishning boshidanoq pedagoglar va ota ona unga yordam berishi kerak. Chunki tizimli muvaffaqiyatsizliklar uni qo'rqitishi va uni dangasa va bunga befarq qilishi va keyinchalik boshqa har qanday faoliyatga olib kelishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ota ona va pedagoglar bolaning mehnatga munosabatini yaxshilashda quyidagi jihatlarni inobatga olish kerak:

ota-onalar va pedagoglar bolaning hayotga (passiv yoki faol) munosabatini va ijtimoiy qonunlar bilan o'zaro munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Bu fazilatlar bola bilan qancha vaqt o'ynashiga, ongli va ongsiz ravishda hayotiy vaziyatlarga taqlid qilishiga bog'liq;

bola ota-onasi va kattalar bilan munosabatlarini, hatti harakatlarini o'zlashtiradi, uning ongsizligida stereotip shakllanadi, bu uning xatti-harakati va hissiy reaksiyasini yanada nazorat qiladi. Bu bosqich 3 yoshdan boshlanadi;

3 yoshida bola dangasa yoki harakatga va boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyormi yoki yo'qligini allaqachon ko'rish mumkin. Xuddi shu yoshda bola o'ziga ishona boshlaydi, shuningdek, atrof-muhitdan kim ishonchli va kim ishonchli emasligini ajrata boshlaydi;

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnatsevarligini oshirish, dangasalik odatlarini yo'q qilishi uchun quyidagi jihatlarni rivojlantirish kerak:

Har xil tadbirlar. Bolani o'ziga jalb qiladigan qiziqarli va xilma-xil tadbirlarni yaratish lozim. Qiziqarli o'yinlar, ijodiy faoliyat va sport tadbirlari uning qiziqishini oshirishga yordam beradi. Mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, ma'suliyatlilik kabi hislatlarini rivojlantiradi.

Yuklamaning asta-sekin o'sishi. Bolaga bir vaqtning o'zida katta hajmdagi vazifa yoki mas'uliyat yuklamaslik kerak. Asta-sekin vazifalar ko'lamini oshirib, kattalar mehnatiga moslashish imkoniyatini beradi.

Mukofot va maqtov. Bolani topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganligi uchun rag'batlantirish va maqtash lozim. Ijobiy his tuyg'ular bolani o'ziga ishonchini yuqori his qilishiga yordam beradi.

Rejalashtirishga o'rgatish. Bolaga o'z ishlarini rejalashtirishni o'rganishga kattalar yordam berishi lozim. Vazifalarni kichikroq bosqichlarga bo'lish ularni kamroq murakkab ko'rinishiga yordam beradi.

Tashqaridan namuna. Bola uchun atrofdagilar yaxshi namuna bo'lish lozim. Turli tadbirlarda birgalikda qatnashib, faol hayotga qiziqishini oshirish talab etiladi.

Qulay muhit yaratish. Bolaga mehnat qilish, o'qish, aktiv hayot uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish lozim. Bolaning diqqatini jamlashi mumkin bo'lgan qulay joy bo'lishi kerak.

Maqsadlarni qo'yishga o'rgatish. Bolaga erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yishga kattalar yordam berishi lozim. Bola muvaffaqiyatdan zavqlanadi va o'zini muhim his qiladi. Bu unga katta motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

Qaror qabul qilishda ishtirok etish. Bolaning ba'zi qarorlarida o'zi ishtirok etishiga imkon bering. Bola o'zi tanlagan vazifalarni bajarish uchun ko'proq harakat qiladi va ma'suliyat bilan yondashadi.

O'yinlar va musobaqalar o'tkazish. Bolani faollashtirish uchun o'yinlar va musobaqalardan foydalanish lozim. Raqobat ruhi dangasalikni yengishga yordam beradi.

Sabr va qo'llab-quvvatlash. Bola bilan munosabatda sabr-toqatli bo'lishni va qo'llab-quvvatlashni unutmaslik lozim. Unga qiyinchiliklarni yengishga yordam berish va uning muvaffaqiyatiga ishonish kerak. Shunda bolaning o'ziga nisbatan ishonchi yuksaladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, har bir bola o'ziga xosdir va dangasalik bilan kurashish uchun universal "retsept" yo'q. Uning qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, dangasalikni bartaraf etishning samarali strategiyasini yaratish kerak. Shuni yodda tutish kerakki, ijobiy yondashuv va qo'llab-quvvatlash bolaga o'z faoliyatida faolroq va rivojlanishga yordam beradi.

Shuningdek, ota-onalar yoki pedagoglar tomonidan faoliyatni cheklash, bu munosabatni yoqtirmasligini va passiv bo'lishni xohlayotganini ko'rsatishni xohlaydigan bolada surunkali zerikish va aniq dangasalikka olib kelishi mumkin. Bunda kattalar tomonidan bolaning ixtiyoriy sa'y-harakatlarini rivojlantirishga undaydigan shart-sharoitlarni yaratish va buning istagi va ehtiyojini shakllantirish lozim. Ushbu ishda tanqidiy sharhlar va bolaning o'z sa'y-harakatlari muvaffaqiyatiga ishonchini maqtov va ma'naviy qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir. Shu bilan birgalikda, bolada kuchli irodali odatlar va iroda qobiliyatlarini shakllantirish bilan ham bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, dangasalikning ko'plab sabablari uni bartaraf etishning tegishli usullarini belgilaydi. Bunda ota onalar va pedagoglardan bola bilan olib boriladigan ishlarga ma'suliyat bilan yondashish talab qilinadi.

O‘tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bolalarda dangasalik va uning ketirib chiqaradigan sabablari?
2. Bolaning mehnatga xoxishi yo‘qligining psixologik temperamentga bog‘liq taraflari.
3. Pedagoglar, ota onalar va kattalarning bola dangasaligidagi salbiy jihatlarni sanang.
4. Bolaning dangasaligini kamaytirish yoki yo‘q qilish uchun mos bo‘lgan zamonaviy texnologiyalardan sanang.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA IQTISODIY TARBIYA BERISH.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish mazmuni.
2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlari.
3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish.

Tayanch tushunchalar: *iqtisodiy tarbiya, marketing, faoliyat, pul, byudjet, ehtiyoj, moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy qarashlar, menejment.*

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish mazmuni.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida iqtisodiy ta’lim – bu kattalar va bolalarning o‘zaro iqtisodiy munosabatlarining maqsadli o‘rgatish jarayoni bo‘lib, u yoshga mos keladigan elementar iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirishga, muvaffaqiyatli iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy jihatlarni shakllantirishga, qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim turi. Bu ta’lim jarayonida bolalar yangi iqtisodiy bilimlarga ega

bo'ladilar, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolaning iqtisod bilan birinchi tanishuvi oilada sodir bo'ladi. Kattalar pulga qanday munosabatda bo'lishlarini va oila byudjetini qanday rejalashtirishlarini kuzatib, bola ularga taqlid qila boshlaydi. Shuning uchun bolalarni moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarga imkon qadar erta, 5-6 yoshdan boshlab tanishtirish muhimdir. Bu vaqtga kelib, ular mantiqiy fikrlashni rivojlantira boshlaydi va kattalar dunyosiga qiziqishni oshiradi.

Iqtisodiy savodxonlik bola ulg'aygan sari shakllanadi va hayotning turli bosqichlarini bosib o'tadi: do'konga birinchi mustaqil borganda, do'kondan olgan narsalari uchun pul to'laganda, cho'ntak pullarini olganda va hokazo. Maktabgacha ta'lim tashkiloti iqtisodiy ta'lim bilan shug'ullanadimi yoki yo'qligidan qat'i nazar, bola atrofdagi dunyodan ba'zi ma'lumotlarni oladi, lekin u faqat ma'lumot bo'lib qoladi, pedagog va ota-onalarning vazifasi uni ishlatish uchun vositaga aylantirishdir. Iqtisodiyot va maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi bir qarashda birbiridan juda uzoq ko'rinadi. Lekin bolalarga asosiy ma'lumotlar o'yinlar, faoliyat davomida, sayrda, kunlik suhbatlarda yangi bilim shaklida quyidagicha taqdim etishi mumkin:

ularga pulga to'g'ri munosabatda bo'lishni, uni qanday topish va undan oqilona foydalanishni o'rgatish;

o'yinlar, iqtisodiy masalalar, krossvordlar yordamida bolalarni ob'ektlar, narsalar, insoniy munosabatlarning murakkab dunyosi bilan tanishtirish;

iqtisodiy va axloqiy kategoriyalar: bir tomondan mehnat, tovar, pul, qiymat, narx, ikkinchi tomondan ma'naviy – tejamkorlik, halollik, qadr-qimmat, saxovatlilik – o'rtasidagi munosabatni tushuntirish;

reklamaga to'g'ri munosabatda bo'lishni va uni tushunishni o'rgatish;

real hayotiy vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish, oqilona sarf harajat haqida bilimlarini rivojlantirish.

Shu bilan birgalikda hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglaridan zamonaviy iqtisodiy tushunchalarni bolalarga videodarslar yoki ko'rgazmali metodlar yordamida tizimli ravishda o'rgatib borish talab qilinadi. Jumladan:

zamonaviy, innovatsion iqtisodiy terminlar va kategoriyalarni bilish (Jumladan: bankomat, plastik karta, kredit, online pul o'tkazish ilovalari: payme, click, fiskal chek va h.k);

ehtiyojlari va imkoniyatlarini umumlashtira olish bo'yicha bilimlar berish;

pul "seyf"da emas, balki bankda saqlansa, "ko'payib borishini" tushuntirish;

ish haqi ishning miqdori va sifati uchun to'lov, pensiya esa avval ishlagan ishi uchun nafaqa va bolalar nafaqasi bolalarga ehtiyojlari uchun avans ekanligini tushuntirish;

bolani isrof qilmaslik va tejamkor bo'lib, oilaviy byudjetni ko'paytirishi mumkinligini o'rgatish;

TV da, ko'chada bannerlarda, LED ekranlarda beriladigan reklama qilingan tovarlar agar bu haqiqat bo'lsa, yordam berishi va aksincha, yolg'on ma'lumot bo'lsa oila byudjetiga zarar yetkazishi mumkinligini to'g'ri tushuntirish;

oilaviy jamg'armalar va daromadni oqilona sarflasa, u pulga butun oila bilan dam olishi yoki zaruriy, qimmat narsalarni sotib olish mumkinligini tushuntirish;

oilaning va o'zining iqtisodiy ahvoliga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissini singdirish.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, pedagog va ota ona maktabgacha yoshdagi bola tushunadigan tilda pulning vazifasini aniq tushuntirishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda, iqtisodiy bilimlarni guruhlariga ajratsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:

Birinchi guruh - pul haqidagi bilimlar. Bolalarning pul haqidagi bilimlarini aniqlashtirish va rivojlantirish. Jumladan, qanday ko'rinishdagi pullar bor? – qog'oz pullar, tanga monetlar, plastik kartochkalar va h.k. shuningdek,

- pulni to'g'ri hisoblashni;
- pulni oqilona sarflash;
- pulni tejashni o'rganish;
- mablag'larni himoya qilish usullarini o'rgatsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchi guruh - ehtiyojlar haqidagi bilimlar. Ehtiyojlar qanday? Bu insonning xohish va imkoniyatlari. Bunda bolalarda ehtiyojlarning xilma-xilligi va ularni qondirishning cheklangan imkoniyatlari haqida g'oyalarni shakllantirish. Bolalar bilishlari kerakki, fiziologik ehtiyojlardan tashqari, boshqa ehtiyojlar ham bor: sevgi, do'stlik, himoya, muloqot va boshqalar. Ushbu bo'limda bolalarni inson o'z ehtiyojlarini faqat boshqa odamlarning

ehtiyojlarini qondirishga xalaqit bermasagina qondirishi mumkinligini tushunishga olib borish kerak. Bolalarda tanlov qilish qobiliyatini shakllantirish muhimdir.

Uchinchi guruh - mahsulot haqidagi bilimlar. "narx", "sotib olish", "sotish" tushunchalari bilan tanishtirish. Mahsulotning narxi nimaga bog'liq? Mahsulot sifatini qanday aniqlash mumkin? Kabi savollarga javob topa olishi lozim.

To'rtinchi guruh - mehnat haqidagi bilimlar:

- bolalarning turli kasblar haqidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish;
- mehnat mahsuli qanday natijalarga olib borishini tushuntirish;
- ish va "ish haqi" tushunchasi bilan tanishtirish;

Beshinchi guruh – byudjet haqidagi bilimlar. Byudjet nima va u nimadan iborat? Ushbu savol doirasida quyidagi bilimlar berib borilishi lozim:

- oila xarajatlari va daromadlari;
- qanday daromad manbalari bo'lishi mumkin;
- byudjetni tejash usullari.
- bank va jamg'armalar qilish zarurligi haqidagi g'oyalarni shakllantirish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, iqtisodiy ta'lim natijalari bolalarning o'z mehnatiga, ota-onasiga, umuman olganda, har qanday ishga ongli munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi.

2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlari.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlari tarixan boy va xilma-xildir. Bu hududning o'ziga xos madaniyati, diniy merosi va falsafiy ta'limotlari iqtisodiy ta'limotlar va amaliyotlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlarini o'rganish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy tafakkurlari bilan tanishish imkonini beradi. Quyida ba'zi Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlari haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan:

1. *Al-Farg'oniyning iqtisodiy qarashlari.* Abu Nasr al-Farg'oniyning iqtisodiy qarashlari uning falsafiy va ijtimoiy ta'limotlari bilan bog'liq. U, asosan, ijtimoiy adolatni ta'kidlagan va odamlarning farovonligini ta'minlashda davlatning rolini katta deb hisoblagan. Uning fikriga ko'ra,

iqtisodiy hayotda davlat mustahkam bo'lishi kerak, u aholining ehtiyojlarini qondirish uchun adolatli soliq siyosatini ishlab chiqishi zarur. Al-Farg'oniy iqtisodiy barqarorlikni faqat ijtimoiy tartib va adolatli taqsimot orqali ta'minlash mumkin deb hisoblagan. Al-Farg'oniyning "Al-Madina al-Fadila" (Yaxshi shahar haqida), "Kitab al-Tahlil" (Tahlil kitobi), "Al-Ilm al-Hisob" (Hisob ilmi)

2. *Al-Buxoriy va iqtisodiy qarashlari.* Abu Abdullah Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy — buyuk hadisi ilmiy mutafakkir, biroq uning iqtisodiy qarashlari ham juda muhim. Al-Buxoriyning qarashlariga ko'ra, iqtisodiy faoliyatda ishonch va halollik muhim rol o'ynaydi. Uning ta'limotlari shariat qonunlari va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, iqtisodiy faoliyatda odilona va o'zaro manfaatli aloqalar yaratishga urg'u bergan. Al-Buxoriyning eng mashhur asari "Al-Jome' as-Sahih" bo'lib, u islomdagi eng ishonchli hadislar to'plami hisoblanadi. Bu asarda, hadislarida savdo va tijorat faoliyati, bu sohada halollik, adolat va to'g'rilikni saqlashning muhimligi ta'kidlanadi. U savdoda noto'g'ri amaliyotlar, masalan, aldov, firibgarlik yoki hiyla ishlatishning harom ekanligini ko'rsatgan. Shuningdek, savdoda har ikki tomonning manfaatlariga hurmat bilan qarash va adolatli bo'lish zarur. Soliqlarni adolatli va muvozanatli ravishda olishning zarurligini ta'kidlagan. U soliq to'lashning ahamiyatini e'tirof etgan, lekin soliqlarni ortiqcha va adolatsiz ravishda olishni qoralagan. Al-Buxoriyning hadislarida zakot (islomda farz bo'lgan ijtimoiy soliq) va xayriya berishning ahamiyati katta o'rin tutadi. U jamiyatda kambag'allarni qo'llab-quvvatlash va boylar tomonidan kambag'allarni yordam berish zarurligini ko'rsatgan. Bu, shuningdek, iqtisodiy tenglikni va adolatni ta'minlashda muhim elementdir.

3. *Ibn Sino (Avicenna) va iqtisodiy qarashlari.* Ibn Sino o'zining iqtisodiy qarashlarini asosan falsafiy va tibbiy bilimlar bilan bog'lagan. U iqtisodiy tizimda mehnat va resurslar taqsimoti muhimligini ta'kidlagan. Ibn Sino iqtisodiy taraqqiyotning insoniyat uchun ma'naviy va axloqiy jihatlarini ham o'ylab, iqtisodiy faoliyatni axloqiy tamoyillarga mos ravishda tashkil etish zarurligini ko'rsatgan. U iqtisodiy o'sishni faqat adolatli taqsimot va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'lagan. Ibn Sino o'zining "Al-Isharat va-t-Tanbihat" (Ko'rsatmalar va ogohlantirishlar) asarida axloqiy va ijtimoiy masalalarni, shu jumladan iqtisodiy faoliyatdagi adolatni va ijtimoiy tenglikni muhokama qiladi. U iqtisodiy jarayonlarning axloqiy me'yorlarga mos bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

4. *Ibn Xaldun va iqtisodiy qarashlari.* Ibn Xaldun o'zining "Muqaddima" asarida iqtisodiyot, ijtimoiy tizim va tarixiy taraqqiyot

haqidagi o'z qarashlarini bayon etgan. U iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanishni bir-biri bilan chambarchas bog'lagan. Ibn Xaldun fikriga ko'ra, iqtisodiy muvaffaqiyatlar davlatning hokimiyatni qanday yuritishiga, soliqlarni qanday to'lashga va iqtisodiy tizimning qanday shakllanishiga bog'liq. U iqtisodiy taraqqiyotni adolatli taqsimot va aholi o'rtasida iqtisodiy tenglikka asoslangan deb bilgan.

Ibn Xaldun o'zining "Muqaddima" asarida iqtisodiy, siyosiy, va ijtimoiy rivojlanishning tabiiy jarayonlarini tahlil etadi. Uning asarida iqtisodiy hayotga oid quyidagi ko'plab muhim g'oyalar mavjud: Ibn Xaldun jamiyatlar qanday rivojlanishini, iqtisodiy rivojlanishning qanday bosqichlar orqali amalga oshishini tahlil qilgan. U iqtisodiy rivojlanishning bosqichma-bosqich o'tishini va har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatgan. Shu bilan birgalikda, Ibn Xaldun savdoning va ishlab chiqarishning iqtisodiy o'sishdagi rolini ta'kidlagan. U savdoning jamiyatlar o'rtasida boylik va resurslarni almashish uchun muhim vosita ekanligini tushungan.

5. *Zamahshariy va iqtisodiy ta'limotlari.* Al-Zamahshariy — islom olamida mashhur bo'lgan olim, uning iqtisodiy qarashlari ko'proq adolatli va ma'rifatli jamiyat qurishga qaratilgan. U iqtisodiy faoliyatda ahloqiy qadriyatlar, halollik va ishonchni muhim deb hisoblagan. Al-Zamahshariyning iqtisodiy qarashlariga ko'ra, iqtisodiyot va axloq o'rtasida mustahkam bog'lanish bo'lishi kerak, va shariatni buzmaganda holda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin. Zamahshariyning "Al-Kashshaf" asari, Qur'oni Karimni izohlashda ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni chuqur tahlil qilishga e'tibor qaratgan. Bu asarda Zamahshariy, Qur'ondagi iqtisodiy hukmlar, boylik taqsimoti, soliq tizimi, savdo va mehnat kabi mavzularga izohlar berib, ijtimoiy adolat va iqtisodiy tizimlarni qanday boshqarish kerakligi haqida fikr yuritgan. Bu asar, Zamahshariyning iqtisodiy qarashlarini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

7. *Zahiriddin Muhammad Bobur va iqtisodiy qarashlari.* (1483-1530) "Boburnoma" nomli avtobiografik asarida bir qancha iqtisodiy masalalarga to'xtalib o'tadi. Zahiriddin Muhammad Bobur soliq yig'ish bo'yicha qo'llanma sifatida yozilgan "Mubayin" iqtisodiy asari muallifi bo'ldi, unda ko'pchilikning noroziligi va Kobul okrugining vayron bo'lishi munosabati bilan soliq tizimi tamoyillari ko'rsatilgan. , undirish tartibi va har bir soliq miqdori belgilandi. Boburning iqtisodiy qarashlari haqida so'z yuritishda, asosan, uning davlatni boshqarish va iqtisodiy tizimni yaratishdagi amaliy yondashuvlari, soliqlar, savdo, yer xo'jaligi va

jamiyatdagi turli qatlamlarga doir qarashlari muhim ahamiyatga ega. Uning iqtisodiy qarashlari hozirgi zamon iqtisodiy siyosati va ijtimoiy boshqaruvi uchun ham o'zgarish va yangiliklarni qabul qilishda muhim qadriyatlar asosini tashkil etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya haqidagi qarashlari asosan adolat, axloq, shariat qonunlari va ijtimoiy hamkorlikka asoslanadi. Ular iqtisodiy tizimni ijtimoiy barqarorlik va yaxshilikka erishish uchun vosita sifatida ko'rganlar. Shu bilan birga, ularning qarashlari zamonaviy iqtisodiy tizimlar va ta'limotlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, o'zini o'zi tarbiyalash va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim tamoyillarni taqdim etadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining iqtisodiy qarashlari o'zining zamoniga mos bo'lib, ularning iqtisodiy faoliyatni diniy, axloqiy va ijtimoiy tamoyillar asosida boshqarishga qaratilgan yondashuvlari, jamiyatda adolat, tenglik, mehnat va boylik taqsimotining ahamiyatini ko'rsatadi. Bu mutafakkirlarning qarashlari hozirgi kunda ham iqtisodiy siyosat, jamiyatni boshqarish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga oid qadriyatlar asosida qimmatlidir.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish — bolalarga iqtisodiy hayotga oid tushunchalarni kichik yoshda berish va ularni ijtimoiy, iqtisodiy faoliyatlarga tayyorlash jarayoni bo'lib, bu bolalarning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun asos yaratadi. Iqtisodiy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarga moliyaviy ongini, resurslardan oqilona foydalanishni va mehnatning qadriyatini o'rgatadi. Bu turdagi tarbiya nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadlari:

Iqtisodiy ongini shakllantirish: Bolalar iqtisodiyotning asosiy tushunchalarini (pul, narx, sotib olish va sotish, iste'mol, ishlab chiqarish va boshqalar) o'zlashtiradilar.

Mehnat va ishning qadriyatini o'rgatish: Iqtisodiy tarbiya bolalarga mehnatning ahamiyatini, har bir ishning o'ziga xos qiymatini va unga hurmat bilan qarashni o'rgatadi.

Resurslardan oqilona foydalanish: Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiiy resurslar, vaqt va boshqa resurslarni tejashni o'rganadilar, bu ularga kelajakda samarali va oqilona iqtisodiy faoliyat yuritishga yordam beradi.

Ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tushunish: Iqtisodiy tarbiya bolalarga ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni, o'zaro aloqalarni, savdo va xizmatlarni tushunishga yordam beradi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda foydalaniladigan metodlar:

O'yinlar va mashqlar: Ta'limning asosiy shakli – o'yin. O'yin orqali bola dunyoni o'zlashtiradi va o'rganadi. Bolalarga iqtisodiy tushunchalarni o'rgatishda o'yinlar, rolni ijro etish, turli vaziyatlarda ishtirok etish orqali, iqtisodiy faoliyatlarni simulyatsiya qilish samarali bo'lishi mumkin. Misol uchun, "do'kondan sotib olish" yoki "bozor o'yini" kabi o'yinlar orqali bolalar pulni ishlatishni, sotib olishni, savdo qilishni o'rganadilar. Rolli o'yinlar iqtisodiyotni tushunarli qilishga yordam beradi. Rolli o'yinlarda real hayotiy vaziyatlar simulyatsiya qilinadi: oldi-sotdi operatsiyalari, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish va boshqalar. O'quv-o'yin va real faoliyatning kombinatsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkab iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun eng samarali hisoblanadi.

Syujet-didaktik o'yin jarayonida yoshga mos keladigan muloqot holati o'rnatiladi. Nutq aloqasi dialog shaklida amalga oshiriladi. O'qituvchi aniq, iqtisodiy savodli savollarni tuzadi va bolalar o'z taxminlarini aniq ifodalashni o'rganadilar. Tushuntirish nutqi va dalil nutqi rivojlanadi.

Bolalarning birgalikdagi o'yin faoliyatida bir-biri bilan va kattalar bilan muloqot qilish jarayoni ijobiy his-tuyg'ular bilan birga keladi, bu ularning kognitiv faolligini rag'batlantiradi va fikrlashning rivojlanishiga yordam beradi. O'quv-o'yin va real faoliyatning kombinatsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkab iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun eng samarali hisoblanadi.

Hikoyalar va ertaklar: Iqtisodiy tarbiyani o'rgatishda bolalar uchun iqtisodiy mavzularda yozilgan ertaklar va hikoyalar ham samarali vosita bo'lishi mumkin. Bu orqali bolalar resurslarning chegaralanganligini, har bir narsaning narxi borligini, va har bir qarorning oqibatlari bo'lishini tushunadilar. Ertakchi, Janni Rodari shunday degan edi: "Ertak ko'plab iqtisodiy hodisalarni tushunishga, iqtisodga kognitiv qiziqishni rivojlantirishga va uni o'rganish uchun ijobiy motivatsiyani yaratishga katta hissa qo'shadi. Bola uchun ertak o'yin kabi jiddiy va haqiqiydir:

unga qaror qabul qilish, o'zini o'rganish, o'lchash, imkoniyatlarini baholash uchun kerak".

Amaliy faoliyat: Bolalar turli amaliy faoliyatlarda ishtirok etishi kerak, masalan, kichik savdo do'konlarini tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rib chiqish, yordamchi ishlarni bajarish va shu kabi faoliyatlar orqali iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishadi.

Vizual materiallar: Kichik yoshdagi bolalarga iqtisodiy tushunchalarni o'rgatishda rasmlar, diagrammalar va infografikalar yordam beradi. Masalan, pulning turli shakllari, odamlarning mehnat faoliyatini aks ettiruvchi rasmlar orqali iqtisodiy tushunchalarni yanada oydinlashtirish mumkin.

Kun tartibi va resurslarni taqsimlash: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga vaqtni samarali boshqarish, kun davomida bajariladigan ishlarni taqsimlash, resurslarni tejash kabi amaliy ko'nikmalarni o'rgatish ham muhim. Bu bolalar uchun real hayotdagi iqtisodiy faoliyatni simulyatsiya qilishdir.

Tadbirkorlikni o'rgatish: Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadbirkorlikka qiziqishni uyg'otish, o'zaro yordam va jamoaviy ishlarni o'rganish ham juda muhim. Kichik tadbirkorlik o'yinlari, qo'l mehnati orqali iqtisodiy faoliyatga qiziqishni oshirish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun alohida dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunday dasturlar bolalarga iqtisodiy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni va ijtimoiy-qadriyatlarni birlashtirgan holda taqdim etadi. Bu dasturlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Resurslarni tejash va qadrini bilish.
- Boshqaruv va qarorlar qabul qilish.
- Savdo va iqtisodiy faoliyatning o'zaro aloqalari.
- Mehnat va uning qadri.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish bolalarga real hayotga tayyor bo'lishda yordam beradigan, moliyaviy ongini rivojlantirishga xizmat qiladigan, va iqtisodiy faoliyatda adolatli va samarali bo'lishga yordam beradigan muhim jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiya bolalar uchun kundalik hayotda ishlatish mumkin bo'lgan ko'nikmalarni, iqtisodiy qarorlar qabul qilishni va jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tushunishni o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, ularni kelajakda muvaffaqiyatli fuqarolar, mehnatkash va mas'uliyatli insonlar sifatida shakllantiradi.

O‘tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Iqtisodiy bilimlarni bolaning necha yoshidan berish maqsadga muvofiq bo‘ladi?
2. Tayyorlov guruhi bolalari uchun qanday iqtisodiy terminlarni chuqurroq o‘rgatish kerak?
3. Al Buhoriyning qaysi asarida iqtisodiy qarashlar qay talqinda yoritilgan?
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotida iqtisodiy bilimlarni berishni qanday zamonaviy metodlarini bilasiz.
5. O‘yin orqali iqtisodiy bilimlarni berishda tarbiyachining roli qanday?

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA HUQUQIY TARBIYA BERISH.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiya berish mazmuni.
2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining huquqiy tarbiya haqidagi qarashlaridan bolalarga huquqiy tarbiya berishda foydalanish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalami konsitutsiya saboqlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar: *huquq, burch, majburiyat, konstitutsiya, me’yor, adolat, saboq, ong, tafakkur, qonun, modda.*

1.Maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiya berish mazmuni.

Maktabgacha ta’limda huquqiy tarbiya bolalarni jamiyatda o‘z huquq va burchlarini tushunishga, axloqiy qadriyatlarini o‘zlashtirishga va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga tayyorlaydi. Bu bolalar uchun asosiy huquqiy tushunchalar, o‘z huquqlari va majburiyatlarini bilish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi. Maktabgacha

yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiya berish — bu ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi, huquqlari va burchlarini tushunishi, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganishidir. Tarbiyachilar bolalarga huquqiy me'yorlarni o'rgatishda ularning tarbiyasida aniq va samarali metodlarni qo'llashlari, turli o'yinlar, dramatizatsiya, ertaklar va suhbatlar orqali bolalarga huquqiy bilimlarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Bu, bolalarning kelajakda ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli va adolatli insonlar bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotini hamda pedagoglarni o'z mamlakatining kelajakdagi fuqarosini tarbiyalashdek muhim rol o'ynaydi deb bemalol ayta olamiz. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bolaning shaxsiyatini rivojlantirish uchun eng qulay davr maktabgacha yoshidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida huquqiy tarbiyaning mazmuni

Huquqiy ongni shakllantirish: Maktabgacha yoshdagi bolalarda huquqiy ongni shakllantirish, eng avvalo, jamiyatdagi huquqiy tartibni, qonunlar va me'yorlarga bo'lgan hurmatni o'rgatishni nazarda tutadi. Bu jarayonda bolalar turli huquqiy tushunchalar bilan tanishadilar, masalan, o'z huquqlari, burchlari va erkinliklarini tushunishga yordam beriladi.

Ijtimoiy me'yorlar va huquqiy normalarni o'rganish: Bolalar ijtimoiy me'yorlar, odob-axloq, hurmat va boshqalarga zarar yetkazmaslik kabi qadriyatlarni o'rganadilar. Ular jamiyatda qanday o'rin tutishlari, qaysi xatti-harakatlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilishlari kerak. Bu ijtimoiy me'yorlar va huquqiy normalar bolalar uchun asosiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

O'z huquqlari va majburiyatlarini tushunish: Maktabgacha yoshdagi bolalarga o'z huquqlari va burchlarini tushuntirish juda muhimdir. Bolalar o'zining va boshqalarning huquqlarini, o'zlarini hurmat qilishni, shuningdek, boshqalarga zarar yetkazmaslik va o'zaro hurmatda bo'lishni o'rganishlari kerak. Bu, bolalarning o'zini ijtimoiy tizimda to'g'ri o'rin tutishiga yordam beradi.

Boshqalarga hurmat ko'rsatish: Huquqiy tarbiya jarayonida bolalarga boshqalarga hurmat, do'stlik, yordam va ijtimoiy javobgarlikni o'rgatish zarur. Bolalar bir-biriga va kattalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamoada ishlash, murosaga kelish va ijtimoiy tenglikka asoslangan munosabatlarni shakllantirishda o'rgatilishi kerak.

Xavfsizlik va huquqiy himoya: Bolalar xavfsizlik va huquqiy himoyaga bo'lgan huquqlarini tushunishlari kerak. Masalan, ular o'zlarini yomon xatti-harakatlardan va zararli ta'sirlardan himoya qilishni, yomon munosabatlarni tan olishni va to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

Huquqiy tarbiya orqali bolalar o'zlarini xavfsiz tutishni, yomon ta'sirlardan saqlanishni va adolatni ta'minlashni o'rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiyani berishda foydalaniladigan metodlar:

O'yinlar va dramatizatsiya: Bolalarga huquqiy tarbiya berishda turli o'yinlar va dramatizatsiya usullari samarali bo'lishi mumkin. Masalan, "Boshqa shaxslarning huquqlariga hurmat" deb nomlangan o'yinda bolalar turli holatlarni ijro etib, ularni to'g'ri hal qilishni o'rganadilar. Bu orqali bolalar o'zlarining va boshqalarining huquqlarini anglashadi.

Ertaklar va hikoyalar: Ertaklar bolalarga axloqiy va huquqiy tushunchalarni o'rgatishda juda samarali vositadir. Iqtisodiy, axloqiy, va huquqiy qadriyatlarni aks ettiruvchi hikoyalar orqali bolalarga muayyan huquqiy me'yorlar va tartiblar tushuntiriladi. Masalan, "Qizil boshliq" yoki "Bo'ri va qo'y" "Chorvador va sher" "To'g'ri so'z" kabi ertaklar va hikoyalar bolalarga haqiqiy dunyodagi ijtimoiy adolatni o'rgatadi. Milliy ertaklar va hikoyalar bolalarga huquqiy tarbiya berishda juda samarali vositadir.

Savol-javob va suhbatlar: Tarbiyachilar bolalar bilan turli huquqiy mavzularda suhbatlar o'tkazish orqali bolalarning fikrlashini va o'z huquqlari va burchlari haqida to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rgatishlari mumkin. Savol-javoblar orqali bolalar o'z fikrlarini ifodalashga va muammolarni hal qilishga o'rganadilar. Quyida bolalar bilan o'tkazilishi mumkin bo'lgan huquqiy suhbatlar va savol-javoblar misollar berilgan: "Huquq va majburiyatlar", "Adolat", "O'zaro hurmat", "Boshqalar huquqlari", "Xulq-atvor va javobgarlik", "Birinchi yordamingiz" to'g'risida suhbatlarni misol qilish mumkin.

Vizual materiallar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida huquqiy tarbiya berishda vizual materiallar bolalar uchun juda samarali vosita hisoblanadi. Ular bolalar ongida huquqiy tushunchalarni shakllantirish, muayyan huquqiy me'yorlarni tushuntirish va bolalar uchun o'rgatish jarayonini qiziqarli va yodda qolarli qilishga yordam beradi. Vizual ateriallar rangli, oddiy va tushunarli bo'lishi kerak, shuningdek, bolalarga amaliyotda qanday huquqiy qoidalar ishlashini ko'rsatish uchun interaktiv elementlar bilan boyitilishi lozim.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'limda hozirgi kun talabi bo'lgan ta'limga zamonaviy yondashuvlar bolalarga huquqiy tarbiya berishda innovatsion va samarali usullardan foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy yondashuvlar, asosan, bolalarni faollik ko'rsatishga, ularni o'z fikrini erkin ifoda etishga,

boshqalar huquqlarini hurmat qilishga va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib tarbiyalashga qaratilgandir.

2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining huquqiy tarbiya haqidagi qarashlaridan bolalarga huquqiy tarbiya berishda foydalanish.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining huquqiy tarbiya haqidagi qarashlari, asosan, tarixiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, bu qarashlar bolalarga huquqiy tarbiya berishda foydalanishga yaroqli asoslar yaratadi. Markaziy Osiyo hududida yashagan mutafakkirlar, jumladan, Ibn Sino, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, A.Navoiy kabi buyuk allomalar, o'z asarlarida huquqiy masalalarni ko'p ishlatgan va huquq, axloq, adolat haqida muhim fikrlarni bildirganlar. Ularning qarashlari hozirgi kunda ham bolalar uchun huquqiy tarbiya berishda samarali qo'llanilishi mumkin. Bir qator jihatlarini keltirib o'tamiz:

Adolat va tenglik tushunchasi: Markaziy Osiyo mutafakkirlarining huquqiy qarashlarida adolat, tenglik va inson huquqlariga oid tushunchalar juda muhim o'rin tutadi. Bu qadriyatlar bolalarga huquqiy tarbiya berishda asosiy tamoyillarni tashkil etadi. Mutafakkirlarimizdan Yusuf Xos Xojib o'z asarlarida ayniqsa "Qutadg'u bilig" asarida adolat va inson huquqlarini ta'riflab, har bir insonning o'z huquqini to'liq olish huquqiga ega ekanligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, odamlar o'z huquqlarini bilib, ularga hurmat qilishlari kerak. Bolalarga o'rgatish: Bolalarga huquqiy tarbiya berishda Yusuf Xos Xojibning adolat va huquqlarni hurmat qilish haqidagi qarashlaridan foydalanish mumkin. Bolalarga tenglikni o'rgatishda, har bir bola o'z huquqlarini hurmat qilishi va boshqalar huquqlariga ham e'tiborli bo'lishi kerakligi haqida tushuncha berish mumkin.

Al-Farg'oniy "adolat" tushunchasini juda yuqori baholagan va huquqni amalga oshirishda adolatning muhimligini ta'kidlagan. Uning "Muqaddimah al-'ilm" ("Ilmning kirish so'zi") asarida huquqlarni hamma uchun teng va bir xil berishni zarur deb qayd etilgan. Bolalarga o'rgatish: Al-Farg'oniyning adolat haqidagi qarashlari bolalarga o'zaro hurmat, tenglik va adolatli muomala qilishni o'rgatishda qo'llanilishi mumkin. Masalan, o'yinlar yoki guruhli faoliyatlar orqali bolalar o'rtasida adolatni amaliyotda qo'llashni o'rgatish mumkin.

2. Insonning ma'naviy va axloqiy mas'uliyati. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ko'plab qarashlarida insonning axloqiy mas'uliyati va o'z o'rnini haqida o'ylash, boshqalar bilan hurmatli va samimiy

munosabatda bo'lish, jamiyatning yaxshi rivojlanishiga hissa qo'shish kabi masalalar muhim o'rin tutadi.

Mutafakkirlarimizdan Al-Beruniy "Al-Qanun al-Mas'udi" asarida huquqiy masalalar insonning axloqiy mas'uliyatiga alohida e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, har bir inson jamiyatda adolatni ta'minlashda o'zining axloqiy vazifasini bajarishi kerak. Bolalarga o'rgatish: Al-Beruniyning "Al-Qanun al-Mas'udi" asarida axloqiy mas'uliyat haqida so'zlagan qarashlaridan foydalanib, bolalarga o'zaro yordam, boshqalarni hurmat qilish va jamiyatga foyda keltirish haqidagi qadriyatlarni o'rgatish mumkin. Misol uchun, bolalar o'z huquqlari bilan birga, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish va ularni qo'llab-quvvatlashni o'rganadilar.

3. O'zgarish va taraqqiyotga intilish. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ko'plab asarlarida insonning o'zgarishga, taraqqiyotga va bilim olishga intilishi haqida fikrlar mavjud. Bu yondashuv bolalarga huquqiy tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu tushuncha bolalarni o'z huquqlarini bilishga, yangi bilimlarga intilish va o'zgarishlarga tayyor bo'lishga undaydi.

Mutafakkirlarimizdan A.Navoiy o'zining ilmiy ishlari orqali insonlarni bilishga, yangi narsalarni o'rganishga va taraqqiyotga erishishga undagan. U, shuningdek, har bir insonning o'z o'ri va vazifasi borligini ta'kidlagan. Bolalarga o'rgatish: Alisher Navoiyning "Devoni Hikmat" asarida bilimga intilish va taraqqiyot haqida so'zlagan qarashlarini bolalarga o'rgatishda qo'llash mumkin. Masalan, bolalar o'z huquqlarini o'rganish va ulardan foydalanish, shuningdek, yangi bilimlarni o'rganishga intilish orqali o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari kerakligini tushunishadi.

4. Mas'uliyat va o'z huquqlarini anglash. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ko'p qarashlarida mas'uliyat va o'z huquqlarini anglash masalasi muhim o'rin tutadi. Bu, bolalarga nafaqat o'z huquqlarini bilishni, balki ulardan mas'uliyatli foydalanishni o'rgatadi.

Mutafakkirlarimizdan Ibn Sino o'z asarlarida odamlarning o'z huquqlarini anglab olishlari va ular bilan mas'uliyatli munosabatda bo'lishlarini ta'kidlagan. U, shuningdek, insonning o'ziga, oilasiga va jamiyatiga nisbatan mas'uliyatini ham muhim deb bilgan. Bolalarga o'rgatish: Ibn Sinoning "Al-Isharat va al-Tanbihat" (Ishoralari va ogohlantirishlar) asaridagi qarashlaridan foydalangan holda, bolalarga o'z huquqlarini anglash va ulardan mas'uliyatli foydalanish haqidagi tushunchalarni o'rgatish mumkin. Masalan, bola o'z huquqlarini tushunib,

boshqalarga zarar bermasdan, adolatli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishni o'rganishi kerak.

5. Huquq va axloqning birligi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining bir qator fikrlarida huquq va axloq bir-biriga chambarchas bog'langan tushunchalar sifatida qaralgan. Bu qarashlar bolalarga huquqiy tarbiya berishda o'qituvchi va tarbiyachilarga ijtimoiy mas'uliyatni, boshqalar huquqlarini hurmat qilishni va axloqiy tamoyillarni tushuntirishda yordam beradi.

Mutafakkirlarimizdan Al-Farg'oniy va Al-Beruniy o'z asarlarida huquq va axloqni bir-biriga bog'lab ko'rsatganlar, chunki ular insonni axloqiy jihatdan to'g'ri yashashga undashadi va bu huquqlarni amalga oshirishda yordam beradi. Bolalarga o'rgatish: Bolalarga huquqiy tarbiya berishda axloqiy qadriyatlarni ham o'rgatish zarur. Masalan, bolalar o'z huquqlarini amalga oshirishda boshqalarning huquqlariga hurmat ko'rsatishni va to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rganishlari kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining huquqiy tarbiya haqidagi qarashlari bolalar uchun huquqiy ta'limni samarali tarzda o'rgatishda yordam beradi. Ularning adolat, tenglik, axloqiy mas'uliyat va huquqlarga hurmat kabi qadriyatlarini bolalar bilan ishlashda qo'llash, ularni mas'uliyatli, huquqni hurmat qiluvchi va adolatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Ularning asarlaridagi prinsiplar hozirgi kunda ham bolalar tarbiyasida amaliy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

3.Maktabgacha yoshdagi bolalarni konsitutsiya saboqlari bilan tanishtirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni Konstitutsiya saboqlari bilan tanishtirish, ularning huquqiy va axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bu yoshda bolalar dunyoni o'rganishda, o'z huquq va burchlarini tushunishda, shuningdek, jamiyatdagi o'рни va mas'uliyatlarini anglashda yordam beradigan dasturlarni yaratish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan tanishtirishdan Maqsad:

O'zi istiqomat qilayotgan davlati, xalq irodasi va uning manfaatlari, milliy davlat, uning ma'muriy-hududiy tuzilishi, milliy davlat ramzlari, fuqarolarning burch va majburiyatlari, unda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilish, xalqimizning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrash, onalik va bolalikni davlat tomonidan muhofaza qilinishi, har kimning

bilim olish va huquqlardan foydalanishi, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari saylov, referendum, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, inson erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari to'g'risida tushuncha berish orqali bolalarga huquqiy ta'lim va tarbiya berishdan iborat.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berish "Ilk qadam" davlat o'quv Dasturi hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida olib boriladi. Ushbu Dasturlarga ko'ra, Konstitutsiya saboqlari kichik guruhlardan boshlab oson va samarali usulda o'rganishlari mumkin.

Kichik guruhlarda (3-4 yosh). Bu yosh guruhlari Konstitutsion huquqlarining kichik ko'rinishlari o'rgatiladi va quyidagi natijalar ulardan kutiladi:

- o'zi haqida — "men" deb birinchi shaxs nomidan gapiradi;

- o'zi haqida so'zlaydi (ismi, familiyasi, yoshi, jinsi va boshqalarni biladi) ;

- o'z yaqin insonlariga murojaat qiladi va yordam so'raydi;

- bolalar salbiy harakatiga o'z munosabatini bildiradi;

3-4 yoshli bolalarga Konstitutsiya saboqlarini berish jarayonida asosiy e'tibor bolalar tushunadigan va qiziqarli tarzda materiallar taqdim etishga qaratilishi kerak. Ertaklar, o'yinlar, vizual materiallar va suhbatlar orqali bolalar o'z huquq va burchlarini, tenglik va adolatni tushunadilar. Bu yoshdagi bolalar uchun Konstitutsiyaning asosiy tushunchalarini o'rgatish, ularning axloqiy va huquqiy ongini rivojlantirishga katta yordam beradi.

O'rta guruhlarda (4-5 yosh). Bu yosh guruhlari Konstitutsiya saboqlarini o'rganishda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida yoshiga doir quyida natijalar kutiladi:

- o'z xohish istaklari, qiziqishlarini bildiradi;

- o'z hatti harakatlariga javob beradi ("buni men qildim") ;

- o'z harakatlariga baho beradi;

- kattalarga murojaat qiladi va o'z fikrini bayon qiladi;

- o'z oila a'zolariga samimiy munosabat bildiradi va uyida ma'lum bir qoidalariga rioya qiladi;

4-5 yoshli bolalar uchun Konstitutsiya saboqlarini berish jarayonida, bolalar o'z huquqlari va mas'uliyatlarini tushunishga qodir bo'ladi. Bu yoshda erkinlik, adolat, tenglik va o'z huquqlarini himoya qilish kabi tushunchalarni o'rgatish juda samarali bo'ladi. Ertaklar, o'yinlar, vizual

materiallar, kichik suhbatlar va interaktiv faoliyatlar orqali bu tushunchalarni bolalarga o'rgatish mumkin.

Katta guruhlarda (5-6 yosh). Bu yoshdagi bolalarga Konstitutsiya saboqlarini o'rgatish – yanada murakkabroq tushunchalarni o'rgatish imkoniyatini beradi, chunki ular o'z huquqlari va burchlari haqida o'ylashni boshlaydilar va abstrakt fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarga Konstitutsiyaning asosiy tamoyillarini o'rgatishda ko'proq interaktiv metodlar, qiziqarli o'yinlar, ertaklar, vizual materiallar va suhbatlardan foydalanish samarali bo'ladi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq 5-6 yoshdagi bolalar konstitutsiyaviy savodxonligiga quyidagicha talablar qo'yiladi:

- o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qiladi va bajaradi;

- o'zining qaysi millatga mansubligini biladi ;

- o'zining hoxish-istaklari va qiziqishlarini aniq belgilaydi;

- mustaqil o'ziga faoliyat turini tanlaydi;

- g'oyalar taklif etadi, tashabbuskor;

- kimnidir xafa qilsa, o'zini aybdor xis qiladi;

- yaxshi yoki yomon xulqqa baho bera oladi;

- qo'rquv va xavfni tushunadi;

- oil va guruhda tashkil etilgan mehnat faoliyatida ishtirok etadi;

- o'z suhbatdoshiga iltimos yoki ma'lumotni ayta oladi;

- mustaqil, kattalardan bevosita mustaqillikni erkin namoyon etadi,

- yordam ko'rsatishga tayyor;

- tanish insonlar bilan oson muloqotga kirishadi;

tushunchalarda yoritilgan ijtimoiy hulq qoida va me'yerlariga bo'ysunadi (mumkin, ma'n etiladi , yaxshi, yomon, kerak va h.k)

boshqa bolalar bilan doimiy do'stona munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Tayyorlov guruhida (6-7 yosh) - bu yoshdagi bolalar uchun konstitutsiya saboqlari bilan tanishtirish muhim jarayon bo'lib, ular o'z huquqlari, mas'uliyatlari va o'zaro munosabatlar haqida aniqroq tushunchaga ega bo'lishadi. Bu yoshda bolalar o'zlarining huquqlarini anglay olishadi, va huquqiy, axloqiy qadriyatlarni o'rganishga tayyor bo'lishadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq 6-7 yoshdagi bolalar konstitutsiyaviy savodxonligiga quyidagicha talablar qo'yiladi:

- mustaqillikka intiladi;

o'zining oilaviy, gender mansubligiga ijobiy his tuyg'ularni anglaydi va farqlay oladi;

o'zining millati, tili va o'z madaniyatining muhim elementlarini biladi;

o'ziga yuklatigan majburiyatlarni asosida faoliyatni tashkil qiladi;

shaxsiy qarorlarini qabul qilishga qodir;

boshqalarga namuna bo'lishga harakat qiladi.

o'z hissiyotlari nazorat qiladi;

turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsional munosabat bildiradi;

kattalar va tengdoshlar bilan oson muloqotda bo'ladi;

qiyin vaziyatlarda amaliy yechim qidiradi;

boshqalar xatti-harakatiga o'z taassurotlarini bildiradi;

nizolarni hal etishda bir necha metodlardan foydalanadi (tinchlantiradi, o'z o'yinchog'ini beradi, muloyim so'zlar aytadi) ;

o'z ona tilida erkin so'zlashadi;

o'z mamlakati va uning ramzlari haqida tushunchaga ega;

o'z xalqining ayrim milliy an'analari va odatlarini biladi;

atrof-muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog'ozni asrash) shu kabi ko'plab talablardan natija kutiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga Konstitutsiya saboqlarini berishda tarbiyachining roli juda muhimdir, chunki tarbiyachi bolalarning huquqiy ongini shakllantirish, ularni huquqiy qadriyatlar va adolatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishda bevosita ishtirok etadi. Tarbiyachining vazifasi bolalarga Konstitutsiya tamoyillarini oddiy va tushunarli tarzda yetkazish, shuningdek, ular bilan interaktiv metodlar orqali huquqiy saboqlarni o'rgatishdir. Quyida tarbiyachining bu jarayondagi asosiy rollari va vazifalari keltirilgan:

1. Konstitutsiya haqidagi bilimlarni bolalar bilan soddalashtirilgan tarzda o'rgatish. Misol uchun, "Konstitutsiya" atamasini tushuntirayotganda, bolalarga "Konstitutsiya – bu bizning huquqlarimizni himoya qiladigan asosiy qoidalar to'plami" deb aytish mumkin. Konstitutsiyaning asosiy tamoyillarini (erkinlik, tenglik, adolat) bolalarga yengil tilda tushuntirish. Yoki kunlik hayotga bog'lash: "Sen o'ynash huquqiga egasan" yoki "Boshqalarni xafa qilmasdan o'z fikringni aytish huquqiga egasan" kabi soddagina misollar orqali tushuntirish.

2. Interaktiv metodlardan foydalanish. Tarbiyachi bolalar bilan o'yinlar, ertaklar, hikoyalar va rolli o'yinlar orqali Konstitutsiya

saboqlarini o'rgatishda faol ishtirok etishi kerak. O'yinlar bolalarga haqiqiy hayotdagi huquqiy vaziyatlarni tushunishga yordam beradi va ularda huquqiy ongni shakllantiradi.

3. Adolat va tenglik tushunchalarini o'rgatish. Tarbiyachi bolalarga adolat va tenglikni amaliy misollar bilan tushuntirishi kerak. Misol uchun, o'yinchoqlarni teng taqsimlash, boshqalar bilan o'ynashda teng imkoniyat berish kabi faoliyatlar orqali bolalar adolatni va tenglikni o'rganadilar.

4. Bolalarni o'z huquqlarini himoya qilishga o'rgatish. Tarbiyachi bolalarga o'z huquqlarini hurmat qilishni, boshqalarning huquqlarini buzmaslikni va adolatli bo'lishni o'rgatishi kerak. Bu, o'z navbatida, bolalarning kelajakda huquqiy mas'uliyatli va adolatli fuqarolar bo'lishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga Konstitutsiya saboqlarini berishda tarbiyachining roli juda katta. Tarbiyachi nafaqat huquqiy tushunchalarni o'rgatishda, balki bolalarda huquqiy ongni shakllantirishda, adolat, erkinlik, tenglik kabi muhim qadriyatlarni tushuntirishda, va bolalarni o'z huquqlarini himoya qilishga o'rgatishda faol ishtirok etadi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bolalarga huquqiy tarbiya berish qaysi yosh guruhlardan boshlab o'tkaziladi?
2. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan huquqiy tarbiya berish haqida asarlaridan misollar keltiring.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida huquqiy tarbiya berishda zamonaviy metod va texnologiyalardan misollar keltiring.
4. Bolalarga Konstitutsiya saboqlari berishning ahamiyati.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA “BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDA”GI BMT KONVENSIYASIDAN FOYDALANISH.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya”dan foydalanishning ahamiyati.
2. “Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya” ning asosiy tamoyillari.

***Tayanch tushunchalar:** konvensiya, bola huquqlari, qonun, modda, tamoyil, tenglik, millat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT).*

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" dan foydalanishning ahamiyati.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (BHTK) - bu 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan va 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan xalqaro huquqiy hujjatdir. Ushbu Konvensiya bolalarning asosiy huquqlari va ularni himoya qilishga doir tamoyillarni belgilab beradi.

Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya dunyoning barcha mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, asosiy maqsadi bolalar manfaatlarini mumkin qadar himoya qilishdan iborat. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat. Konvensiyaga asosan agar milliy qonunlarda balog'at yoshi birmuncha erta belgilangan bo'lmasa, 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya insonning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari yig'indisidan iborat. U bolalar o'zining axloqiy, aqliy va ruhiy qobiliyatlarini erkin rivojlantirishi uchun boshqa narsalardan tashqari sog'lig'i va atrof muhitning xavfsizligi, tibbiy yordamga ega bo'lish va ovqatlanish, kiyim-kechak, turarjoy xususidagi minimal normalar bilan ta'minlanishi zarurligini talab etadi. Konvensiyaga ko'ra, bola o'zining kamol topishida o'zi faol ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilish huquqiga ega, bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda hisobga olinishini ta'minlaydi. Konvensiya bolaning yashash va sog'lom rivojlanish huquqiga, farzandlikqa olish bilan bog'lits huquqqa, noraso bolalar va qochoq bolalar, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning huquqlariga oid qoidalarni o'z ichiga oladi, bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularni himoya qilishda oila va ota onaning birinchi darajali roli, bolalarga yordam ko'rsatish borasidagi majburiyatini tan oladi.

"Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya 3 qismdan iborat va ular haqida qisqacha to'xtalamiz:

Konvensiyaning birinchi qismida "bola" tushunchasiga aniqlik kiritiladi va uning huquqlari sanab o'tiladi: yashash huquqi, fuqarolik, o'z fikrini bildirish, ota-onasi kim ekanini bilish va boshqalar. Ushbu hujjat zo'ravonlik va qurolli to'qnashuvlar qurboni bo'lgan, shuningdek, qonunni buzgan va muomalaga layoqatsiz bolalarning yuridik himoyasini nazarda tutadi. Shuningdek, unda bolalarni ba'zi bir salbiy hodisalar (giyohvandlik va ruhiy ta'sir etuvchi moddalarni noqonuniy iste'mol qilish, bola savdosi

va g'ayriqonuniy maqsadlarga jalb etib, ulardan foydalanish) kabi ta'sirlardan himoya qilish masalalari ham alohida qayd etilgan.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir mamlakat o'z milliy qonunchiligini uning qoidalariga muvofiq qayta ko'rib chiqishlari lozim. Ilgari bola haqida g'amxo'rlik u himoyaga muhtoj bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilar edi. Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan mutlaqo yangi konsepsiya belgilandi. Unda ta'kidlanishicha, g'amxo'rlik va himoya bu — muruvvat masalasi emas, balki huquqdir.

Konvensiyaning ikkinchi qismida, uni ratifikatsiya qilgan davlatlar unga qat'iy rioya etish ustidan nazorat tizimi va uning mazmuni haqidagi ma'lumot tartibi belgilab qo'yilgan. Bola huquqlari bo'yicha juda keng vakolatga ega bo'lgan BMT Qo'mitasini ta'sis etish haqida yo'riq berilgan.

Konvensiyaning uchinchi qismida uning talablari davlatlar tomonidan qabul qilinishi va rioya etilishining huquqiy jihatlari belgilab qo'yilgan.

Konvensiya 54 moddadan iborat bo'lib, uning ba'zi muhim moddalari:

1-Modda: Bola — 18 yoshga to'lmagan shaxs.

2-Modda: Bola huquqlariga rioya qilishda barcha bolalarga teng munosabatda bo'lish, ularga diskriminatsiya qilmaslik.

6- Modda: Har bir bolaning hayotga, rivojlanishga va hayotining eng yaxshi imkoniyatlariga ega bo'lish huquqi.

12- Modda: Bola o'z fikrini erkin ifodalash huquqiga ega bo'lishi kerak, va ularning fikrlari qarorlar qabul qilishda inobatga olinishi lozim.

28- Modda: Bola ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim, rivojlanish va o'qish imkoniyatlari ta'minlanishi kerak.

31- Modda: Bola o'ynash va dam olish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. Unga O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 9 dekabrda qo'shilgan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar uni bajarish yuzasidan tadbirlar bo'yicha Bola huquqlari qo'mitasiga muntazam ravishda milliy ma'ruzalar yuborib turadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu Konvensiyani bajarish bo'yicha birinchi milliy ma'ruza 1997-yilda tayyorlandi. O'zbekistonda bola huquqlari quyidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinishi bilan «Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019-

yil 22 apreldagi PQ-4296-sonli qaroriga binoan Ombudsman hozirda o'z o'rinbosariga – bolalar huquqlari bo'yicha vakilga ega.

Konvensiyaning asosiy g'oyasi – bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash bo'lsa, uning qoidalari bolalar huquqlarini ta'minlashi kerak bo'lgan 4 ta asosiy talabga jamlangan. Omon qolish, rivojlanish, himoya qilish va jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash shular jumlasidan.

Konvensiyaning bolalarga ta'siri:

Huquqlarni himoya qilish: Konvensiya bolalarning huquqlarini himoya qilish va bu huquqlarni bajarish uchun davlatlarni majbur qiladi. Shuningdek, bolalar o'z huquqlarini bilishi va himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tarbiyaviy ahamiyati: Bola huquqlari Konvensiyasi maktabgacha ta'lim va ta'lim tizimlarida bolalarga o'z huquqlarini o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Bu orqali bolalar o'zlarining huquqlari haqida bilib, ularni himoya qilishni o'rganadilar.

Jamiyat va davlat mas'uliyati: Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya davlatlarni bolalarni himoya qilishda faoliyat olib borishga chaqiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va tarbiyachilar, o'z navbatida, bu huquqlarni bolalarga o'rgatishda bevosita ishtirok etishadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyani o'rgatish: Maktabgacha ta'limda bolalarga Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya asosida saboqlar berish, ularning huquqiy savodxonligini oshirishga yordam beradi. Tarbiyachilar, o'yinlar, hikoyalar, vizual materiallar va boshqa interaktiv metodlar orqali bolalarga quyidagi tamoyillarni o'rgatishlari mumkin:

Erkinlik va tenglik: Bolalarga ularning huquqlari tengligini va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishni o'rgatish.

Adolat: Har bir bola adolatli muomala qilishni va o'z huquqlarini himoya qilishni o'rganishi lozim.

Bola ishtiroki: Bolalarni o'z fikrlarini ifodalashga, qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga o'rgatish.

Konvensiya, shuningdek, o'qituvchilar va tarbiyachilarga bolalarni huquqlarini hurmat qilish, shaxsiy yondashuvni qo'llash va adolatli ta'lim tizimini ta'minlashda yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bolalarni kamsitmaslik — Konvensiyaning muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Bolalar irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, millim, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, sog'lig'ining ahvoli otaonasi yoki qonuniy vasiysi yoxud qandaydir boshqa holatlardan qati nazar, biron bir kamsitishlarsiz o'z huquqlaridan foydalanishi kerak.

2.“Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ning asosiy tamoyillari.

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya davlatlarni bola huquqlarini himoya qilish va amalga oshirishda javobgar qiladi. Konvensiya to‘rtta umumiy tamoyilni nazarda tutadi. Ular Konvensiyani umuman talqin qilishda yordam berish va uni amalga oshirish bo‘yicha milliy dasturlarni shakllantirishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan. Ular quyidagilar:

Kamsitilishga (diskriminatsiyaga) yo‘l qo‘ymaslik (2-modda): Ishtirokchi davlatlar o‘z yurisdiksiyasidagi barcha bolalar o‘z huquqlaridan foydalanishini ta‘minlashi kerak. Hech bir bola kamsitilmasligi kerak. Bu “irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulki, sog‘lig‘i yoki tug‘ilishi holatidan qat‘i nazar, har bir bolaga, uning ota-onasi yoki qonuniy vakillariga” tegishli. Bu moddaning mohiyati imkoniyatlar tengligidir. Qizlar o‘g‘il bolalar bilan bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak. Qochqin bolalar, chet ellik bolalar, mahalliy xalqlar yoki ozchilik guruhlari bolalari boshqa bolalar bilan bir xil huquqlarga ega bo‘lishi kerak. Nogiron bolalar ham munosib turmush darajasiga ega bo‘lishlari uchun bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Bolani eng yaxshi manfaatlarini ta‘minlash (3-modda): Davlat organlari bolalarga nisbatan qarorlar qabul qilishda bolaning eng yaxshi manfaatlarini hisobga olish kerak. Bu tamoyil sudlar, ma‘muriy organlar, qonun chiqaruvchi va davlat va xususiy ijtimoiy ta‘minot institutlarining qarorlari bilan bog‘liq. Bu, albatta, Konvensiyaning asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, uni amalga oshirish katta qiyinchiliklar tug‘diradi.

Hayot, omon qolish va rivojlanish huquqi (6-modda): Yashash huquqi bandi omon qolish va rivojlanish huquqi to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga oladi, ular “iloji boricha” ta‘minlanishi kerak. “Taraqqiyot” atamasini bu kontekstda sifat jihatini qo‘shib keng ma’noda talqin qilish kerak: bu nafaqat jismoniy salomatlik, balki aqliy, hissiy, aqliy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni ham anglatadi.

Bolaning qarashlari (12-modda): Bolalar o‘zlariga taalluqli bo‘lgan barcha masalalarda o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari kerak va bu qarashlarga “bolaning yoshi va yetukligiga muvofiq” tegishli e‘tibor berilishi kerak. Asosiy g‘oya shundan iboratki, bolalar o‘z fikrlarini

eshitish va jiddiy qabul qilish huquqiga ega, shu jumladan ularga tegishli sud va ma'muriy jarayonlarda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaxshi sharoitlarni yaratishga va ularning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjat bo'lib, bolalar uchun eng yaxshi hayot sharoitlarini yaratishda davlat, jamiyat va oilaning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya nechanchi yil qabul qilingan?
2. O'zbekistonda nechanchi yil Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya a'zosi bo'ldi?
3. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya ning asosiy tamoyillari haqida gapiring.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning roli haqida gapiring.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishning nazariy asoslari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo'llari.
3. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida faoliyat markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasini tashkil etish.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat burchagidagi faoliyatlari.

Tayanch tushunchalar: ekologiya, dastur, tabiat burchagi, individual, ekologik madaniyat, resurs, fauna, flora.

1.Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishning nazariy asoslari.

Maktabgacha yosh - bu bolaning dunyoni idrok etish asoslarini shakllantirish uchun eng yaxshi vaqt. Kichik yoshdagi bolalar juda hissiy, sezgir va rahmdil bo'lib, tabiatni tirik organizm sifatida qabul qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi, birinchi navbatda, bolaning atrof-muhitga - yerga, suvga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ijobiy munosabatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda, bolalarda ekologik ongni rivojlantirish, atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslarni tejash, ularning hayotini va sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan ko'nikmalarni shakllantirish asosiy maqsad etib belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga muhabbat va hurmatni rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi ekologik ta'lim bolalarga beriladi:

- tabiatga insonparvar, hissiy jihatdan ijobiy munosabatda bo'lish, uning go'zalligini qadrlash, unda ijodiy o'zini namoyon qila olish;

- tabiat, geografiya, ekologiya haqidagi asosiy ilmiy bilimlarni kengaytirish va tizimlashtirish, tabiatning yaxlitligini va barcha tirik mavjudotlarning o'zaro bog'liqligini tushuntirish;

- zamonamizning global ekologik muammolari va ularni hal qilish yo'llari haqida dastlabki tushunchalar: o'rmonlarning kesilishi, hayvonlar va o'simliklarning yo'q bo'lib ketishi, dunyo okeanining ifloslanishi, global isish, aholining haddan tashqari ko'payishi, chuchuk suv yetishmasligi, shaharlardagi ekologik vaziyatning yomonlashishi, axlat tashlash va boshqalar;

- atrof-muhit bilan inson munosabatlarining mohiyatini va uning ekologik vaziyatga ta'sirini tushuntirish;

- atrof-muhit va tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni shakllantirish, tabiatni asrash uchun o'z mas'uliyatini tushunish;

- o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni, tabiatda to'g'ri xulq-atvor normalarini shakllantirish;

- sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ekologik odatlar haqida g'oyalarni shakllantirish kabi bilimlar tizimli va izchil yetkaziladi.

Shuningdek, ekologik ta'lim - bu, birinchi navbatda, bolalarda insonparvarlik, yaxshi niyat, hissiy sezgirlik va ularning atrofidagi dunyoga qiziqishni tarbiyalash va bu bolalikdan amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, bolada qiziquvchanlikni, taqqoslash, tahlil qilish qobiliyatini va yuzaga keladigan savollarga mustaqil ravishda javob izlash zarurligini rivojlantirish juda muhimdir.

Bolalarga ekologik tarbiya berishning nazariy asoslari, ekologik bilimlarning shakllanishi, tabiat bilan bo'lgan munosabatning o'zgarishi va atrof-muhitni himoya qilishni tushunish jarayonlari bilan bog'liqdir. Ushbu jarayonlar bilim, qadriyatlar va amaliy ko'nikmalarni o'rgatish orqali ekologik ongni rivojlantirishga qaratilgan. Ekologik tarbiyaning nazariy asoslari turli fanlar, metodologiyalar va psixologik yondashuvlar bilan bog'liq bo'lib, quyidagi muhim tushunchalar va nazariy g'oyalarga asoslanadi:

1. Ekologik bilimlar va ong. Ekologik tarbiya berishning asosiy maqsadi bolalarda ekologik bilimlar va ongni rivojlantirishdir. Ekologik bilimlar – bu tabiiy resurslar, ekologik tizimlar, ularning ishlash prinsiplari, inson faoliyatining atrof-muhitga ta'siri va ekologik muammolar haqida bilimlar to'plamidir. Ekologik ong esa, atrof-muhitni tushunish va unga bo'lgan mas'uliyatni anglashni ifodalaydi. Ekologik ongni rivojlantirish, bolalar uchun ularning atrofidagi tabiatni va resurslarni asrash zarurligini tushuntirishga qaratilgan.

2. Rivojlanish psixologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi, ularning dunyoqarashi, qiziqishlari va qadr-qat'iyati shakllanayotgan davrdir. Bolalar ekologik tarbiyani qanday qabul qilishi va tushunishi, ularning psixologik rivojlanishiga bog'liq. Psixologlar va pedagoglar bu jarayonda bolalar psixikasining xususiyatlarini inobatga olgan holda, ular bilan ekologik tushunchalarni o'rgatishning samarali yo'llarini ishlab chiqadilar. Masalan, kichik yoshdagi bolalar ko'proq ko'rish, sezish va o'rganish orqali ma'lumotni qabul qiladilar, shuning uchun ekologik tarbiya o'yinlar, tasvirlar, va tabiatni sezishga asoslangan faoliyatlar orqali o'tkaziladi.

3. Tarbiyaviy va ma'naviy yondashuvlar. Ekologik tarbiyaning maqsadi faqatgina bilim berish emas, balki bolalarda ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishdir. Ekologik tarbiya bolalarda tabiatga nisbatan mas'uliyat, g'amxo'rlik, hurmat va sevgi kabi ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishni ko'zlaydi. Bu qadriyatlarni bolalar ongiga singdirish orqali ularning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli munosabatini rivojlantirish mumkin. Ekologik tarbiya jarayonida bolalar tabiat bilan hamohang yashashni, tabiiy resurslarni tejashni va ularni asrashni o'rganadilar.

4. Pedagogik yondashuvlar. Ekologik tarbiya pedagogik nazariyalar va metodlar asosida amalga oshiriladi. Pedagogika fanining ekologik tarbiya bilan bog'liq bo'lgan qismi, bolalar o'quv jarayoniga ekosferaning ahamiyatini kiritishga, ularning atrof-muhit bilan uyg'un munosabatini yaratishga qaratilgan. Pedagogik usullar ekologik faoliyatlar, o'yinlar,

qo'llanmalar, rassomlik, amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Ekologik tarbiya jarayonida bolalar faolligini oshirish, ularning tabiatni o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish maqsadida didaktik metodlar va o'yinlar qo'llaniladi.

6. Ekologik etika va mas'uliyat. Ekologik etika insonning atrof-muhitga, tabiatga va uning resurslariga nisbatan mas'uliyatini tushunishga yordam beradi. Ekologik tarbiya jarayonida bolalarga ekologik etikaning asoslari o'rgatiladi. Ular ekologik muammolarni hal etishda shaxsiy mas'uliyatni tushunishga, tabiatni saqlash va himoya qilish uchun atrof-muhitda faoliyat ko'rsatishga tayyorlanadi.

7. Sotsial pedagogika va jamiyat. Ekologik tarbiya jamiyatning bir qismi sifatida ham ahamiyatli. Jamiyatning ekologik holati va tabiatga bo'lgan yondashuvi bolalar tarbiyasiga ta'sir qiladi. Ekologik muammolar, ekologik ta'limning ahamiyati jamiyatda keng muhokama qilinishi va ekologik ongni rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlash lozim. Bu jarayon bolalarda ijtimoiy mas'uliyatni, jamiyatga bo'lgan qarashni va ekologik ta'limning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bolalarga ekologik tarbiya berishning nazariy asoslari, ekologik bilimlar, psixologik yondashuvlar, pedagogik metodlar va jamiyatdagi ekologik etikaning ahamiyatiga asoslanadi. Ushbu nazariy asoslar bolalarda ekologik ongni shakllantirish, atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish va tabiatni himoya qilishga oid qadriyatlarni o'rgatish uchun zarur bo'lgan poydevorlarni yaratadi. Bu jarayon bolalarning kelajakda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Natijada bolalarlarga berilgan bilimlar ancha samarali o'zlashtiriladi va bolalarning ekologik savodxonligi oshadi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo'llari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning bir nechta samarali yo'llari mavjud. Ushbu yoshdagi bolalar tabiatni o'rganishga tayyor va ularning kognitiv rivojlanishiga foydali bo'ladigan metodlarni qo'llash juda muhimdir. Quyida ba'zi samarali usullarni ko'rib chiqamiz:

1. Ta'limiy faoliyat
2. O'yin faoliyati
3. Mehnat faoliyati

4. Ekskursiya (sayr)

1. Ta'limiy faoliyat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ta'limiy faoliyat orqali amalga oshirilishi, ularni tabiatni sevadigan, tushunadigan va asrashga mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Shu bilan birga, bolalar o'rganish jarayonida faol ishtirok etishlari, kuzatishlar o'tkazishlari va o'zlari uchun yangi bilimlarni kashf qilishlari muhimdir. Tabiat bilan bog'liq ta'limiy faoliyatlar bolalarning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. O'yin faoliyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda o'yin faoliyatidan foydalanish, ular uchun eng samarali va qiziqarli o'rganish usulidir. Bolalar o'yin orqali tabiatni o'rganishda faollik ko'rsatadilar, chunki o'yin bolalarning qiziqishini uyg'otadi va tabiatni tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Didaktik o'yinlar - didaktik o'yinlarda bolalar ob'ektlar va tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonlar haqidagi mavjud tasavvurlarini aniqlaydilar, mustahkamlaydilar va kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish va tasniflashga olib keladi. Didaktik o'yinlar diqqatni, xotirani, kuzatishni rivojlantirishga yordam beradi, so'z boyligini faollashtiradi va boyitadi.

Predmetli o'yinlar - barglar, urug'lar, gullar, mevalar va sabzavotlar bilan o'yinlar: "Ajoyib sumka", "Ust va ildizlar", "Bu novdada kimning bolalari?" Kichik va o'rta guruhlarda keng qo'llaniladi. Chop etilgan stol o'yinlari: "Zoologik lotto", "Botanika lotto", "To'rt fasl", "O'simliklar" - bolalarning o'simliklar, hayvonlar va jonsiz tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini tizimlashtirish imkoniyatini beradi.

Harakatli o'yinlar. Hayvonlarning odatlariga va ularning turmush tarziga taqlid qilish bilan bog'liq o'yinlar. Bular "Ona tovuq va jo'jalar", "Sichqon va mushuk", "Quyosh va yomg'ir" kabilardir.

3. Mehnat faoliyati. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda mehnat faoliyatini qo'llash, ularning atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli va faol munosabatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq amaliy faoliyat orqali o'rganishga qiziqadilar, shuning uchun mehnat faoliyati ularni tabiatni anglashga va unga g'amxo'rlik qilishga o'rgatishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Tabiatdagi mehnat individual va jamoaviy topshiriqlar shaklida tashkil etiladi. Individual topshiriqlar bolalarning harakatlarini diqqat bilan boshqarishga imkon beradi, jamoaviy ish esa guruhdagi barcha bolalarda bir vaqtning o'zida mehnat ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda mehnat faoliyatining qanday qo'llanilishi quyidagicha amalga oshiriladi:

- O'simliklarni parvarish qilish;
- Tabiatni tozalash va gigiena ishlari;
- Hayvonlarni boqish va ularga g'amxo'rlik qilish;
- Tabiatdagi o'zgartirishlar va mavsumiy ishlar;
- Qishloq mehnatiga oid faoliyatlar kabilarni misol qilish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mehnat faoliyatlari, nafaqat tabiatni o'rganish, balki ularga tabiatga bo'lgan hurmat va g'amxo'rlikni rivojlantirish imkonini beradi. O'simliklarni parvarish qilish, tabiatni tozalash, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish va boshqa faoliyatlar bolalarni tabiat bilan yaqinlashtiradi, ularni ekologik ongli, mas'uliyatli va mehnatkash shaxslar sifatida tarbiyalaydi. Mehnat faoliyatlari bolalarga tabiatni anglash va unga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

4.Ekskursiyalar — bu bolalarga tabiatni bevosita o'rganish va tajriba qilish imkoniyatini yaratadi. Tabiatga sayohatlar, ekskursiyalar nafaqat bolalar uchun bilim olishning samarali shakli bo'lib, balki ularni tabiatga mehr qo'yish, sezgirlik va ekologik ongni rivojlantirishga yordam beradi. Ekskursiya jarayonida bolalar nafaqat tabiatni kuzatib, o'rganadilar, balki o'zlarini tabiatda qanday tutishlari, uning muhofazasi va uning ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Ekskursiya orqali bolalar tabiatdagi turli elementlarni (o'simliklar, hayvonlar, geologik shakllar, fasl o'zgarishlari) bevosita kuzatadilar. Bu bevosita tajriba, bolalarga tabiatni tushunishga va uning murakkab jarayonlarini anglashga yordam beradi. Shuningdek, ekskursiyalar bolalar hayotida quyidagi vazifalarni bajaradi:

* bolalar havo, tuproq, daraxtlar va gullar bilan bevosita muloqotda bo'lishadi, bu esa ularni tabiat bilan bog'lashga yordam beradi;

* ekskursiyalar bolalarga o'rgatishning amaliy va vizual shakli bo'lib, ularni nazariy bilimlar bilan to'ldirishga yordam beradi;

* ekskursiyalar orqali bolalar nafaqat tabiatni o'rganadilar, balki uning muhofazasi va ekologik ahamiyati haqida ham tushuncha hosil qiladilar;

* tabiatni bevosita kuzatish, uning nozikligi va go'zalligini his qilish bolalarda uni asrashga bo'lgan mas'uliyatni shakllantiradi;

* ekskursiyalar bolalarda kuzatish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi;

* bolalar turli ob'ektlarni, o'simliklarni, hayvonlarni kuzatib, ular haqida o'z fikrlarini aytishadi. Bu jarayon, ularning analitik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi;

* ekskursiyalar nafaqat intellektual rivojlanishga, balki jismoniy va ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

* Tabiatga sayohatlar, bolalar uchun qiziqarli va qiyin vazifalarni bajarish imkoniyatini beradi.

3. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida faoliyat markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasini tashkil etish.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik tarbiyani tashkil etish, bolalarning atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturiga ko‘ra, bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari
- bilish jarayonining rivojlanishi
- ijodiy rivojlanish.

Ta’lim va tarbiya jarayoni davlat talablari va davlat o‘quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi muhitning mazmuni maktabgacha ta’lim tashkilotining sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda 5ta rivojlanish markazlarini tashkil etishni ta’minlashi kerak. Ular:

1. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;
2. Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi;
3. Til va nutq markazi;
4. Ilm-fan va tabiat markazi;
5. San’at markazi.

Ushbu markazlardan “Ilm-fan va tabiat markazi”da maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasini tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin. Chunki bu markazda xona o‘simliklari (gullar), shuningdek, akvarium, qushlar joylashishi mumkin. Bundan tashqari, turli

tabiat hodisalari, predmetlar va tabiiy jarayonlar haqida tajribalar olib boriladi. Ushbu tajribalar va ishlarni tashkil etishda quyidagi jihozlar va materiallar bo'lishi "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilab qo'yilgan:

Jihozlar:

- stol (1), stullar (2-4);
- materiallarni saqlash uchun ochiq javonlar.

Materiallar: tadqiqot uchun turli ob'ektlar to'plami (toshlar, dengiz chig'anog'i, qarag'ay g'uddasi, minerallar, gazlamalar, urug'lar, o'simliklar (gerbariy va boshqalar) to'plamlari); kattalashtiradigan oynalar, lupalar; mikroskop; magnitlar to'plami; tajriba uchun to'plamlar; tarozilar; bolalar uchun xavfsiz termometrlar; qum soati, sekundomer; o'lchov stakanlari to'plamlari; ob-havo taqvim; globus, geografik xaritalar, bolalar atlas; tasvirli o'quv kitoblari, plakatlari, rasmlar

Ushbu materiallar va jihozlarning barchasi "Ilm-fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan, unda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar bilan tanishtirishda katta ahamiyatga ega.

"Ilm-fan va tabiat markazi"da maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasini tashkil etish — bu ekologik bilimlarni bolalar ongiga singdirish, ularni tabiatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. "Ilm-fan va tabiat markazi" maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik tarbiyani to'g'ri tashkil etishda katta imkoniyatlarga ega. Bunday markazlar bolalarga tabiatni o'rganish, unga g'amxo'rlik qilish va ekologik ongini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. "Ilm-fan va tabiat markazi"da tabiat bilan tanishtirish ishlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi faoliyatlar amalga oshirilishi mumkin:

Tabiatni o'rganish va tajriba qilish. Markazda bolalar uchun tabiatni o'rganish va tabiatdagi jarayonlar bilan bevosita tanishish uchun sharoitlar yaratilishi zarur. Buning uchun:

Tabiat ekspozitsiyalari va maketlar. Markazda o'simliklar, hayvonlar va tabiiy ob'ektlarning maketlari yoki ekspozitsiyalari bo'lishi mumkin. Bu bolalarga tabiatni turli shakllarda o'rganish imkoniyatini beradi. Mini hayvonot bog'lari va o'simliklar maydonchasi: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'simliklar va hayvonlar bilan bevosita muloqot qilish, ularni boqish va parvarish qilish kabi faoliyatlar juda muhim. Bolalar o'simliklarning o'sish jarayonlarini kuzatib, hayvonlarning tabiiy yashash sharoitlarini o'rganadilar.

Interaktiv tabiiy jarayonlar: Bolalar uchun ekologik jarayonlarni tushunish uchun interaktiv o'yinlar yoki laboratoriyalar tashkil qilish.

Masalan, “o‘simliklar qanday o‘sadi?” yoki “qushlar qanday oziqlanadi?” kabi tajribalar yordamida tabiat jarayonlari haqidagi bilimlar mustahkamlanadi.

Praktik ishlar va amaliy faoliyatlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ularni amaliy ishlar va faoliyatlar bilan shug‘ullantirish juda muhim. “Ilm-fan va tabiat markazi”da bunday faoliyatlarni quyidagi tarzda tashkil etish mumkin:

O‘simliklarni ekish va parvarish qilish.

Hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish.

Chiqindilarni ajratish va tozalash ishlari: (masalan, organik va noorganik chiqindilarni ajratish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish.)

Tabiiy materiallardan ishlash: Bolalar uchun tabiiy materiallar yordamida (tuproq, yaproqlar, g‘ishtlar, yog‘och va boshqalar) san‘at asarlarini yaratish. Bu orqali bolalar tabiatni san‘at orqali o‘zlashtiradilar.

“Ilm-fan va tabiat markazi”da tabiat bilan tanishtirish tizimini tashkil etishda pedagoglarning roli juda katta. Ular ekologik ongni shakllantirishda o‘z bilimlari, tajribalari va interaktiv usullari bilan faol ishtirok etadilar.

4.Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat burchagidagi faoliyatlari.

Tabiat burchagi — bu bolalarning tabiatni bevosita kuzatib, amaliy faoliyatlarini olib boradigan maxsus tashkil etilgan o‘quv maydoni bo‘lib, unda o‘simliklar, hayvonlar, toshlar, suv va boshqa tabiiy ob‘ektlar bo‘lishi mumkin. Tabiat burchagidagi faoliyatlar bolalar uchun o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ekologik ongni rivojlantirishga yordam beradi.

Tabiat burchagining vazifalari quyidagilardan iborat :

1.Tabiatni o‘rganish va anglash: Bolalar tabiatdagi ob‘ektlar va jarayonlarni kuzatish orqali ilmiy tushunchalarni o‘zlashtiradilar.

2. Ekologik ongni rivojlantirish: Tabiatni sevishga, unga g‘amxo‘rlik qilishga undash va uning resurslarini asrash haqida bilimlarni shakllantirish.

3. Kuzatish va tajriba qilish: Tabiatdagi jarayonlarni bevosita kuzatish va bolalarga tabiat bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatini berish.

4. Amaliy faoliyat orqali bilimlarni mustahkamlash: Tabiatni o‘rganishning amaliy yo‘llari, masalan, o‘simlik ekish, hayvonlarni

boqish, atrof-muhitni tozalash kabi faoliyatlar orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagining ahamiyati bolalarda tabiat haqidagi bilimlari kengayadi, uning ekologik bilimlarga qiziqishi ortadi, yangi narsalarni o'rganishga intilish, qiziquvchanlik, mantiqiy fikrlash, e'tibor va kuzatish rivojlanadi. Shunigdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagida tarbiyachi turli faoliyatlar olib borishi mumkin. Jumladan:

O'simliklar bilan ishlash. O'simliklarni parvarish qilish va ekish bolalar uchun tabiatni o'rganishning eng yaxshi usulidir. O'simliklar bolalar uchun ham o'rganish, ham o'zlarini tabiatda qadrli bir ishtirokchi sifatida his qilish imkoniyatini beradi.

Hayvonlar bilan ishlash. Tabiat burchagida hayvonlar bilan ishlash, bolalar uchun ekologik bilimlarni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bolalar uy hayvonlarini boqish, ularning ehtiyojlarini tushunish va ularga g'amxo'rlik qilish orqali mas'uliyatni o'rganadilar. Shu bilan birgalikda tabiatdagi, bog' yoki boshqa tabiiy joylardagi hayvonlarni kuzatishi va ularning yashash sharoitlarini o'rganishadi.

Tabiatdagi jarayonlarni kuzatish. Tabiat burchagi bolalarga tabiatdagi jarayonlarni bevosita kuzatish imkonini beradi. Bu orqali ular o'simliklar va hayvonlarning yashash muhitlarini, vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchan ekologik jarayonlarni ko'rishadi. Masalan: Fasllar o'zgarishi. Bolalar fasllar o'zgarishini (bahor, yoz, kuz, qish) kuzatib, ularning ta'siri haqida tushuncha hosil qilishadi. O'simliklarning o'sishi va mevalarining pishishi. Bolalar o'simliklar qanday o'sishini va ularning mevalarini qanday pishishini kuzatib, tabiatning siklik jarayonlari haqida bilim olishadi.

Tabiatni asrash va ekologik faoliyatlar. Tabiat burchagida ekologik tarbiyani mustahkamlash uchun bolalar atrof-muhitni asrash, uni tozalash kabi faoliyatlarda ishtirok etishlari kerak. Ya'ni bolalar chiqindilarni turli toifalarga ajratishni o'rganadilar. Masalan, plastik, organik chiqindilar va qog'ozni ajratish. Bu ularni ekologik mas'uliyatga o'rgatadi. Shu bilan birga, o'simliklar va daraxtlarni himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalar o'simliklarga zarar yetkazmaslik, ularga g'amxo'rlik qilish, daraxtlarni kesmaslikni o'rganadilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tabiat burchagidagi faoliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiatni o'rganish, uning go'zalligini va ahamiyatini anglashda juda muhim vositadir. O'simliklar bilan ishlash, hayvonlarni boqish, tabiatdagi

jarayonlarni kuzatish, ekologik mas'uliyatni shakllantirish va san'atchilik faoliyatlari orqali bolalar ekologik bilimlarni o'zlashtiradilar va tabiatga bo'lgan mehrlarini oshiradilar.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishning ijobiy tomonlarini sanang.
2. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida "Ilm-fan va tabiat markazi"da tabiat bilan tanishtirish faoliyatlarni olib borish haqida nimalar yoritilgan?
3. Ekologik tarbiya berishda tarbiyachi pedagoglar nimalarga alohida ahamiyat berishi kerak?
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Tabiat burchaklari"ning bola hayotidagi o'rni.

O'YINNING BOLA FAOLIYATI SIFATIDAGI MOHIYATI VA O'ZIGA XOSLIGI.

Reja:

1. O'yin bola faoliyatining asosiy turi sifatida.
2. O'yinning kelib chiqish tarixi, o'yin turlari.
3. Ijodiy o'yinlar. Ijodiy o'yin turlari.

Tayanch tushunchalar: o'yin, kognitiv, diagnostika, motivatsiya, predmetli, pedagogik, rejim, IQ, mantiq.

1.O'yin bola faoliyatining asosiy turi sifatida.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatini tashkil qilish — bu bolalar uchun ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularning intellektual, hissiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun atrof-olamni o'rganish, turli tushunchalarni shakllantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va hissiy dunyoni kengaytirishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. O'yin, shuningdek, o'rganishning qiziqarli va samarali usulidir, chunki o'yin jarayonida bolalar maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshiradilar, lekin bu jarayon ularni charchatmaydi va ko'proq faollikni oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin faoliyati orqali ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishning asosiy Maqsadi – bolalarning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdir. Ya'ni, o'yin orqali bolalarda kognitiv (aqliy) rivojlanish, qo'shimcha tilni o'rganishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, jismoniy faoliyat va ijodkorlikni yanada rivojlantirish mumkin. Shu bilan birgalikda, o'yinlar bolalarda tushunchalar, kategoriya va bog'lanishlarni o'rganishda yordam beradi. Masalan, ranglar, shakllar, o'lchamlar, sonlar, makon va vaqt tushunchalari o'yinlar yordamida tabiiy ravishda rivojlanadi. O'yinlar bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatadi, masalan, jamoada ishlash, boshqalar bilan muloqot qilish, o'zaro hurmat, adolat, navbatni kutish kabi ko'nikmalar shular sirasiga kiradi. Ayniqsa, o'yinlar orqali bolalar tabiat, hayvonlar va o'simliklar bilan tanishib, ularning ahamiyati haqida bilib olishadi. Jismoniy o'yinlar esa, bolalarning motor ko'nikmalarini (yugurish, sakrash, qo'llar va oyoqlarni harakatlari) rivojlantiradi.

Shuningdek, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida bolaning o'yin o'ynash huquqi tan olinadi, o'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi. O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. O'yin – bu bolani o'zini va atrofidagi dunyoni o'rganishga undashning tabiiy usuli. O'yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi.

O'yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Va, eng muhimi, o'yin ta'lim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O'yin har xil bo'lishi mumkin – bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to'laligicha erkin, pedagogning minimal yoki to'liq ishtirokisiz - pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko'rsatmalari yordamida amalga oshiriladi. Erkin o'yinning ahamiyatini tushunish va e'tirof etish bilan birga, uyushgan o'yinda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak. Ta'lim va tarbiya jarayoni o'yin o'ynash imkoniyatini ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o'yin o'ynash imkoniyatiga hissa qo'shishi kerak. O'yin uchun sharoit yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt,

joy, qo'llab-quvvatlovchi resurslar va o'yinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar bolalar o'yiniga yordam berishlari muhimdir. Bolalar o'yinini tashkil etishda pedagogning o'zni quyidagilar bilan ifodalanadi:

- bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar). Pedagog o'yin maydonchasini tayyorlaydi, bolaning yoshi, qiziqishlari, qobiliyati va madaniyatiga mos keladigan rag'batlantiruvchi o'yin resurslari bilan ta'minlaydi. Pedagog xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda xona ichida va tashqarisida ham o'yin uchun imkoniyatlar yaratadi;

- bolalar o'yinini rivojlantirish. Pedagog bolalarga o'yin orqali o'rganish va rivojlanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Pedagog bolalarga o'yin holatiga kirishga va yoki o'ynashni davom ettirishga yordam beradigan ko'nikmalarni shakllantiradi. U bolalarning individual xususiyatlari, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini kuzatish asosida o'yinni rejalashtiradi;

- bolalarning o'yinda o'zaro munosabatda bo'lishiga yordam berish. Bolalarni o'yinda kuzatish pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday o'ynashini, bola o'yinda qanday ko'nikma va malakalarni namoyon etishini, o'yin orqali qanday ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi. Pedagog o'yinga qo'shilib, bolaning ta'lim olishini, uning tasvirlash, tushuntirish, asoslashi, tegishli tilni qo'llash qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi;

- bolalarga o'zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish. Pedagog rejalashtirishda bolaning o'z g'oyasi asosida yoki uning tashabbusi bilan o'ynash uchun yetarli vaqt ajratadi, bunda bolalar shoshmasdan va kattalar tomonidan to'xtatilishidan qo'rqmasdan o'ynashlari mumkin. Bolalarga erkin o'yin uchun vaqt va kattalarning faol aralashuvisiz o'zlarini va qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyati beriladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinni tashkil etish bolalarning barcha jihatdan rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan muhim faoliyatdir. O'yin faoliyati orqali bolalar nafaqat bilim olishadi, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar, hissiy rivojlanishlari oshadi va jismoniy faollikni o'rganadilar. Shuning uchun, o'yinlar bolalar uchun eng samarali va qiziqarli ta'lim vositasi hisoblanadi.

2. O'yinning kelib chiqish tarixi, o'yin turlari.

Bolalar o'yinining kelib chiqish tarixi insoniyat tarixidagi eng qadimgi va muhim ijtimoiy faoliyatlardan biridir. O'yinlar nafaqat bolalarning rivojlanishi uchun, balki odamlar orasidagi ijtimoiy aloqalar, qadriyatlar va madaniyatlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'yinlarning tarixi orqali biz insonning boshlang'ich o'ynash instinktini, tafakkurining rivojlanish jarayonini va jamiyatda qanday o'yin shakllarining yuzaga kelganini tushunishimiz mumkin.

O'yinlarning arxeologik va tarixiy manbalari. Bolalar o'yinining eng qadimgi izlari arxeologik qazilmalardan topilgan. Yassi toshlar, kukunli bo'yoqlar, gil idishlar va boshqa san'at asarlari orqali qadimgi madaniyatlarda bolalar uchun o'yinlarning mavjudligi haqida dalillar topilgan. Masalan, qadimgi Misrda o'yinc

hoqlar va bolalar o'yinlari tasvirlari mavjud. O'yinlar o'z vaqtida bolalar uchun nafaqat zavq, balki ijtimoiy va madaniy o'rganish jarayonining ajralmas qismi bo'lgan. O'yinlarning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonlarining davrlarga xos bo'lgan evolyutsiyasi

Qadimgi davrlarda jamiyatlarda bolalar o'yinlari. Qadimgi davrlarda bolalar o'yinlari tabiiy va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq bo'lgan. Masalan, ovchilarning va dehqonlarning farzandlari o'zlarining ota-onalarining faoliyatlarini o'rgangan va ularni o'yin orqali takrorlashgan. Jumladan, Qadimgi Gresiyada, Rimda bolalar o'yini san'at va mehnat bilan chambarchas bog'langan. Bolalar ko'pincha yengil jismoniy faoliyatlar (yugurish, kurash, jismoniy musobaqalar) va ma'rifatli o'yinlar bilan shug'ullanganlar. Bu o'yinlar nafaqat bolalarning jismoniy rivojlanishini, balki ruhiy va axloqiy tarbiyasini ham ta'minlagan.

O'rta asrlar va Renessans davrida bolalar o'yinlari. O'rta asrlarda bolalar o'yini asosan o'zaro muloqot, fikr almashish, jismoniy faoliyatlarga asoslangan bo'lgan. Shuningdek, O'rta asrlar jamiyatida bolalar uchun maxsus o'yinlar, o'yinchoqlar juda kam bo'lgan. Bu davrda bolalar asosan tabiatda o'ynashgan, turli o'yinlar ularning ijtimoiy rivojlanishiga yordam bergan. Renessans davrida o'yinlar va o'yinchoqlar ishlab chiqarishda yangi texnologiyalar va usullar paydo bo'ldi. Bu davrda o'yinlar ko'proq ta'limga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar nafaqat zavqlanish, balki o'rganish uchun ham o'ynashgan.

Yangi davrda bolalar o'yinlari. Bolalar o'yini XIX asrda rivojlanishining yangi bosqichiga kirgan. Johann Heinrich Pestalozzi va Friedrich Froebel kabi pedagoglar bolalar tarbiyasida o'yinning ahamiyatini ta'kidlashgan. Froebel, masalan, o'yinlarni bolalarning aqliy

va jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi metod sifatida ko'rgan va o'zining mashhur "kindergarten" (bolalar bog'chasi) tizimini ishlab chiqqan. U bolalar o'yinlarini nafaqat qiziqarli, balki ta'limiy jihatdan ham ahamiyatli bo'lishi kerak, deb hisoblagan. XX asrda o'yinning ta'limdagi roli yanada kuchayib, ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. O'yin, ayniqsa, Lev Vigotskiy va Jean Piaget kabi mashhur psixologlarning ishlarida o'rin olgan. Vigotskiy, masalan, o'yinlarni bolalar o'z salohiyatlarini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'rgan. Piaget esa o'yinlarni bolalar tafakkurining rivojlanishini o'rgatishda muhim vosita deb hisoblagan.

Hozirgi kunda bolalar o'yinlari. Hozirgi kunda bolalar o'yinlari nafaqat jismoniy faoliyatni, balki interaktiv texnologiyalar va raqamli platformalar orqali ham amalga oshiriladi. Kompyuter o'yinlari, video o'yinlar, virtual o'yinlar bolalarning yangi avlodi uchun zamonaviy o'yin shakllarini taqdim etadi. Bu o'yinlar bolalar uchun aqliy, hissiy va jismoniy rivojlanishning yangi usullarini taklif qiladi. Biroq, jismoniy o'yinlarning, tabiiy sharoitda o'ynashning ahamiyati ham saqlanib qolmoqda. Ochiq tabiat qo'ynida o'ynash, guruhli o'yinlar va sport o'yinlari bolalar uchun muhim ta'limiy va sog'lomlashtiruvchi imkoniyatlar yaratadi.

O'yin turlari. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'z dunyoqarashlarini o'yin orqali shakllantiradilar va atrof-muhitni o'rganadilar. O'yinlar turli shakllarda bo'lishi mumkin, va ular bolalar rivojlanishining har bir sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keng tarqalgan o'yin haqida to'xtalamiz:

Jismoniy o'yinlar (Harakatli o'yinlar). Jismoniy o'yinlar bolalarning motor ko'nikmalarini rivojlantirish, energiyasini sarflash va jismoniy salomatlikni saqlashga yordam beradi. Bu o'yinlar bolalarning mushaklar, muvozanat va koordinatsiya kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Misol uchun, "Poyezd", "Chavandozlar" "Kim chaqqon?" "Quyosh va bulut" o'yinlari va h.k

Ijtimoiy o'yinlar. Ijtimoiy o'yinlar bolalarga jamoadagi o'zaro munosabatlarni o'rganishga yordam beradi. Bu o'yinlar bolalarga o'z fikrlarini ifodalash, boshqalar bilan hamkorlik qilish va o'zaro hurmat ko'nikmalarini o'rgatadi. Misol uchun, "Do'konda", "Mehmonda", "Sayohatda", "Oila davrasida", "Maktab" o'yinlari va h.k

Kognitiv o'yinlar (Aqliy o'yinlar). Aqliy o'yinlar bolalarning tafakkurini rivojlantiradi, ularning mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, e'tibor va xotira ko'nikmalarini oshiradi. Bu turdagi o'yinlar bolalar uchun

intellektual rivojlanishning muhim qismidir. Misol uchun, “Shaxmat”, “Shashka”, “So‘z o‘yini”, “Xotira mashqi”, “Matematik jumboqlar” o‘yinlari va h.k.

Rolli o‘yinlar (sahnalashtirilgan-dramatik o‘yinlar). Rolli o‘yinlar bolalarga turli ijtimoiy rollarni o‘rganishga yordam beradi. Bu o‘yinlar bolalar uchun o‘zlariga va boshqalarga nisbatan hissiy tushunchalar va empatiya yaratishga yordam beradi. “Ertaklar olamida”, “Tug‘ulgan kun”, “Odoblar xazinasini”, “Oila” o‘yinlari va h.k.

Konstruktiv o‘yinlar. Konstruktiv o‘yinlar bolalarga turli materiallardan (bloklar, lego, yog‘och bo‘laklar) foydalanib turli shakllar va konstruktsiyalar yaratishni o‘rgatadi. Bu o‘yinlar bolalarning ijodkorlik, mantiqiy fikrlash va motor ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Quruvchi”, “Geometrik shakllar”, “Orzuimdagi uy” o‘yinlari va h.k.

Tabiat bilan bog‘liq o‘yinlar (Ekologik o‘yinlar). Tabiat bilan bog‘liq o‘yinlar bolalarga tabiatni, hayvonlar va o‘simliklarni o‘rganishga yordam beradi. Bu turdagi o‘yinlar bolalarda ekologik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Misol uchun, “Tabiatni asraymiz”, “Bu qaysi hayvon?”, “Fasllar” o‘yinlari va h.k.

Musiqiy o‘yinlar. Musiqiy o‘yinlar bolalarning musiqa tinglash, musiqiy asboblarni o‘ynash va musiqiy ritmni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu o‘yinlar bolalarda ritm, tovush va musiqa haqidagi tushunchalarni shakllantiradi. Misol uchun, “Ritmga tush”, “Xo‘r bo‘lib kuylaymiz”, “Bayramda”, “Cholg‘u asboblari” o‘yinlari va h.k.

Kreativ (ijodiy) o‘yinlar. Kreativ o‘yinlar bolalarning tasavvurini, ijodkorlik va hissiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu o‘yinlar bolalarga o‘zlarini ifoda etish va yangi g‘oyalarni yaratish imkonini beradi. Misol uchun, “O‘yinni tanla”, “Yo‘l boshlovchi” o‘yinlari va h.k.

IQni oshiruvchi o‘yinlar (Logik o‘yinlar). Logik o‘yinda bolalar turli masalalarni yechishadi, bu esa ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Bu o‘yinlar bolalar uchun aqliy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, “Mantiqiy zanjir”, “Nima noto‘g‘ri”, “Vaziyatlar tahlili” o‘yinlari va h.k.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinlarning turlari bolalar rivojlanishining har bir aspektini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, ijtimoiy, va emosional rivojlanish uchun turli xil o‘yinlar mavjud, va ular bolalarning ta’limiy jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. O‘yinlar orqali bolalar dunyoni o‘rganadilar, yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar va ijtimoiy faoliyatlarda o‘z o‘rnini topadilar.

3. Ijodiy o'yinlar. Ijodiy o'yin turlari.

Ijodiy o'yinlar — bu bolalar tasavvurini va ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradigan, yangi fikrlar yaratishga va o'z fikrlarini ifodalashga imkon beradigan o'yinlardir. Ijodiy o'yinlar orqali bolalar o'zlarining tasavvurlarini amalga oshirishadi, yangi dunyolar yaratishadi, turli materiallar bilan ishlashadi va o'zlarini ifoda etishning yangi usullarini o'rganadilar. Ijodiy o'yinlar bolalarning emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, ularni o'ziga ishonch hosil qilishga undaydi va ijodiy jarayonni yuksaltiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy o'yinlarning tashkillashtirishning ahamiyati quyidagilar hisoblanadi:

Bolalarda tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi: Bolalar o'zlarining tasavvur kuchini ishlatib, yangi g'oyalarni yaratadilar. O'yin faoliyatida qo'llaydi.

Bolaning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi: O'yinlar orqali bolalar o'z hissiyotlarini boshqarishni va boshqalar bilan hamkorlikni o'rganadilar.

Bolaga turli ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi: Ijodiy o'yinlar bolalarga turli texnik va estetik ko'nikmalarni o'rgatadi. Bolada o'zini hissiy ifoda qilish va o'zini anglashni rivojlantiradi: Bolalar o'zlarini o'yin faoliyatida ijodkorlik, mustaqillik orqali ifodalashadi, bu esa o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Ijodiy o'yin turlari. Ijodiy o'yinlar turli shakllarda bo'lishi mumkin va ularning har biri bolalar uchun turli yosh uchun rivojlanish bosqichlariga mos keladi. Quyida ijodiy o'yinlarning asosiy turlarini ko'rish mumkin:

Rasm chizish va bo'yash. Rasm chizish bolalar uchun eng oddiy va keng tarqalgan ijodiy o'yinlardan biridir. Ular ranglar, shakllar va kompozitsiyalar yordamida tasavvurini ifodalaydilar, shu orqali o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini san'at orqali namoyon etishadi. Misol uchun, "Erkin rasm chizish"

Plastilin va loy bilan ishlash. Plastilin yoki loy bilan ishlash bolalarga materialni his qilish va shakllar yaratish imkonini beradi. Bu o'yin bolalarning motorika ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularni ijodkorlikka va tasavvurni amalga oshirishga o'rgatadi. Misol uchun, "Hayvonlarni yasa", "Shakllarni yaratish" o'yinlari va hk

Konstruktiv o'yinlar (Lego, bloklar). Konstruktiv o'yinlar bolalar uchun yangilik yaratish jarayonini o'rganishga katta yordam beradi. Bu o'yinlar turli shakllar va elementlardan foydalangan holda yangi strukturani qurishga qaratilgan o'yin faoliyatidir. Misol uchun, Lego bloklaridan turli inshootlar (uy, ko'prik, mashina) qurish.

Rolli o'yinlar (Dramatik o'yinlar). Rolli o'yinlar bolalarga turli ijtimoiy rollarni o'ynashga yordam beradi. Bu o'yinlar bolalarga boshqalar bilan munosabatda bo'lish, o'z fikrlarini ifodalash va o'zini boshqa shaxs sifatida ko'rsatishga imkon beradi. Misol uchun, "Do'konda xarid qilish", "Oilaviy o'yinda", "Kasb o'yini" Bolalar shifokor, o'qituvchi yoki boshqa kasblarga oid ijodiy rollarni o'ynashadi.

Teatr o'yinlari. Bolalar teatr o'yinlari orqali o'z ijodkorligini rivojlantiradilar. Bu o'yinlar bolalarga hissiyotlarni ifodalash, hikoya qilish va rollarni o'ynash imkonini beradi. Misol uchun, "Bir qahramon o'yini"

Shunday qilib, Ijodiy o'yinlar bolalar tasavvurlarini, his-tuyg'ularini va ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradi. Ular nafaqat bolalarning estetik va kognitiv rivojlanishiga, balki ijtimoiy va emotsional ko'nikmalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy o'yinlar bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning o'zini ifodalash imkoniyatlarini yaratadi va ularni yangi g'oyalar yaratishga ilhomlantiradi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O'yin nima va uning bola hayotidagi o'rni.
2. O'yinning kelib chiqish tarixi. Qadimgi davrlarda ilk ko'rinishi qanday bo'lgan?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyati va turlari?
4. Ijodiy o'yinlarga ta'rif bering.

QOIDALI O'YINLAR BOLALARGA TA'LIM BERISH SHAKLI SIFATIDA.

Reja:

1. Qoidali o'yinlar va ularning turlari.
2. Didaktik o'yinlar va ularning turlari.
3. Buyumlar bilan o'ynaladigan o'yinlar. Stol o'yinlari.

4. Og‘zaki didaktik o‘yinlar.

Tayanch tushunchalar: psixologik, fiziologik, intellektual, estafeta, shaxmat, pазl, didaktika, kognitiv, aspekt.

1. Qoidali o‘yinlar va ularning turlari.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qoidalari bo‘lgan o‘yinlar bolaning shaxsiyatining muayyan fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun yaratiladi, maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik faoliyatga kiritiladi. Mazmuni qoidalarining murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bolalar uchun qoidali o‘yinlar nafaqat qiziqarli va faol vaqt o‘tkazish, balki ularni ijtimoiy, jismoniy va intellektual rivojlanishiga yordam beradigan samarali vositadir. Ushbu o‘yinlar bolalarga jamoada ishlash, qoidalarga rioya qilish va o‘zaro hurmatni o‘rgatadi. Shuningdek, qoidali o‘yinlar bolalarning muloqot qilish, muammolarni hal qilish va jismoniy salomatlikni yaxshilashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Bolalar uchun qoidali o‘yinlar turli turlarga bo‘linadi. Har bir tur o‘ziga xos qoidalar va maqsadlar bilan ajralib turadi. Quyida bolalar uchun qoidali o‘yinlar turlari keltirilgan:

Qoidali jismoniy o‘yinlar. Qoidali jismoniy o‘yinlar asosan bolalarning jismoniy faolligini oshirish, motorika va koordinatsiyani rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi. “Yugurish musobaqasi” “To‘pni olish” kabi estafetali o‘yinlarni misol qilish mumkin.

Qoidali intellektual o‘yinlar. Bu qoidali o‘yin turi bolalarning mantiqiy fikrlash, xotira va e’tiborini rivojlantiradi. “Pazl yig‘ish”, “Ranglar va shakllarni moslashtirish”, “Sudoku” kabi o‘yinlarni misol qilish mumkin.

Qoidali musiqiy o‘yinlar. Bu turdagi o‘yinlar bolalarning ritm, tovush va musiqa bilan tanishishlarini ta’minlaydi. “Raqsga tush”, “Musiqiy stullar”, “Musiqiy asboblar” kabi o‘yinlarni misol qilish mumkin.

Qoidali-raqamli va kartochkali o‘yinlar. Bu turdagi o‘yinlar orqali bolalar raqamlar, kartalar bilan ishlashadi va ularni moslashtirishni o‘rganadilar. “Shaxmat”, “Shashka”, Kartochkali o‘yinlarini misol qilish mumkin.

Sport o‘yinlari. Bolalar bu o‘yin turi orqali sportni sevish, jismoniy faollikni rivojlantirish va adolatli raqobatni o‘rganadi. “Futbol” “Basketbol” “Volleybol” kabi mini sport turlarini misol qilish mumkin.

Shuningdek, bolalar uchun qoidali o'yinlar turli turlarga ajratilgan bo'lib, har biri bolalarning turli ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jismoniy faollik, ijtimoiy ko'nikmalar, mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va jamoada ishlash kabi sohalarda rivojlanish bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. Qoidali o'yinlar bolalarni hayotga tayyorlash, adolat, hamkorlik, va ehtiyotkorlik kabi qadriyatlarni o'rgatadi. Shu bilan birgalikda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qoidali o'yinlarni tashkil qilish bolalarni bir-biri bilan muloqot qilishga, jamoaviy ishda hamkorlik qilishga, ijtimoiylashuviga yanada yordam beruvchi o'yin turi bo'lib hisoblanadi.

2.Didaktik o'yinlar va ularning turlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlar bolalarning bilimlarini rivojlantirish, qobiliyatlarini oshirish va o'rgatish maqsadida tashkil etiladi. Didaktik o'yinlar o'yin jarayonida bolalarga turli mavzularda o'rganish va yangi bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarning tafakkurini, diqqatini, xotirasini, ijodkorligini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun o'quv jarayonining muhim qismidir. Ular bolalarning intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, ijtimoiy va jismoniy ko'nikmalarini oshiradi. Shuningdek, didaktik o'yinlar bolalarni bilim olishga qiziqtiradi va o'rgatishni o'yin shaklida amalga oshirish orqali ular uchun qulayroq va qiziqarli qiladi.

Didaktik o'yinlarning asosiy xususiyati ularning nomi bilan belgilanadi: ya'ni ular ta'limiy o'yinlardir. Ushbu o'yin turi pedagoglar tomonidan bolalarni tarbiyalash va o'qitish maqsadida kiritiladi. Ammo o'yindagi bolalar uchun didaktik o'yinning tarbiyaviy ahamiyati ochiq ko'rinmaydi, balki o'yin vazifasi, o'yin harakatlari va qoidalari orqali amalga oshiriladi.

A.N.Leonteyev ta'kidlashicha, didaktik o'yinlar "chegaraviy o'yinlar" sirasiga kiradi, chunki ular o'zlarining o'rgatish jarayonida bolalarni o'yin bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatga tayyorlaydigan o'tish shakli sifatida xizmat qiladi. Bu o'yinlar tanqidiy faoliyatni, aqliy amallarni rivojlantirishga yordam beradi, ular o'qitishning asosini tashkil etadi. Didaktik o'yinlarga o'quv xarakteridagi vazifa — ya'ni, o'rgatish vazifasi xosdir. Ushbu o'yinlarni kattalar ya'ni pedagoglar, tarbiyachilar boshqaradi, turli xil didaktik o'yinlarni yaratadi va ularni bolalar uchun qiziqarli shaklga keltiradilar.

Shuningdek, maktabgacha ta'limning pedagogik tizimlaridan biri muallifi E.I.Tixeeva didaktik o'yinlarga yangi yondashuvni e'lon qildi. Tixeyevaning fikriga ko'ra, ular o'qish, suhbat, rasm chizish, qo'shiq aytish, gimnastika va mehnat bilan bir qatorda bolalar bilan o'quv-tarbiyaviy ishning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. E.I.Tixeyeva bolalarni tarbiyalash va o'qitishda didaktik o'yinlarning bolaning qiziqishlari bilan qanchalik uyg'un bo'lishi, unga quvonch baxsh etishi, o'z faolligi va mustaqilligini namoyon etishiga imkon berishiga qarab ularning samaradorligini bevosita baholagan.

Didaktik o'yinlar — bolalarga yangi bilimlarni o'rgatish, ularning intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlardir. Bu o'yinlar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan bo'lib, bolalarga o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Didaktik o'yinlar bolalar uchun o'rganishni o'yin shaklida amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar turlari:

- Ranglar va shakllarni o'rganish o'yinlari;
- Matematika va hisoblash o'yinlari;
- Xotira o'yinlari;
- Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- Ijtimoiy va kommunikativ o'yinlar;
- Tabiatni o'rganish o'yinlari;
- Musiqiy o'yinlar;
- Raqobatli o'yinlar;
- Stol o'yinlari;

Shu bilan birgalikda, didaktik o'yinlar bolalarga bilimlarni o'rgatishda va ularning turli ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir o'yin bolaning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, o'yinlar bolalar uchun qiziqarli va samarali ta'lim vositasi hisoblanadi.

3.Buyumlar bilan o'ynaladigan o'yinlar. Stol o'yinlari.

Buyumlar bilan o'ynaladigan o'yinlar — bu bolalar buyumlar yordamida o'yin o'ynaydigan va o'yin jara

yonida o'zlari haqida yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtiradigan didaktik o'yinlardir. Bu o'yinlar bolalarning tafakkurini rivojlantiradi, ijodkorligini oshiradi va turli xil maqsadlarda o'rgatadi.

Buyumlar bilan o'ynash bolalar uchun o'rgatish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Buyumlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin

asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida buyumlar bilan o'ynaladigan o'yinlarni quyidagicha ajratish mumkin:

- Ranglar va shakllarni ajratish bo'yicha: "Shakllarni moslashtirish", "Ranglarni ajratish"

- O'zgarishlarni topish bo'yicha: "Nima o'zgardi?", "Juft rasmlar"

- Geometrik shakllarni yig'ish bo'yicha: "Shakllar yig'ish", "Konstruktor o'yinlari"

- Buyumlarni tartiblash va guruhlash bo'yicha: "Buyumlarni guruhlash", "Buyumlarni o'rniga qo'yish"

- Ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha: "Poyabzalni bog'lash", "Idishlarni qo'yish"

- Rasm va buyumlarni yaratish bo'yicha: "Rasm chizish", "Kolaj yasash"

- O'yinchoqlar bilan rol o'ynash bo'yicha: "Shifokor va bemor", "Sotuvchi va mijoz"

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, buyumlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalar uchun o'rganish va rivojlanishning samarali vositasidir. Ular bolalar uchun qiziqarli va ijodiy jarayonni yaratadi, shu bilan birga, o'zlarining intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu o'yinlar bolalarga turli predmetlar, ranglar, shakllar va tabiat ob'ektlari bilan ishlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Stol o'yinlari. Bolalar uchun stol o'yinlari — bu bolalarning intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlardir. Ushbu o'yinlar bolalar uchun qiziqarli va o'rgatish jarayonini samarali qilish uchun mo'ljallangan. Stol o'yinlari ko'pincha bolalarga diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash, ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatadi va jamoada ishlashni rag'batlantiradi. Ular turli yoshdagi bolalar uchun

moslashtirilgan bo‘lib, o‘ynash jarayonida o‘quv faoliyatini qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun stol o‘yinlari turlari:

Shaxmat va shashka: bolalarda mantiqiy fikrlash, strategik rejalashtirish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shaxmat o‘yini ikki kishi o‘rtasida o‘ynaladi va har bir o‘yinchi o‘z peshqadamlarini harakatlantirib, raqibning shohini yutishga harakat qiladi. Bu o‘yin bolalarga diqqatni jamlash va hisob-kitob qilishni o‘rgatadi.

Monopoliya: bolalarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish, resurslarni boshqarish va muloqot qilishni o‘rgatadi. “Monopoliya” o‘yinida bolalar jamoa bo‘lib, mulklar sotib olishi, mulkni boshqarishi va raqiblaridan oldin ko‘proq boylik to‘plashga harakat qiladilar.

Pazllar: Diqqatni jamlash, shakllarni ajratish va muvofiqlashtirishni o‘rgatadi. Bolalar shakllarni birlashtirib, to‘liq rasm yoki tuzilmani yaratadilar. Bu o‘yin bolalarga shakllarni ajratish, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Kartochkalar (Xotira o‘yini): bolalarda xotirani rivojlantirish, tezkor reaksiya va diqqatni jamlashga o‘rgatadi. Bu o‘yinda bolalar kartochkalarni qo‘yib, har bir kartochkada berilgan rasmni eslab qolishlari kerak. Ular juft kartochkalarni topishga harakat qiladilar.

Labirintlar: bolalarda mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinda bolalar turli labirintlar orqali yo‘l topishga harakat qilishadi. Bu o‘yin mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilishni o‘rgatadi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun stol o‘yinlari faqat o‘yin vaqtini qiziqarli va foydali qilishga yordam bermaydi, balki bolalar intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu o‘yinlar bolalarga o‘rganishni o‘yin shaklida amalga oshirishga yordam beradi, shu bilan birga diqqatni jamlash, muammolarni hal qilish, muloqot qilish va raqobatlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

4. Og‘zaki didaktik o‘yinlar.

Og‘zaki didaktik o‘yinlar — bu bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida og‘zaki nutqni rivojlantirish, til va muloqot ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘yinlardir. Bu o‘yinlar bolalar bilan interaktiv muloqot o‘rnatish, ularni diqqat va eslab qolish, tushunish va ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Og‘zaki didaktik o‘yinlar

bolalar uchun o'rganishni qiziqarli va samarali tarzda amalga oshirishga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida og'zaki didaktik o'yinlarning o'tkazishning asosiy Maqsadlari:

Nutqni rivojlantirish.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

Eslab qolish va diqqatni jamlash.

Til o'rganishni rag'batlantirish.

Shuningdek, og'zaki didaktik o'yinlarning bir nechta turlarini misol qilib keltiramiz:

1. So'zlar va iboralar bilan o'yinlar. "So'zlarni top", "Katta yoki kichik?"

2. Topishmoqlar. Qishin yozin bir xil kiyimda (archa)

3. Rasmni tasvirlash o'yinlari: "Bu rasmda nima bor", "Xayolan rasmni tasvirlash"

4. Ha yoki yo'q? o'yini: "Qor yog'ib turganda, qishda odamlar quyoshga qaraydimi?" (Javob: Yo'q)

5. Hikoya qilish o'yinlari: "Birinchi so'z" "Mehmonda" "Tasodifiy hikoya" "Nima o'zgardi?"

Shu kabi og'zaki didaktik o'yinlar bolalar uchun foydali va zarur bo'lgan til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular bolalarning og'zaki nutqini, eslab qolish, muloqot qilish va fikrlash ko'nikmalarini oshiradi. Bu o'yinlar nafaqat bilimlarni o'rganishga yordam beradi, balki bolalarning ijodkorligini va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Nutqni rivojlantirishning barcha muammolarini hal qilish uchun og'zaki (nutq) o'yinlardan foydalaniladi. Ular so'z boyligini mustahkamlaydi va aniqlaydi, so'zlarni o'zgartirish va shakllantirish qobiliyatini rivojlantiradi, izchil bayonotlar tuzishni mashq qiladi va tushuntirish nutqini rivojlantiradi. Ushbu o'yinlarda bola o'zini yangi sharoitlarda egallagan nutq bilimlari va lug'atdan foydalanishga majbur bo'lgan vaziyatlarda topadi. Ular o'yinchilarning so'zlari va harakatlarida namoyon bo'ladi. Nutq o'yinlari grammatik ko'nikmalarni mustahkamlashning samarali vositasidir, chunki bolalarning hissiyligi va qiziqishi tufayli ular bolaga kerakli so'z shakllarini takrorlashda ko'p marta mashq qilish imkonini beradi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida qoidali o'yinlarni o'ynashda tarbiyachining roli.

2. Didaktik o'yinlarning bola aqliy rivojlanishidagi o'rni haqida gapiring.
3. Stol o'yinlariga misollar keltiring.
4. Og'zaki didaktik o'yinlarning psixologik hususiyatlari.

BOLA TARBIYASIDA O'YINCHOQLARNING AHAMIYATI.

Reja:

1. O'yinchoq turlari va o'yinchoqlarga qo'yiladigan talablar.
2. O'yinchoqlarning bola tarbiyasi va rivojlanishidagi o'rni
3. Turli yosh guruhlari uchun o'yinchoqlar tanlash

Tayanch tushunchalar: *emotsional, estetika, xotira, diqqat, tafakkur, idrok, ong, vizual, predmet, obekt, robot*

1.O'yinchoq turlari va o'yinchoqlarga qo'yiladigan talablar.

Maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalashni o'yinchoqlar orqali tashkil etish bolalarda axloqiy, aqliy, estetik, sezgirlik, mehnat, iqtisodiy tarbiyaning turli shakllarini rivojlantiradi. O'yinchoqlar bola emotsional yetuklikka olib boradi va uning his-tuyg'ulari bilan o'zaro aloqani, ijobiy xotiralarni va o'z his-tuyg'ulari bilan muloqot qilish usulini ta'minlaydi.

O'yinchoqlar bolaning shaxsiyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Psixologlar va pedagoglarning ko'plab tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'yinchoqlar doimo bolalarning aqliy rivojlanishning samarali vositasi bo'lib kelgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi o'yinchoq turlari kvalifikatsiya qilinadi:

Syujetli-rolli o'yinchoqlar: Bunday o'yinchoqlar bolalar uchun ma'lum bir voqea yoki syujetni takrorlashga imkon beradi va ularni o'zaro muloqot qilish, ijtimoiy rollarni o'rganish va hayotiy tajribalarni simulyatsiya qilishga o'rgatadi. Misol uchun, qo'g'irchoqlar va teatr o'yinchoqlari, kasb o'yinchoqlari, oshxona anjomlari o'yinchoqlari, transport vositalari o'yinchoqlari va h.k.

Didaktik o'yinchoqlar: Ular bolalarga turli ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi, masalan, hisob-kitob, ranglar, shakllar va

sonlarni o'rgatadi, xotirani rivojlantiradi va boshqa didaktik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Musiqiy o'yinchoqlar: Musiqiy o'yinchoqlar yordamida bolalar tovushlarni ajratishni, ritmni his qilishni, musiqa asboblarni tanishni va musiqa ijro etishni o'rganadilar. Misol uchun, musiqa asboblari, musiqiy qutilar va musiqali kitoblar, elektron musiqali o'yinchoqlar, harakterli ovozli o'yinchoqlar va h.k.

Sport o'yinchoqlari: Ular jismoniy faoliyatni rivojlantiradi, bolalarga motorik ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi va sportni sevishga undaydi. Misol uchun, koptoklar, velosiped va skuterlar, sport anjomlari va h.k.

Stol o'yinlari uchun mos o'yinchoqlar: Stol o'yinlari odatda qoidalar asosida o'ynaladi va ular mantiqiy fikrlash, strategiya, xotira va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, shaxmat, shashka, domino, manopoliya to'plami va h.k.

Konstruktorlar va qurish-yasash o'yinchoqlari: bloklardan strukturalar va ob'ektlar yaratish imkonini beradi. Misol uchun, konstruktor-legolar, rangli kubiklar, magnitli konstruktorlar va h.k.

Texnik o'yinchoqlar: Texnik o'yinchoqlar bolalar uchun o'yin orqali ilm-fan va texnika asoslarini tushunishga imkon yaratadi. Misol uchun, robot o'yinchoqlar, electron o'yinchoqlar, miniature kichik texnik qurilmalar va h.h.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, o'yinchoqlar turli yosh guruhlariga mos ravishda ishlab chiqiladi va bolalarning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Ular nafaqat o'yin orqali zavq olishga yordam beradi, balki bolalarga yangi narsalarni o'rganishda ham yordam beradi.

O'yinchoqlarga qo'yiladigan talablar. O'yinchoqlarga qo'yiladigan talablar, uning xavfsizligi, sifatli materiali va bolalarga mosligi kabi bir qancha omillarni o'z ichiga oladi. O'yinchoqlarga ma'lum pedagogik, estetik, gigiyenik, texnik va iqtisodiy talablar ham qo'yiladi. Quyida ba'zi birlari bilan tanishamiz:

Xavfsizlik talablari. Tarkibida zararli moddalar yo'qligi, keskin va nozik qirralardan xoli bo'lishi xamda kichik qismlar (yutib yubormaslik uchun) va bo'laklarga ajralmasligi talab qilinadi.

Sifatli materiallar bilan ishlanganlik talabi. Ekologik toza materiallar ishlatilishi kerak. O'yinchoqlar atrof-muhitga zarar keltirmasligi uchun zarur.

Mustahkamlik va chidamlilik talabi: Ular o'ynash jarayonida buzilmasligi, yorilmasligi yoki uzilmasligi zarur.

Didaktik talab: Kreativlik va tasavvurini rivojlanishiga yordam berishi kerak. Ularning interaktiv yoki ta'limiy xususiyatlari bo'lishi ham muhimdir.

Maqsadli yosh guruhiga moslik talabi: O'yinchoq, bolalarning yoshiga mos bo'lishi va ularning rivojlanish bosqichlariga mos kelishi kerak.

Og'irlik va o'lcham talablari: O'yinchoqlar bolalar uchun qulay o'lchamda va yengil bo'lishi lozim.

Estetik va vizual talablari: Jozibali va rang-barang bo'lishi, rangi, shakli va dizayni bolalarning diqqatini tortishi va o'ynashga undashi zarur.

Qonuniy va standartlarga moslik talabi: O'yinchoqlar ishlab chiqarishda, mamlakatdagi yoki xalqaro xavfsizlik va sifat standartlariga rioya qilinishi, sertifikatlangan bo'lishi kerak.

Mazkur hujjatlarga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar salomatligi uchun xavfsiz, yuvilishi va dezinfeksiya qilinishi mumkin bo'lgan o'yinchoqlardan foydalanish shart.

Ushbu talablarning barchasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida e'tiborga olinishi lozim. Bunda ayniqsa pedagoglardan o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashish hamda sinchkovlik talab etiladi. Bolalar o'yinchoqlarni o'ynaganda o'zini erkin, qulay hamda hotirjam his qilishiga erishish lozim.

2.O'yinchoqlarning bola tarbiyasi va rivojlanishidagi o'rni

O'yinchoqlarning bola tarbiyasi va rivojlanishidagi o'rni juda katta. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda o'yinchoqlar orqali tashkil etish ularning turli axloqiy, aqliy, estetik, sensorik, mehnat va iqtisodiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'yinchoqlar bolani emotsional yetuklikka olib boradi va ular bilan muloqot qilish, ijobiy xotiralar yaratish hamda o'z his-tuyg'ulari bilan o'zaro aloqada bo'lish imkoniyatini ta'minlaydi.

O'yinchoq - bu tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishning bitmas-tuganmas manbai. U haqiqiy ob'ektni to'liq nusxa ko'chirmasligi kerak, lekin bolani ixtiro qilish va xayol qilish imkoniyatini qoldirishi kerak. Har bir o'yinchoq bolalarga turli bilimlarni o'rgatish, yaratish, tasavvur qilish, muloqot qilish va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'yinchoqlar bola hayotida, ta'lim-tarbiyasida kata ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

1.Intelektual rivojlanish. O'yinchoqlar bolalarga yangi narsalarni o'rganishda yordam beradi. Bunday o'yinlar bolalarga shakllar, ranglar, sonlar va muvozanatni tushunishda yordam beradi.

2.Kreativlik va tasavvur. O'yinchoqlar bolalarda kreativlikni rivojlantiradi. Yumshoq o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar yoki boshqa tasavvurga asoslangan o'yinlar bolalar uchun o'z dunyosini yaratish va o'z hikoyalarini tuzish imkoniyatini beradi.

3.Jismoniy rivojlanish. Ba'zi o'yinchoqlar bolalar uchun motorik ko'nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, to'p o'ynash, raqs qilish yoki boshqa jismoniy faoliyatlar bolalarning mushak tizimini rivojlantiradi, muvozanatni saqlash, koordinatsiyani yaxshilashga yordam beradi.

4.Ijtimoiy ko'nikmalar. Guruhda o'ynash, boshqalar bilan o'yinchoqlarni bo'lishish va o'zaro hamkorlik qilish orqali bolalar jamoaviy ishlash, kuzatish, boshqarish va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

5.Emotsional rivojlanish. O'yin jarayonida bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar va bu ularga o'zlarini yaxshiroq anglashda yordam beradi.

6.O'z-o'zini boshqarish. O'yinchoqlar bolalarda o'z-o'zini boshqarish va sabr-toqatni rivojlantiradi. Masalan, taxta o'yinlarida yoki qurilish o'yinlarida bolalar maqsadga erishish uchun bosqichma-bosqich harakat qilishni o'rganadilar.

7.Til va muloqot ko'nikmalari. O'yinchoqlar tilni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Qo'g'irchoqlar va rol o'yinlarida bolalar o'z fikrlarini ifodalash, so'z boyligini oshirish, yangi so'zlar va iboralarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

8.Shaxsiy va o'zlikni rivojlantirish. O'yinchoqlar bolalarga o'zligini anglashda yordam beradi. Masalan, rol o'ynash o'yinlari bolalarga o'zlarini turli rollarda tasavvur qilish imkonini beradi (daktar, muhandis, oshpaz va h.k.).

9.Stressni kamaytirish. O'yinlar bolalarga stressni kamaytirishga yordam beradi. O'yinchoqlar bolalar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratadi, bu esa ularning kayfiyatini yaxshilashga yordam beradi.

Shuningdek, o'yinchoqlarning to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi bola tarbiyasining samaradorligini oshiradi. O'yinchoqning jozibadorligi, albatta, uning pedagogik qiymati va bolaning salomatligi uchun xavfsizligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'yinchoq bolaga atrofidagi dunyo bilan tanishishga yordam beradi, u orqali olingan taassurotlarni tuzatadi va qayta ishlaydi, faollik va muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun

ham bolaga o'yinchoq olib berishda e'tiborliroq bo'lish lozim. Yaxshi o'yinchoq bolani fikrlashga undaydi va unga turli o'yin vazifalarini qo'yadi va bu kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bolalarga o'yinchoqlarni mas'uliyat bilan tanlash lozim, shunda ular nafaqat quvonch, balki foyda keltiradi.

3. Turli yosh guruhlar uchun o'yinchoqlar tanlash

Turli yosh guruhlar uchun o'yinchoqlar tanlash bolalarning rivojlanishiga mos ravishda, ularning ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Har bir yosh davri o'ziga xos fiziologik va psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, o'yinchoqlar tanlashda ushbu jihatlar hisobga olinishi lozim. O'yinchoqlar bolaga butun o'sish davrida hamroh bo'ladi. Rivojlanishning turli bosqichlarida ular turli rivojlanish va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradilar. Agar hayotning birinchi yilida bu, birinchi navbatda, vizual, taktil, eshitish idroki, nozik vosita qobiliyatlari va diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirish bo'lsa, uch yildan keyin bolaning hissiy dunyosini rivojlantirishda o'yinchoqlarning roli juda katta.

Kichik guruhlarda (3-4 yosh) harakatlarni rivojlantirish va ularni takomillashtirishni ta'minlovchi o'yinchoqlar bo'lishi kerak: katta to'plar, ularni aylantirish, siljitish va tashlash; turli rangdagi yuk mashinalari, yurgizish o'yinchoqlari, aravachalar kabi o'yinchoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, bu yoshda bolalar ijtimoiy o'yinlarni o'ynashni boshlaydilar, tilni o'rganish va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish uchun ko'proq o'yinchoqlarga ehtiyoj sezadilar. Misol uchun:

Roli o'yinlar uchun o'yinchoqlar: Uyda o'ynash uchun idishlar, oshxona o'yinchoqlari, kasalxona o'yinchoqlari bolalarga o'zaro muloqot qilishni va dunyoni tushunishni o'rgatadi.

Yig'i

sh va qurish o'yinchoqlari: Lego, bloklar, konstruktorlar bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Kichik transport vositalari: Avtomobillar, poezdlar va boshqa transport vositalari bolalarning motorik ko'nikmalarini va muvofiqlashtirishni rivojlantiradi.

O'rta guruh (4-5 yosh) bolalari uchun o'yindagi rollar aniqroq ajratiladi va ularga o'yinchoqlardan tashqari qo'shimcha narsalar kerak. 4 yoshli bolalar kichikintoylarga qaraganda murakkabroq konstruktor-lego to'plamlari bilan ishlay boshlaydi. Shuningdek, bu yoshda bolalar nafaqat

o'zlarini, balki atrofdagilarni ham tushuna boshlaydilar. Ular o'yinda ko'proq qoidalarga rioya qilishni va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni boshlaydilar.

Sport o'yinchoqlari: Yengil to'p, basketbol o'yinlari, voleybol to'pi va boshqa sport turidagi o'yinchoqlar bolalarda jismoniy rivojlanishni va jamoada ishlashni rivojlantiradi.

Ta'limiy o'yinchoqlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus raqamlar, harflar va asosiy tushunchalarni o'rgatadigan didaktik o'yinlar, matematik va til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali.

Konstruktor o'yinchoqlari: Lego kabi o'yinchoqlar bolalar uchun kompleks tuzilmalar yaratishga imkon beradi, bu esa tafakkur va analitik fikrlashni rivojlantiradi.

Katta va tayyorlov guruhi (5-6 va 6-7 yosh) bolalarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy, emotsional, kognitiv va jismoniy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam berish kerak. Bu yoshdagi bolalar o'zlarining fikrlash va harakat qilish qobiliyatlarini yanada rivojlantirayotgan bo'lib, turli o'yinchoqlar yordamida ko'proq murakkab faoliyatlarni bajara olishadi. Bolalar sport turidagi o'yinlarga katta qiziqish bildiradilar. Ularning harakatlari yanada moslashgan, shuning uchun faqat katta, balki kichik to'plar, maqsadga yetishish uchun o'yinlar va boshqa sport o'yinchoqlari kerak, ular kichik muskullarni rivojlantiradi, koordinatsiyani va harakat aniqligini takomillashtiradi. Bolalar epchillik, harakat va mashg'ulotlarni talab qiladigan o'yinlarga qiziqishadi. Ayniqsa, didaktik o'yinchoqlar: Puzzle va shakllar, raqamlar va harfli o'yinchoqlarga qiziqish ortadi.

Tayyorlov guruhi bolalari o'yinchoqlarda mazmun hamda sifat anchayin murakkablashadi. Bunda har bir o'yinchoq mayda detallarigacha e'tibor berish lozim. Ayniqsa, sport o'yinchoqlari, maishiy xizmat o'yinchoqlari (belkurak, ombir, arava va h.k), mantiqqa oid o'yinchoqlar kundalik hayotida, ta'limiy faoliyatda, tarbiyaviy tomonlarini bola ongiga chuqurroq singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Turli yosh guruhlari uchun o'yinchoqlarni tanlashda bolaning rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olish zarur. O'yinchoqlarni tanlashda bolaning yoshiga, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda turli xil faoliyatlarni qo'llab-quvvatlash kerak. To'g'ri o'yinchoqlar bolaning dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashni o'rgatish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Har bir yosh davrida bolalar o'zlari uchun mos o'yinchoqlar orqali turli ko'nikmalarni rivojlantirishadi: jismoniy, ijtimoiy, kognitiv va axloqiy. To'g'ri o'yinchoqlar tanlash

bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi va ularni dunyo bilan tanishtiradi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O'yinchoqlar maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limiy faoliyatida o'rni.
2. O'yinchoqlarning turlari va vazifalarini sanang.
3. Tayyorlov guruhi bolalari uchun o'yinchoqlarning tarkibi va maqsadi haqida gapiring.
4. O'yinchoqlarga qo'yiladigan talablarni ayting.
5. O'rta guruh bolalari uchun o'yinchoq tanlashda nimalarga ahamiyat berish lozim?

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab dasturlaridagi izchillik.
2. Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlash.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining maktab bilan aloqa shakllari.
4. Tayyorlov guruh bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifalari.

Tayanch tushunchalar: dastur, ta'lim, maktab, xamkorlik, fan, o'quv, aqliy, fiziologik, boshlang'ich ta'lim, tahlil, emotsional.

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab dasturlaridagi izchillik.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktab ta'limiga muntazam ravishda tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab o'rtasida ta'lim-tarbiya ishidagi izchillik bola shaxsini aniq maqsad bilan har tomonlama rivojlantirib borish imkonini yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ish mazmunini

belgilovchi dastur aloqasi izchillik asosini tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshlang'ich sinflarning amaldagi dasturlarini qiyoslashlar ular o'rtasida ma'lum izchil aloqa borligini ko'rsatadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturlariga asos qilib olingan falsafiy va psixologik nuqtai-nazarlar birligi;

ta'lim-tarbiya jarayonidagi prinsiplar birligi (mazmunning tarbiya maqsadi va vazifalariga muvofiqligi, ilmiyligi, ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyatlari);

fanlar o'rtasidagi izchillik.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab dasturlaridagi izchillikning ahamiyati quyidagicha tasniflanadi:

Bolalar rivojlanishining davomiyligini ta'minlash: Maktabgacha ta'limda bolalar asosiy ko'nikmalarni (iqtisodiy, ijtimoiy, emotsional, jismoniy va kognitiv) rivojlantiradilar. Maktabga kirganida esa ularning rivojlanish darajasi o'qish va ta'lim faoliyatini davom ettirishga tayyor bo'lishi kerak. Izchillik bolalarning maktabdagi dasturga moslashishiga yordam beradi va o'qishdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

Dastur va metodikalar o'rtasida bog'lanish: Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim dasturlari o'rtasidagi izchillik o'quv rejalari va metodikalar bir-biriga mos ravishda tuzilgan bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'rgatilgan ko'nikmalar (o'qish, yozish, matematik bilimlar) maktabda davom ettirilishi zarur. Misol uchun, maktabgacha ta'limda bolalar harflar, raqamlar va oddiy matematika tushunchalarini o'rganishadi, maktab dasturida esa bu bilimlar yanada chuqurlashtiriladi.

Individual yondashuv va rivojlanish: Maktabgacha ta'limda bolalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlari hisobga olinadi, shu bilan birga, maktab dasturi ham individual o'qish tezligi va qobiliyatlariga moslashtirilishi lozim. Izchillikni ta'minlash orqali har bir bola o'ziga mos ta'lim olishi mumkin.

Psixologik moslashuv: Maktabgacha ta'limdan maktabga o'tishda bolalarning psixologik moslashuvi juda muhimdir. Agar maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim dasturlari izchil bo'lsa, bolalar yangi ta'lim muhitiga osonroq moslashadilar, bu esa ularning stress darajasini kamaytiradi va o'quv jarayonida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Koordinatsiya va hamkorlik: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab o'rtasida yaxshilangan koordinatsiya va hamkorlik izchillikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu o'qituvchilar va pedagoglar

o'rtasidagi samarali muloqotni, metodik materiallar almashinuvi va bolalarning o'zlashtirish darajasini kuzatishni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab dasturlari o'rtasidagi izchillik bolalarning o'zlashtirish darajasini va ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi. Izchillikni ta'minlash uchun ta'lim dasturlari va metodikalari o'rtasida uzviy bog'lanish, o'qituvchilar va pedagoglar o'rtasida hamkorlik, ota-onalar bilan aloqalarni rivojlantirish zarur. Bu jarayonning muvaffaqiyati bolalarning psixologik, aqliy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2.Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlash.

Bolalar maktab ta'limiga psixologik tayyorlash — bu bolalarni ta'lim olish jarayoniga tayyorlashda psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatlar va metodlarning to'plamidir. Maktabga tayyorgarlikning psixologik tomonlari bolalarning psixologik holatini, intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, maktabga psixologik tayyorgarlik, bolaning tengdoshlari va o'qituvchilari bilan munosabatlarni o'rnatish qobiliyatidir. Bolaning kattalar va boshqa bolalar bilan muloqot qilish ehtiyojini doimiy ravishda rivojlantirish kerak. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: kognitiv qiziqishlar rivojlanishining ma'lum darajasi, yangi ijtimoiy pozitsiyani qabul qilishga tayyorlik, o'z-o'zini hurmat qilish, bilvosita maktab motivatsiyasining mavjudligi (o'rganish istagi), shuningdek, intellektual sohaning yetarli darajada rivojlanishi, aloqa darajasi va ixtiyoriy xatti-harakatlar shular jumlasidandir.

Bolani maktabga psixologik tayyorgarlik juda muhim jarayondir. Bunda ota-ona hamda pedagoglardan ma'suliyat talab etiladi. Psixologik tayyorgarlik bolaning o'rganishga va yangi bilimlarga ijobiy munosabatini yaratadi. Maktabga hissiy va motivatsion jihatdan tayyor bo'lgan bola o'rganishga ko'proq qiziqish bildiradi, yangi yutuqlarga intiladi va qiyinchiliklarni osonroq yengib chiqadi. Quyidagi jihatlar bu jarayonda muhim o'rin tutadi:

Emotsional tayyorlik. Bolalar o'zini va atrofidagi dunyoni anglab, boshqa bolalar va o'qituvchi bilan muloqot qilishga tayyor bo'lishlari kerak. Maktabda o'qish jarayonida stressni boshqarish, yangi vaziyatlarga

moslashish va do'stlar bilan munosabatlarni qurish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Intellektual tayyorlik. Bolaning bilim va ko'nikmalarini maktabda ta'lim olish uchun tayyorlash. Bu yoshga mos kognitiv rivojlanishni o'z ichiga oladi: nutq rivojlanishi, e'tibor va xotirani mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Shuningdek, bolalarga mustaqil ishlash, muammolarni hal qilish va yangi vazifalarni bajarish qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor beriladi.

Ijtimoiy tayyorlik. Maktabga tayyorgarlik jarayonida bolalar ijtimoiy normalarni, boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadilar. Bu o'qishdagi muvaffaqiyatlarni, guruhda ishlashni va ijtimoiy tajriba orttirishni ta'minlaydi. O'z-o'zini boshqarish, qoidalarga rioya qilish, yordam so'rash va o'z his-tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalari ham rivojlantiriladi.

Psixologik qo'llab quvvatlash. Bolalar yangi muhitga, yangi ijtimoiy guruhga moslashish uchun psixologik yordam oladilar. Bu jarayon ular uchun ko'p jihatdan yangi va begona bo'lgan o'qish muhiti va ijtimoiy o'zgarishlarga adaptatsiya qilishni talab qiladi.

Tarbiyaviy jihatlar. Maktabga tayyorlash jarayonida tarbiyaviy jarayonlar ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarga xulq-atvor, o'zini hurmat qilish va atrofdagi odamlarni hurmat qilish kabi asosiy tarbiyaviy qadriyatlar o'rgatiladi.

O'qituvchi va ota-onalar bilan hamkorlik. O'qituvchilar va ota-onalar bolalarni maktabga tayyorlashda yaqindan hamkorlik qilishlari zarur. Psixologik tayyorlashda ota-onalar o'z farzandlarini qo'llab-quvvatlash, ularning o'zini qulay his qilishini ta'minlash va ijtimoiy moslashuv jarayonida yordam berishlari kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolalar uchun muvaffaqiyatli maktab tajribasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'quv jarayonini yanada samarali va qulayroq o'tkazadilar. Bolaning qiziqishlarini hisobga olgan holda dunyoqarashining rivojlanishi, mas'uliyatlilik, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, bir maqsadga qaratilganlik, qiyinchiliklarni yengib o'tishda sabot-matonat va tirishqoqlik kabi irodaviy sifatlarni tarbiyalash bilan bir qatorda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni samaradorligi ortadi.

3.Maktabgacha ta'lim tashkilotining maktab bilan aloqa shakllari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining maktab bilan aloqa shakllari bolalarni maktabga tayyorlash va ular uchun ijtimoiy, intellektual va emotsional moslashuvni yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab o'rtasidagi hamkorlik bolalar uchun silliq va muvaffaqiyatli ta'lim jarayonini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bilan maktab pedagoglarining o'zaro aloqa o'rnatishlaridan ko'zlangan asosiy Maqsad - bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni chuqur tahlil qilib, bu sohada yuqori natijalarga erishishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi aloqaning Amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomondan, o'qituvchi maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhiga borib o'zining bo'lajak o'quvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomondan tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilari birinchi sinfda qanday o'qiyotganini o'rganib boradilar. Bolalarni maktabga kuzatishda har bir bolaga aniq tavsifnoma beriladi. Bu tavsifnomada tarbiyachi har bir bolaning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib beradi, bu o'qituvchiga bola bilan munosabatda bo'lganda pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri yondashishda yordam beradi. Tarbiyachi ham o'z navbatida 1 sinfga borgan bolalari bilan izchil ravishda aloqa bog'lab boradi, darslarda bevosita qatnashib qanday o'qiyotganlari, xulqi, o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklari sababini o'qituvchidan so'rash orqali ham aniqlab boradi. Bular hammasi tarbiyachini bolalar bilan olib borgan ta'lim tarbiyaviy ishidagi yutuq va kamchiliklarni bilib olishga imkon yaratadi. Tarbiyachi va o'qituvchilar ilg'or tajribalarni tarqatish, tashviqot, targ'ibot qilish maqsadida shahar, tuman konferensiyalarida qatnashib fikr almashadilar.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi aloqalarning quyidagi asosiy aloqa shakllari mavjud:

1. Pedagogik va metodik hamkorlik: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar o'rtasida pedagogik va metodik tajriba almashinuvi amalga oshiriladi. Bu, o'qituvchilar o'rtasida yangi metodlar, ta'lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni o'rganish va qo'llashni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilari va maktab

o'qituvchilari o'rtasida doimiy muloqot va hamkorlik bolalar uchun yanada samarali ta'lim jarayonini yaratadi.

2. Ma'lumot almashish: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar o'rtasida bolalar haqida ma'lumot almashish muhim. Bu, bolalar maktabga o'tgach, ularning rivojlanish darajasi, o'qishdagi qobiliyatlari va individual ehtiyojlari to'g'risida maktabga tegishli ma'lumotlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan olingan pedagogik ma'lumotlar, bolalarning psixologik holati, ijtimoiy va emotsional rivojlanishi, o'qishdagi yutuqlari va qiyinchiliklarini maktabga yetkazish, ularning o'qish jarayoniga moslashuvini yengillashtiradi.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik: maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar o'rtasidagi aloqalar ko'pincha ota-onalar orqali amalga oshiriladi. Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab o'rtasidagi kommunikatsiya va hamkorlikni o'rnatishda muhim rol o'ynaydilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagoglari va maktab o'qituvchilari ota-onalar bilan uchrashuvlar, seminarlar, individual maslahatlar orqali hamkorlik qilishadi. Bu ota-onalarga bolalarining maktabga tayyorligi, maktabda qanday rivojlanishi va o'quv jarayonida qanday yordam berish kerakligi haqida ma'lumot beradi.

4. Birgalikda tashkil etilgan tadbirlar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar birgalikda turli tadbirlar, ko'rgazmalar, seminarlar yoki ilmiy amaliyotlar tashkil etishlari mumkin. Bu, bolalar va o'qituvchilar o'rtasidagi ijtimoiy va akademik aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalar va maktabdagi o'quvchilar o'rtasidagi integratsion tadbirlar, maktabgacha ta'limning mazmuni va maktabning o'quv dasturi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

5. Sinf va guruh almashinuvi: Ba'zi maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar o'rtasida sinf va guruh almashinuvi tashkil qilinadi. Bu, bolalarga maktabda o'qish tajribasini oldindan his qilishga yordam beradi va ular uchun maktabga o'tish jarayonini soddalashtiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari va maktab o'qituvchilari birgalikda o'quv jarayonlarini rejalashtirib, o'quvchilarga birgalikda faoliyatlar tashkil qilishadi.

6. Psixologik va maslahat xizmati: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar o'rtasida psixologik xizmat ko'rsatish hamkorligi mavjud bo'lishi mumkin. Bu, bolalarning emotsional va psixologik holatini inobatga olish, maktabga moslashuvni yengillashtirish va maktabda bo'ladigan o'zgarishlarga tayyorlanish uchun bolalarga yordam berishga yordam beradi. Psixologik xizmati orqali, maktabgacha ta'lim tashkiloti va

maktab pedagoglari bolalarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ular uchun moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin.

7. Ko'rsatkichlar va tahlillar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar o'rtasida o'zaro ko'rsatkichlar va tahlillarni almashish ham muhim. Bu, bolalarning maktabda qanday rivojlanishini va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dasturlarni yaxshilash uchun tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, bu aloqa shakllari bolalar uchun samarali o'quv muhitini yaratishga yordam beradi va maktabgacha ta'lim tizimi va maktablar o'rtasidagi doimiy hamkorlik orqali bolalarning rivojlanishiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

4. Tayyorlov guruh bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifalari.

6-7 yosh guruhi (tayyorlov guruhi) - bu intensiv kognitiv rivojlanish, baholash va o'zini o'zi qadrlashni shakllantirish, kognitiv, irodali, hissiy o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish davri hisoblanadi. Bu yosh davrida bolaning kelajakdagi shaxsiy asoslari qo'yiladi: motivlarning barqaror tuzilishi shakllanadi, yangi ijtimoiy ehtiyojlar paydo bo'ladi, tengdoshlarning tan olinishi zarurati, motivatsiyaning yangi turi, ixtiyoriy xatti-harakatlarning asosi yuzaga chiqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning eng muhim vazifalaridan biri maktabga tayyorgarlikdir. Bolaning maktabga tayyorlik holati uning intellekti, nutqi, hissiy-iroda sohalarini tizimli ravishda tekshirish bilan aniqlanadi. Bu sohalar o'ziga xos (tegishli) metodika orqali o'rganiladi. Ushbu metodakalar orqali quyidagilar tekshiriladi:

- 1) bolaning psixik rivojlanish darajasi;
- 2) bolada zarur ko'nikma va malakalarning mavjudligi;
- 3) bolaning maktab ta'limiga bo'lgan munosabatining holati.

Shuningdek, tayyorlov guruhidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularning intellektual, emotsional, ijtimoiy va psixologik jihatdan o'sishiga yordam berish maqsadida amalga oshiriladi. Bu jarayonning vazifalari, bolalar uchun maktabda muvaffaqiyatli o'qish va yangi ijtimoiy muhitga moslashishni ta'minlashga qaratilgan. Quyidagi asosiy vazifalar tayyorlov guruhidagi bolalar uchun belgilangan:

1. Intellektual va kognitiv rivojlanishni ta'minlash. Bolalarning aqliy salohiyatini rivojlantirish, e'tiborini to'plab, tafakkur ko'nikmalarini oshirish. Raqamlar, harflar, ranglar, shakllar va o'lchamlar kabi asosiy

bilimlarni o'rgatish. Bolalarga muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash va asosiy matematik tushunchalarni o'rgatish, bilimlarini mustahkamlash.

2. Nutq va til ko'nikmalarini rivojlantirish. Bolalar nutqini rivojlantirish, to'g'ri talaffuzni, so'z boyligini va grammatika qoidalarini o'rgatish. Rivojlanayotgan nutqni mustahkamlash, bolalarni o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rgatish. Kitoblar bilan ishlash, ertaklar va hikoyalar eshitish orqali bolalarning tinglash, tushunish va ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. Emotsional va psixologik tayyorlik. Bolalarga o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, boshqalar bilan ijtimoiy muloqot qilishni o'rgatish. Maktabda yangi vaziyatlarga moslashish, stressni boshqarish va yangi tajribalarga ochiq bo'lishni rivojlantirish. O'zini hurmat qilish, o'z-o'zini baholash va o'zini tanish ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Ijtimoiy moslashuv va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Bolalar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish, do'stlik, hamkorlik va guruhda ishlashni o'rgatish. Jamoa bilan ishlashda hurmat va yordamni ko'rsatish, nizolarni hal qilish va bir-biriga yordam berish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Ijtimoiy normalarga rioya qilish va odamlar bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatish.

5. Mustaqillik va o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bolalarni o'z ishlarini mustaqil bajara olishga o'rgatish, vaqtni to'g'ri boshqarish va o'zini tartibga solish. O'quv jarayonida bolalarga o'zining kichik maqsadlarini qo'yishni va ularga erishish uchun harakat qilishni o'rgatish. O'zining kundalik ehtiyojlarini qondirish (o'z kiyimlarini kiyish, yegulikni yeyish kabi).

6. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Bolalarga jismoniy faollikni rag'batlantirish, sport o'yinlari va jismoniy mashqlar orqali motorika va jismoniy ko'nikmalarini rivojlantirish. Sog'lom turmush tarziga oid asosiy ko'nikmalarni (to'g'ri ovqatlanish, gigiena qoidalariga rioya qilish, dam olish va ishlashni muvozanatlash) o'rgatish.

7. O'qish va yozishga tayyorgarlik. Bolalar maktabda o'qish va yozishga tayyor bo'lishi uchun harf va raqamlarni yozish, o'qish uchun tayyorlik darajasini oshirish. Maktabda o'qish va yozish jarayonida kerakli bo'lgan poydevor ko'nikmalarini (harflarni tanish, yozish uslublari, shakllarni to'g'ri chizish) shakllantirish.

8. Maktab muhitiga adaptatsiya qilish. Bolalar uchun maktabdagi kundalik tartibga moslashuvni yengillashtirish, yangi o'qituvchilar va yangi do'stlar bilan tanishish. Maktabdagi qoidalarga rioya qilish, darslarni

tinglash, boshqa bolalar bilan jamoada ishlashga tayyor bo'lishni ta'minlash.

9. Kreativlik va ijodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash. Bolalarni ijodiy fikrlashga rag'batlantirish, san'at, musiqalar, qo'llanma ishlar va o'yinlar orqali yaratuvchanlikni rivojlantirish. O'zini ifodalashning turli usullarini (rasm chizish, hikoyalar tuzish, musiqaga raqsga tushish) o'rgatish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tayyorlov guruhidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, yuqoridagi vazifalar bolalar uchun mustahkam bilimlar va ko'nikmalar poydevorini yaratishga yordam beradi. Bu, ularning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishlariga va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli kirishlariga imkon yaratadi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlik ishlari haqida gapiring.
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligi to'g'risida gapiring.
3. Bolalarni maktab ta'limiga psixologik yondashuvda asosan qaysi jihatlariga e'tibor berish lozim?
4. Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga aqliy jihatdan tayyorlashda tarbiyachi tomonidan olib boriladigan metodik ishlardan misollar keltiring.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI.

Reja:

1. Yosh avlod tarbiyasida oilaning o'рни haqida mutafakkirlar ta'limoti.
2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan ota-onalar bilan ishlash.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash shakllari.

4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik xodimlarining ota onalar bilan munosabatidagi kelishmovchiliklar sabablari.

Tayanch tushunchalar: oila, farzand, majburiyat, burch, kelishmovchilik, ijtimoiy muhit, ta'limot, ijtimoiy muhofaza, munosabat.

1.Yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni haqida mutafakkirlar ta'limoti.

Farzand tarbiyasi o'ta murakkab mas'uliyatli jarayon. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan boxabar bo'lib borishni talab etadi. "Garchi har bir inson

"Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"

Abdulla Avloniy

beshikdan to qabrgacha ilm olish qobiliyatiga ega bo'lsa da, lekin uni bolalikdan tarbiyalash ta'sirliroq va juda muhimdir", degan edi Abdurauf Fitrat. Har bir ota-ona ana shu fikrni hamisha yodda tutmog'i lozimdir.

Shuningdek, yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni haqida mutafakkirlar ta'limotlari ko'plab falsafiy va pedagogik tizimlarda muhim o'rin tutgan. Ular oilaning tarbiyadagi markaziy roli haqida turli nuqtai nazardan fikr yuritganlar. Xususan, Aristotel, qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, tarbiyaning asosiy bo'g'ini oiladan boshlanishi kerakligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, ota-ona bolaga axloqiy tamoyillarni o'rgatishda eng birinchi mas'uliyatga ega. U, shuningdek, bolaga axloqiy tarbiya berishda oilaning ahamiyatini, undagi ota-onaning o'zaro munosabatlarini, ularning farzandiga qanday misol bo'lishini muhim deb hisoblagan.

Yana bir pedagog, olim Maria Montessori o'zining "Oiladagi bola", "Bolalikning siri", "Montessori metodi" asarlarida bolalarning o'zini o'zi rivojlantirishiga yordam berish uchun oilaning hamkorligi zarurligini ta'kidlaydi. Montessori o'zining ta'lim metodikasini yaratib, bu metodni dunyo bo'ylab qo'llashga muvaffaq bo'ldi. U, bolaga mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratishda oilaning ishtirokini o'ta muhim deb hisoblagan. Montessori, oilaning bolalarga to'g'ri muomala qilishini, ularga xatolarni boshqacha tarzda yengish imkoniyatini berish orqali shakllanishini tushuntiradi.

Abu Nasr Farobiy o'z zamonining buyuk olimi, faylasufi, mutafakkiri va allomasi bo'lib, uning ilm-fan, falsafa, va ta'lim sohasidagi asarlari o'z davrida va keyinchalik Sharq va G'arb ilm-faniga katta ta'sir ko'rsatgan.

Farobiy o'zining "Kitab al-Huruf" nomli asarida mantiqiy va falsafiy tafakkur rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, oilaning tarbiyada o'rni haqida ko'plab fikrlar yoritilgan. Uning ta'limotiga ko'ra, oiladagi ota-onalar o'z farzandlariga bilim va axloqiy tarbiya berishda eng asosiy vosita hisoblanadi. Farobiy, shuningdek, bolalarga hayotiy bilimlarni oilaviy muhitda o'rgatishning ahamiyatini ta'kidlagan va ota-onalarning mas'uliyatini yuksak darajada baholagan.

Shuningdek, yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni haqidagi mutafakkirlar ta'limotlari turlicha bo'lsa-da, ularning umumiy fikri shundan iboratki, oilaning tarbiyada roli juda katta. Ota-ona va oilaviy muhit farzandlarning axloqiy, aqliy va psixologik rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mutafakkirlar oilaning tarbiya jarayonidagi mas'uliyatini alohida ta'kidlashadi. O'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya berish kerakki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq bo'lib kamol topadi.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan ota-onalar bilan ishlash.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan ota-onalar bilan ishlash — bu ijtimoiy yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash va pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga olgan jarayondir. Bunday ota-onalar ko'pincha iqtisodiy, ijtimoiy yoki psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar, shuningdek, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari va bolaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi resurslari cheklangan bo'lishi mumkin. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ota-onalar bilan ishlashda asosiy Maqsad — ularning ehtiyojlarini tushunish, yordam berish, va bolaning rivojlanishiga to'g'ri ta'sir o'tkazish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqdim etishdir.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan ota-onalar bilan ishlashda birinchi qadam, ularning muammolarini tushunishdir. Bu bilan ularning ehtiyojlari, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik holati va tarbiyaviy resurslarining mavjudligini aniqlash muhimdir. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ota-onalar ko'pincha stress, depressiya yoki boshqa psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli, psixologik qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ayniqsa, psixologik qo'llab-quvvatlashning eng samarali va

keng qo'llaniladigan usullari etib quyidagilarni aytish mumkin: psixologik maslahatlar, individual maslahatlar, homiylik, ishontirish, taklif berish, tanbeh, motivatsiya, tarbiyaviy vaziyatlar, ko'rsatmalar hisoblanadi.

Bunday ota-onalar tarbiyaning samarali metodlari va bolalar bilan qanday muloqot qilishni bilmasliklari mumkin. Shuning uchun ularga bolalarni tarbiyalashda yordam berish, to'g'ri yondashuvlar va resurslar taqdim etish juda muhimdir. Ayniqsa, tarbiyaviy treninglar, pedagogik maslahatlar, o'yinlar va interaktiv faoliyatlarni tashkil etish shular jumlasidandir. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ota-onalarga davlat yoki jamoat yordam dasturlaridan foydalanishlarini rag'batlantirish zarur. Bu yordamlar, odatda, moliyaviy, tibbiy yoki huquqiy yordamni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan ota-onalar ko'pincha ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlikni his qilishadi. Ota-onalar bilan doimiy muloqot o'rnatish va o'zaro ishonchni yaratish juda muhimdir. Ota-onalar bilan o'zaro muloqotda ochiq, samimiy va qo'llab-quvvatlovchi bo'lish talab etiladi. Ular uchun mahallada yoki jamoat markazlarida turli ijtimoiy tadbirlar tashkil etish, ular bir-birlari bilan tajriba almashishlari va qo'llab-quvvatlashlari uchun imkon yaratish lozim. Mahallada bunday ota-onalarga yordam beruvchi guruhlar yoki ijtimoiy tarmoqlar tashkil etish talab qilinadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan ota-onalar bilan ishlashda muhim omillar — bu ularga kerakli yordamni berish, ular bilan ishonchli aloqalar o'rnatish, va bolaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishdir. Samarali yondashuvlar yordamida ota-onalarning tarbiyaviy salohiyatini oshirish va farzandlariga yaxshi sharoit yaratish mumkin. Ota-onalar uchun ijtimoiy yordam va psixologik qo'llab-quvvatlash, ularga tarbiyada yordam berish va jamiyatga integratsiya qilish kabi kompleks yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash shakllari.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti oila bilan hamkorlikning uzliksiz ta'limiy jarayoni hisoblanib, ota-onalar bilan hamkorlikga kirishishdan oldin so'rovnoma o'tkazib ularni maktabgacha ta'lim tashkilotiga bo'lgan qarashlarini, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda oilaviy sharoitlarini o'rganish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilib u oila bilan qay tariqa hamkorlik qilishni rejalashtirish talab etiladi. Ota-onalar bilan jamoa

tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan olib borish, pedagogik tadqiqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalash va ular orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini oila bilan zamonaviy hamkorlikdagi ishlarining eng keng shakllari:

- ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash, ilg'or tadqiqotdagi ota-ona bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotiga o'zlari xohlab farzandlarini olib kelishlari, ulardagi muhiti, tarbiyachilarning ishlash tizimi, o'tiladigan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borilishi ota-onalarga ma'qul ekanligini tadbiq qilish.

- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar: guruhli va umumiy majlislar, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari o'tkaziladi.

Shuningdek, Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash shakllari — bolalarning ta'lim va tarbiyasi jarayonida oila bilan hamkorlik qilish, ular bilan faol muloqot o'rnatish va birgalikda bolalarni rivojlantirishga yordam berishning turli yo'llarini ifodalaydi. Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik, bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish va ota-onalarga bolalar tarbiyasida qo'llab-quvvatlash berish uchun juda muhimdir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash shakllari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan :

Ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar va yig'ilishlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida oila bilan ishlashning asosiy shakllaridan biri — ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar, yig'ilishlar va seminarlar tashkil etishdir. Ushbu uchrashuvlarda bolalar ta'limi, rivojlanishi va tarbiyasi bo'yicha o'quvchilarni va ularning ota-onalarini xabardor qilish, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida ma'lumot almashish amalga oshiriladi. Shuningdek, oila va ta'lim tashkiloti o'rtasida munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ota-onalar uchun seminarlar va treninglar. Ota-onalarga bolalar tarbiyasi, psixologiyasi, ta'limi va rivojlanishi bo'yicha seminarlar va treninglar tashkil etish. Bu treninglarda ota-onalar bolalariga qanday yaxshiroq ta'lim va tarbiya berish, qanday yondashuvlar va metodlar qo'llanishi mumkinligi haqida ma'lumot olishadi. Shuningdek, ota-onalar uchun uyda amalga oshirish mumkin bo'lgan faoliyatlar va mashqlar haqida maslahatlar beriladi.

Ta'lim jarayoniga ota-onalarni jalb qilish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar uchun ta'lim jarayoniga ota-onalarni jalb qilish shaklida

ham faoliyat yuritishi mumkin. Bu o'yinlar, qo'shiq va raqslar, qo'llanma ishlar va boshqa faoliyatlar orqali ota-onalarni bolalar bilan birgalikda qatnashishga undaydi. Masalan, "Ota-onalar kuni", "Ota-onalar va bolalar birgalikda" kabi tadbirlar tashkil etilishi mumkin.

Ota-onalar bilan individual maslahatlar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning individual ehtiyojlariga e'tibor qaratib, ota-onalar bilan birga ishlashni tashkil qiladi. Pedagoglar ota-onalar bilan individual tarzda maslahatlar o'tkazib, bolalarning xulqi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari, ijtimoiy rivojlanishi va shaxsiy xususiyatlarini muhokama qilishlari mumkin. Bu ota-onalarga bolalariga yaxshiroq g'amxo'rlik qilishda yordam beradi.

Bolalar faoliyatini ota-onalarga ko'rsatish. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar o'yinlarida va boshqa faoliyatlarida ota-onalarga ishtirok etishga imkon berish. Masalan, bolalar o'tkazgan tomoshalar, dasturlar va bayramlar orqali ota-onalar bolalarining yutuqlari, qobiliyatlari va faoliyatlari haqida ma'lumot olishadi. Bu usul, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi aloqa va ishonchni mustahkamlaydi.

Ota-onalar bilan telefon, internet orqali aloqalar (telegram huruhllari, a-mail). Zamonaviy texnologiyalar yordamida ota-onalar bilan aloqa o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Telefon, elektron pochta, messenjerlar yoki ta'limning maxsus ilovalaridan foydalanib, pedagoglar ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lishi mumkin. Bunday aloqalar bolalarning maktabgacha ta'limdagi muvaffaqiyatlari, muammolari va boshqa masalalar to'g'risida tezkor xabar berishga imkon yaratadi.

Yarim yillik va yil yakunlari bo'yicha hisobotlar. Yarim yillik va yil yakunlarida bolalarning rivojlanishi va o'qishdagi yutuqlarini ota-onalarga taqdim etish. Bunday hisobotlar bolalarning muvaffaqiyatlarini ko'rsatish va ota-onalar bilan birga bolalar tarbiyasini yaxshilash bo'yicha kelajakdagi rejalari muhokama qilinishiga yordam beradi.

Ijtimoiy tadbirlarda ota-onalar bilan birga faoliyat. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan tashkil etiladigan bayramlar, ko'rgazmalar va boshqa ijtimoiy tadbirlarda ota-onalar bilan birga ishtirok etish. Bu bolalar va ota-onalar o'rtasida iliq aloqalar o'rnatadi va ijtimoiy muhitda bolalarning moslashuvchanligini oshiradi.

Raqamli platformalar orqali ota-onalar bilan aloqalar. Hozirgi kunda ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlari raqamli platformalardan (masalan, maxsus mobil ilovalar, onlayn portallar) foydalanishadi. Bu platformalar orqali ota-onalar bolalarining o'qish jarayoni, yutuqlari va rivojlanishining kuzatuvini amalga oshirishi mumkin. Bu turdagi aloqalar

bolalarning har bir yutuqlarini qayd etish va ota-onalarga bildirish uchun juda qulay bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash shakllari o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, bolalarning ta'lim va tarbiyasida birlashgan yondashuvni qo'llashga qaratilgan. Bu shakllar ota-onalar bilan aloqalar va bolalar rivojlanishini yaxshilashga, ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Oila va ta'lim tashkilotining hamkorligi bolalar uchun mustahkam poydevor yaratadi va ularga sifatli ta'lim olish imkonini beradi.

4.Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik xodimlarining ota onalar bilan munosabatidagi kelishmovchiliklar sabablari.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik xodimlarining ota-onalar bilan munosabatidagi kelishmovchiliklar sabablari bolalarning ta'lim va tarbiyasi jarayonida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'zaro hamkorlikda yuzaga keladigan turli muammolarni ifodalaydi. Ota-onalar va pedagogik xodimlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, ba'zida bolalar ta'limiga va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, ota-onalar va pedagogik xodimlarning farqli qarashlari, pedagogika, tarbiya va ta'lim jarayoniga yondashuvlarda yuzaga keladigan farqlar kelishmovchiliklarni yanada rivojlantirishi mumkin. Masalan, ota-onalar ba'zan bolalarini qat'iy tarzda tarbiyalashni xohlashadi, pedagoglar esa ularni yanada muloyim, ijodiy va o'z fikrini bildirishga undaydigan usullarda tarbiyalashni ma'qul ko'rishadi. Bu farqlar o'rtasida tushunmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

Ba'zan ota-onalar o'zlarining ish yoki shaxsiy hayotidagi stresslarni pedagogik xodimlar bilan munosabatlarda aks ettiradilar. Ular bolalarining ta'lim jarayoniga qoniqarsiz munosabatda bo'lishi yoki pedagoglarning maslahatlariga e'tibor bermasligi mumkin. Bu, pedagogik xodimlar bilan o'zaro tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin, chunki stress holatida bo'lgan ota-onalar ko'pincha salbiy yoki asabiy munosabatda bo'lishadi. Bunda ayniqsa, kommunikatsiya madaniyatining pastligi ham ota-onalar va pedagogik xodimlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Pedagoglar va ota-onalar bir-birlariga to'g'ri va samimiy tarzda fikrlarini yetkaza olishmasligi, bir-birining fikrlarini hurmat qilishmasligi natijasida tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Kommunikatsiya muammolari pedagogning ota-onalar bilan to'g'ri aloqada bo'lishiga

xalaqit beradi. Malakasiz pedagoglar ota-onalar bilan konstruktiv tarzda muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ayniqsa, agar pedagog va ota-onalar o'rtasida ishonch yetishmasa, bu kelishmovchiliklarga olib keladi. Ota-onalar pedagoglarning niyatlarini tushunmasliklari, pedagoglar esa ota-onalarning o'z fikrlarini rad qilishlari mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun samarali kommunikatsiya, malakali pedagogik yondashuvlar va o'zaro hurmatni mustahkamlash zarur. Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni o'rnatish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalar uchun yaxshiroq ta'lim va tarbiya taqdim etishi mumkin.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Oilada bola tarbiyasi hususida Sharq mutafakkirlarining qarashlari haqida gapiring.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida oila bilan ishlash shakllaridan eng asosiysi qaysilar?
3. Ota onalar bilan ishlashda e'tiborga olish kerak bo'lgan jihatlar?
4. Psixologik yordamga muhtoj bo'lgan ota onalar bilan ishlashda tarbiyachi ko'proq nimalarga e'tibor qaratish lozim?

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH.

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.

Tayanch tushunchalar: faoliyat, rivojlantiruvchi markaz, intellektual, kun tartibi, badabtarbiya, sayr, erkin faoliyat, integratsiya, sensor, motorika.

1.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunni to'g'ri tashkil qilish juda ma'suliyatli va izchil kechadigan jarayon bo'lib hisoblanadi. Kun

davomida bu faoliyatlar bolalar rivojlanishining turli jabhalarini (fikrlash, jismoniy, ijtimoiy, hissiy) qamrab oladi va ular uchun kunning qolgan qismini yanada samarali o'tkazish imkonini yaratadi.

Shuningdek, kunni to'g'ri tashkil qilish o'z navbatida "Kun tartibi"ga bog'liq jarayondir. Quyida "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida berilgan namunaviy kun tartibi ilova qilinadi.

**Bolalar to'liq kun davomida bo'ladigan guruhning namunaviy
Kun Tartibi ("Ilk qadam" Davlat o'quv dasturidan)**

№	Kun tartibi	Vaqtning taxminiy taqsimoti	Vaqt (daqiqada)
1	Bolalarni qabul qilish, erkin o'yin faoliyati, ertalabki Badantarbiya	7:30 – 8:20	50
2	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	8:20 – 8:45	25
3	Ertalabki davra suhbat	8:45 – 9:00	15
4	Ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	9:00 – 9:40	40 Har bir mashg'ulot va erkin faoliyat davomiyligi 15-20 daqiqa
5	Hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni	9:40 – 10:30	50
6	Birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat)	10:30 – 11:30	60
7	Sayrdan qaytish [kiyim almashtirish, gigienik tadbirlar, individual faoliyat (zarurat bo'lganda, logoped/defektolog, psixolog, musiqa rahbari)]	11:30 – 12:00	30
8	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	12:00 –	30

		12:30	
9	Guruh xonasida erkin o‘yin faoliyati	12:30 – 13:00	30
10	Uyquga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu Uyqusiz guruhlarda: bolalarning erkin va tinch o‘yin faoliyati, bolalar bilan individual ishlash, badiiy adabiyot o‘qish	13:00 – 15:00	120
11	Tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari	15:00 – 15:10	10
12	Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik	15:10 – 15:30	20
13	Ta’lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda)	15:30 – 16:10	40 Har bir faoliyat turining davomiyligi 15-20 daqika
14	Erkin o‘yin faoliyati	16:10 – 16:50	40
15	Ota-onalarning iltimosiga binoan qo‘shimcha ta’lim xizmatlari (to‘garaklar) va bolalar bilan individual ishlash	16:10 – 16:50	40
16	Kechki davra suhbat/kun refleksiyesi	16:50 – 17:10	20
17	Ikkinchi sayr, erkin o‘yinlar	17:10 – 17:55	45
18	Ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi	17:30 – 18:00	30

Eslatma: Pedagog hafta mavzusiga ko‘ra ta’lim va tarbiya jarayoni shakli (katta, kichik guruhda, individual va rivojlanish markazlarida)ni belgilaydi. Bolalarning MTTda bo‘lish vaqtiga qarab hamda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ish mazmuni, joylashuvi va ish tartibini tashkil etishga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq o‘zining kunlik ish tartibini ishlab chiqishi mumkin¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” DAVLAT o‘quv dasturi /TAKOMILLASHTIRILGAN IKKINCHI NASHR/ Toshkent-2022. 42-43 b

Ushbu namunaviy kun tartibidan ko‘rinib turganidek, kunning birinchi yarmi bolalarni qabul qilish, erkin o‘yin faoliyati, ertalabki badantarbiya bilan boshlanadi. Bu jarayonlarning barchasiga 50 daqiqa vaqt ajratiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, ertalabki jismoniy mashqlar bolalar tanasining harakatchanligini oshiradi, sog‘ligini mustahkamlashga yordam beradi. Bu faolliklar bolalar uchun o‘yin shaklida o‘tkazilishi mumkin, masalan, jismoniy o‘yinlar, musiqali badantarbiya yoki boshqa harakatlarni talab qiladigan mashqlar bilan yanada samaraliroq bo‘ladi.

Keyin, nonushtaga tayyorgarlik ko‘riladi va nonushta qilinadi. Bu jarayon 25 daqiqani o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertalabki nonushta bolalarning sog‘lig‘ini ta’minlash va energiya bilan ta’minlashda juda muhim rol o‘ynaydi. Ertalabki nonushta nafaqat bolalarning jismoniy rivojlanishiga, balki ularning diqqatini jamlashiga, faoliyatda samarali ishtirok etishiga ham yordam beradi. Ertalabki nonushta bolalar uchun to‘liq va muvozanatli bo‘lishi kerak. Nonushta tarkibida Uglevodlar (masalan, non, kasha, guruch, makaron) — energiya manbai sifatida. Proteinlar (tuxum, pishloq, yogurt, go’sht) — o‘sish va rivojlanish uchun zarur. Shu bilan birgalikda, Vitaminlar va minerallar (sabzavotlar, mevalar) — immunitetni mustahkamlash, organizmning umumiy holatini yaxshilash uchun ertalabki nonushta ratsioniga qo‘shilishi talab qilinadi.

Nonushtadan so‘ng, ertalabki davra suhbat tarbiyachi tomonidan tashkil qilinadi. Bu faoliyat 15 minut vaqtda o‘tkazilishi talab qilinadi. Ertalabki davra suhbat bolalar uchun muhim pedagogik faoliyat bo‘lib, ularning ijtimoiy, psixologik va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ertalabki davra suhbatlari, shuningdek, bolalarning kun tartibini tashkil etishga, ular bilan muloqot o‘rnatishga, ruhiy holatini yaxshilashga va jamoaviy faoliyatga tayyorlanishga yordam beradi. Ertalabki suhbatda bolalar bilan kunning davomida qanday faoliyatlarni bo‘lishi haqida gaplashiladi. Bu bolalarga kundalik reja haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Kunning davomi tarbiyachi tomonidan ta’lim va tarbiya jarayoni tashkil qilinishi bilan davom ettiriladi (guruhlar kesimida) Har bir mashg‘ulot va erkin faoliyat davomiyligi 15-20 daqiqa etib belgilangan. Ushbu ta’limiy faoliyat Yillik mavzuli reja, hamda hafta mavzulari asosida tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda har bir yosh guruhi uchun hafta mavzularidan kelib chiqib, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” da belgilangan

jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;

ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

bilish jarayonning rivojlanishi;

ijodiy rivojlanish kabi rivojlanish sohalari bo'yicha tegishli tartibda ta'limiy faoliyat amalga oshiriladi.

Ta'limiy faoliyatdan keyin, berilgan nazariy bilimlar Hafta mavzusi bo'yicha 5ta rivojlanish markazlarida, bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni amalga oshiriladi. Bu faoliyat uchun 50 daqiqa ajratiladi.

Ushbu faoliyatdan so'ng, Birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat) amalga oshiriladi. Sayr uchun 30 daqiqa ajratiladi. Sayr bolalarning jismoniy rivojlanishini, ijtimoiylashuvini va tabiat bilan tanishishini ta'minlaydigan muhim faoliyatlardan biridir. Sayr faoliyati bolalarga tabiatni o'rganish, yangi tajribalar olish, do'stlar bilan o'ynash va jismoniy holatini yaxshilash imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon, shuningdek, bolalarga nafaqat sog'lom hayot tarzini, balki mas'uliyatni, tabiatga bo'lgan hurmatni ham o'rgatadi.

Sayrdan qaytish (kiyim almashtirish, gigienik tadbirlar) shu bilan birgalikda, individual faoliyat zarurat bo'lganda, logoped-defektolog, psixolog, musiqa rahbari bilan zaruriy ishlarni amalga oshirishi talab etiladi. U jarayon uchun 30 daqiqa ajratiladi.

Sayrdan qaytgach, tushlikka tayyorgarlik ko'riladi va tushlik qilinadi. Bu jarayonga 30 daqiqa ajratiladi. Bolalar tushlik qilib bo'lgach, guruh xonasida erkin o'yin faoliyati bilan shug'ullanadilar. Bu jarayon 30 daqiqa davom etadi. Keyin bolalar uyquga tayyorgarlik ko'radi va kunduzgi uyquni amalga oshiradi. Bu jarayon uchun 120 daqiqa ya'ni 2 soat vaqt ajratiladi.

Bu faoliyatlarning barchasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kunning birinchi yarmida amalga oshirishi uchun belgilab qo'yilgan. O'z vaqtida va to'liq amalga oshirilsa bolaning rivojlanishida samaradorlik yuqori bo'ladi.

2.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning ikkinchi yarmida, ya'ni kunduzgi uyqudan turgandan so'ng bolalar bilan tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari amalga oshiriladi. Ushbu jarayon uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Uyqudan so'ng bu faoliyatlar bolalarning organizmini uyg'otishga, mushaklar va asab tizimini tetiklashtirishga

yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu faoliyatlar bolalarning sog'lom rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda katta rol o'ynaydi.

So'ngra bolalar ikkinchi tushlikka tayyorgarlik ko'rishadi va ikkinchi tushlik qilinadi. Bu jarayon 20 daqiqa davom etishi mumkin. Ikkinchi tushlikda nimalar kiritilishi mumkin?

Mevalar va sabzavotlar: Bolalar uchun to'liq vitamin va minerallar manbai bo'lgan mevalar (olma, apelsin, banan, uzum) va sabzavotlar (sabzi, pomidor, bodring) eng yaxshi tanlovdir.

Yogurt va pishloq: Yogurt yoki pishloq bolalarga oqsil va kalsiy manbai sifatida juda foydali.

Yong'oqlar va quritilgan mevalar: Bu bolalarga zarur yog'lar va minerallarni ta'minlaydi, ularni energiya bilan boyitadi.

Kukilar yoki non: Qovurilgan yoki pishirilgan mahsulotlar bolalarga yog' va uglevodlar manbai sifatida kerak.

Sut yoki sut mahsulotlari: Sut bolalar uchun asosiy kalsiy manbai hisoblanadi, bu suyaklarning mustahkamligi uchun muhimdir.

Bolalar uchun ikkinchi tushlik juda muhimdir, chunki ularning sog'lom rivojlanishiga yordam beradi, energiya darajasini saqlaydi va kun davomida faoliyatni davom ettirishga tayyorlaydi. To'g'ri balanslangan ikkinchi tushlik bolalar uchun yaxshi o'sish, jismoniy va ruhiy rivojlanishning asosini yaratadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek, oilaviy kundalikda ham, bu jarayonni diqqat bilan boshqarish kerak.

Ikkinchi tushlikdan so'ng, bolalar bilan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlar (katta va kichik guruhlarda) amalga oshiriladi. Ayniqsa, 5ta rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat olib borish, kunning birinchi yarmida o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bunda hafta mavzusidan kelib chiqib bolalar mustaqil ravishda ijodiy faoliyat olib boradi. Tarbiyachi nazorat qilib boradi va rag'batlantiradi. Bu ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat 40 daqiqa davomida olib borilishi lozim. Har bir faoliyat turning davomiyligi 15-20 daqiqani tashkil qilishi lozim.

Keying jarayon, bolalarning sevimli faoliyati bo'lgan erkin o'yin faoliyati bo'lib hisoblanadi. Bu faoliyat 40 daqiqa atrofida bo'lishi lozim. Bunda tarbiyachining kreativligi, ijodkorligi va tashabbuskorligi yuqori bo'lsa, erkin o'yin faoliyatini ham yanada samaraliroq qilib tashkillashtirishi mumkin.

Erkin o'yin faoliyatidan keyin, tarbiyachai ota-onalarning iltimosiga binoan qo'shimcha ta'lim xizmatlari (to'garaklar) va bolalar bilan individual ishlashi mumkin. Bu jarayon uchun 40 daqiqa vaqt ajratilishi

belgilangan. Bu faoliyatdan so'ng, kechki davra suhbatikun refleksiya 20 daqiqa davomida amalga oshiriladi. Bu faoliyatda kun davomida o'rganganlarini mustahkamlash, ularni izchil o'ylash va o'z fikrlarini ifoda etishga rag'batlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Kechki davra suhbatik odatda bolalar kun bo'yi turli faoliyatlarga qatnashganidan so'ng, tinchlantiruvchi va ruhiy holatni barqarorlashtiruvchi faoliyat sifatida o'tkaziladi. Ushbu suhbatik vaqtida bolalar o'z taassurotlari, his-tuyg'ulari, o'rganganlari haqida baham ko'rishadi va o'zlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, ikkinchi sayr, erkin o'yinlar ham amalga oshiriladi. Bu jarayon uchun 45 daqiqa ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikkinchi sayr ya'ni erkin o'yinlardan so'ng, ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi vaqti bo'ladi. Bu jarayon 17:30 dan 18:00 gacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi ketirilgan barcha faoliyatlar va jarayonlarning hammasi bolani kunining ikkinchi yarmida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyachidan izchillik, ketma ketlilik, kreativ yondashuv hamda ma'suliyat bilan o'z ishini amalga oshirishi talab qilinadi. Shunday qilib, kun davomida bolalar xayotini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi:

bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

har bir yosh guruhida faoliyat turlarini almashtirib borish.

bolalarning harakat faolligini yetarlicha ta'minlash.

mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat o'rtasida aloqa o'rnatish.

bolalarning olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo'llay olishga o'rgatish.

bolani faol bo'lishga, har doim biron narsa bilan band bo'lishga o'rgatish.

har bir bolani ijobiy xoxish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.

bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.

kun tartibiga qat'iy rioya qilish kabi talablar qo'yiladi. Ushbu talablarning barchasi bolalarning kunlik faoliyatini tartibli va samarali bo'lishi uchun zamin bo'lib hisoblanadi.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning boshlanishi va unda tarbiyachiga qo'yiladigan talablar haqida gapiring.

2. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida berilgan namunaviy kun tartibini sharxlang.
3. Kunning birinchi yarmida tarbiyachilar uchun eng asosiy e’tibor qilinishi kerak bo‘lgan faoliyat turi qaysi?
4. Kunning ikkinchi yarmida ikkinchi sayr va erkin o‘yinlar uchun qancha vaqt ajratiladi?

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM TARBIYA ISHLARINI REJALASHTIRISH VA HISOBGA OLISH.

Reja:

1. Pedagogik jarayonni rejalashtirish vazifalari.
2. Ta’lim tarbiya ishlarini rejalashtirish mazmuni.
3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya ishlarini samaradorligini oshiruvchi ta’lim texnologiyalari mazmuni.

Tayanch tushunchalar: jarayon, faoliyat, rejalashtirish, inovatsion, metod, texnologiya, metodika, usul, didaktik, ko‘nikma, kreativ.

1. Pedagogik jarayonni rejalashtirish vazifalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni rejalashtirish nafaqat bolalarning bilimni oshirish, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Reja tuzishda bolalarning yosh xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari, pedagogning roli, o‘quv faoliyatining turli yo‘nalishlari va tarbiyaviy maqsadlar e’tiborga olinadi. Yaxshi rejalashtirilgan pedagogik jarayon bolalarning to‘liq rivojlanishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta’lim va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim va tarbiya jarayonining vazifalari quyidagilardan iborat:

Bolalikni o‘ziga xos qadriyat ekanligini tan olish. Bolalik – bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o‘ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta’lim olish tajribasi natijasida kattalardan

ko'ra ko'proq o'rganish va o'zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.

- Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish. Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqiga ega.

- Bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo'lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta'lim olishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi. Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash. Maktabgacha ta'lim - parvarish, ta'lim va tarbiyadagi uyg'un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida rivojlanishini ta'minlaydi; bu ta'lim va tarbiya jarayonida barcha rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligini, shuningdek, ta'lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari va har bir rivojlanish sohasi bo'yicha integratsiyani ta'minlash zarurligini belgillaydi.

- Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash. Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish; faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.

- O'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuvdir. O'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. Maktabgacha ta'lim bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan oladi.

- MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi. Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlarning MTT ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o'quv dasturida

ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

- Milliy, tarixiy va madaniy an'analar, ma'naviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo'lish. Bolalarning o'z milliy madaniyati, tili, an'alarini hurmat bilan e'tirof etilganda ular yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o'quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash – bu jamoaviy ish bo'lib, uni amalga oshirishga maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori mas'uldir. Shuningdek, ushbu vazifalar maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etadi, pedagoglarga davlat o'quv dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda, har bir bolaga ta'lim berish va rivojlantirish bo'yicha pedagogik va amaliy qarorlar qabul qilishda qo'llanma bo'lib hisoblanadi.

2. Ta'lim tarbiya ishlarini rejalashtirish mazmuni.

Ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonning samarali tashkil etilishi uchun zaruriy jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon, bolalarning intellektual, ijtimoiy, hissiy, jismoniy va axloqiy rivojlanishiga yo'naltirilgan faoliyatlarning tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda rejalashtirilishini ta'minlaydi.

Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish, bolalarni o'sishi va rivojlanishida hamda ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etishda tashkilotda sog'lom psixologik muhitni yuzaga keltirish zarurligi belgilangan. Maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish umumiy holatda keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotining binosini holati, tashkilotning har bir jamoasi jumladan tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyalanuvchilar, shunidek jamoa, ota-onalar hamda tarbiyalanuvchilarning takomillashtirilgan “Ilk qadam” o'quv dasturi asosida bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishda pedagogik-psixologik, metodik, bolalar, badiiy adabiyotlar soni va sifati, tashkilotni adabiyot bilan boyiti borishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishning mazmuni quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

Ta'lim maqsadlarini belgilash.

Ilmiy maqsadlar: Bolalarga ma'lum bilimlarni o'rgatish, ularning kognitiv rivojlanishini ta'minlash, masalan, ranglar, shakllar, raqamlar, harflar haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsadlar: Axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantirish.

Hissiy maqsadlar: Bolalarning emotsional holatini yaxshilash, o'z his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalar bilan muomala qilishda ijobiy yondashuvlarni rivojlantirish. Maqsadlar aniq, o'lchanadigan va erishiladigan bo'lishi kerak. Masalan, "Bolalar o'zlarining asosiy ehtiyojlarini aniq aytib bera olishlari kerak" yoki "Bolalar ijtimoiy qoidalarni hurmat qilishni o'rganadilar" kabi.

Reja asosida faoliyatlar va mashg'ulotlarni tanlash.

O'qitish va ta'lim faoliyatlari: O'qish, yozish, rasm chizish, musiqa va san'at faoliyatlari. Bolalarga har xil bilim va ko'nikmalarni o'rgatish uchun turli mashg'ulotlar, o'yinlar va tajribalar tanlanadi.

Tarbiyaviy faoliyatlar: Tarbiyaviy suhbatlar, axloqiy hikoyalar, bolalarning o'zaro muloqotlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar. Bu jarayonda, masalan, farovonlik, sadoqat, hurmat va yordam berish kabi qadriyatlar o'rgatiladi.

Jismoniy faoliyatlar: Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, gimnastika, jismoniy o'yinlar va sport tadbirlari. Bu bolalarning jismoniy rivojlanishi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Ijodiy faoliyatlar: Bolalarni ijodiy fikrlashga undash, rasm chizish, musiqa kuylash, qo'shiqlar yaratish va boshqa san'at faoliyatlari orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Bolalarning yosh va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish. Rejalashtirish jarayonida bolalarning yosh guruhlari, psixologik xususiyatlari, o'rganish qobiliyatlari va ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. Har bir yosh guruhining o'ziga xos ehtiyojlari bor. Masalan, kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin asosidagi o'qitish va qiziqarli faoliyatlar, maktabgacha ta'limning o'rta va katta guruhlari uchun esa ko'proq kompleks va tafsiliy mashg'ulotlar rejalashtiriladi.

Ta'lim jarayonini turli metod va texnikalar bilan boyitish. Bolalarni faol ishtirok etishga jalb qiladigan metodlar, masalan, loyiha asosida ishlash, muammoni hal qilish, guruhlarda ishlash, o'yin va tajribalar. Bu metodlar bolalarga bilimni amaliy ravishda o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan mashg'ulotlar, masalan, rasm chizish, hikoya qilish, qo'shiqlar yaratish va boshqalar. Bu bolalarning kreativliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

Interaktiv texnologiyalar: Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, masalan, taqdimotlar, multimediyali materiallar va ta'lim dasturlaridan foydalanish.

O'quv muhitini yaratish va tashkiliy ishlar. O'quv jarayonida zarur vositalar va materiallarni tayyorlash, bolalarga qulay va xavfsiz o'quv muhiti yaratish. Bunga o'quv xonalarini bezash, o'yinchoqlar va didaktik materiallarni tayyorlash kiradi. Tarbiyaviy va ta'lim muhitining bolalar ehtiyojlariga mos bo'lishi zarur. Bolalar o'qish va o'rganishni qulay va qiziqarli his qilishlari uchun muhitni tartibga solish kerak.

Bolalarning erishgan natijalarini baholash va tahlil qilish. Baholash metodlari: Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning erishgan natijalarini o'lchash uchun turli metodlar, masalan, kuzatuvlar, testlar, amaliy ishlar va suhbatlar orqali baholash.

Tahlil qilish: Har bir faoliyatdan so'ng, bolalarning o'zlashtirgan bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari tahlil qilinadi. Bu tahlil yordamida ta'lim jarayonini yanada yaxshilash va takomillashtirish mumkin.

Pedagoglarning o'zaro hamkorligi va malakasini oshirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning o'zaro hamkorligi va doimiy ravishda o'z malakalarini oshirishga qaratilgan faoliyatlar. Bu, ta'lim-tarbiya ishlarini samarali rejalashtirish va o'tkazishda muhim omil hisoblanadi. Pedagoglar o'z bilimlarini yangilab, yangi yondashuvlarni o'zlashtirishlari, hamda bolalarga ta'lim berishda innovatsion metodlarni qo'llashlari kerak.

Ta'lim-tarbiya jarayonini moslashtirish va optimallashtirish. Rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya faoliyatlarini bolalarning turli ehtiyojlari va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish. Pedagoglar har doim o'zgaruvchan holatlarga moslashib, ta'limni yangi imkoniyatlar asosida tashkil etishlari lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish muminki, ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish mazmuni bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun muhimdir. Rejalashtirishda aniq maqsadlar, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari, faoliyatlar va metodlarning tanlovi, ta'lim muhitining tashkil etilishi, baholash va tahlil qilish usullari kabi bir qator omillar e'tiborga olinadi. Rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarning intellektual, ijodiy va axloqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va ularga muvaffaqiyatli o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya ishlarini samaradorligini oshiruvchi ta'lim texnologiyalari mazmuni.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlarini samaradorligini oshiruvchi ta'lim texnologiyalari bolalarning rivojlanishini ta'minlash va ta'lim jarayonini sifatli amalga oshirish uchun zarur vositalardir. Ta'lim texnologiyalari — bu bolalarning bilim olish jarayonini yaxshilashga, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'zaro muloqot qilish va ijodkorliklarini oshirishga yordam beradigan metod va usullarning yig'indisidir.

Maktabgacha ta'limda foydalaniladigan ta'lim texnologiyalari quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Interaktiv ta'lim texnologiyalari. Interaktiv ta'lim texnologiyalari — bu bolalarning faol ishtirokini talab qiladigan, ularni fikrlash va ijod qilishga undaydigan texnologiyalardir. Bunday texnologiyalarni qo'llash orqali bolalar o'qish va o'rganishda faolroq ishtirok etadilar.

Interaktiv doskalar va taqdimot dasturlari (masalan, PowerPoint yoki boshqa o'quv dasturlari) orqali pedagoglar mavzuni ko'rsatib, bolalar bilan birgalikda o'rganish jarayonini tashkil etishlari mumkin.

O'yinlar va ta'lim dasturlari: Bolalar o'yinlar orqali bilim olishadi, bu ularning qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

2. Kompyuter va mobil texnologiyalardan foydalanish. Kompyuterlar, planshetlar va mobil ilovalar orqali ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilish mumkin. Maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari va ilovalar bolalar uchun o'yin asosida o'rganishni osonlashtiradi. Elektron kitoblar va multimediyali materiallar: Rasm, video, animatsiyalar va boshqa vizual vositalar yordamida bolalar o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

3. STEAM texnologiyalari. STEAM (**Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics**) ta'limi, ya'ni ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarini birlashtirgan yondashuvdir. Bu texnologiya ta'lim jarayonida bolalarni kompleks ravishda o'qitishga imkon beradi. STEAM texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalar nafaqat ilm-fan va san'atni o'rganadilar, balki kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

4. O'yin asosidagi ta'lim (gamification) – bu o'rganish jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali bolalarning motivatsiyasini oshirish va

bilim olishni qiziqarli qilish texnologiyasidir. O'yinlar bolalarga ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi. Masalan, matematikani o'rganishda bolalar uchun maxsus o'yinlar yoki raqamlarni o'rgatishda interaktiv o'yinlar orqali o'rganish jarayonini samarali qilish mumkin. Raqobat, ballar va mukofotlar orqali bolalar o'quv jarayonida faol ishtirok etadilar va o'rganish jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi.

5. Didaktik materiallar va ta'lim vositalari. Didaktik materiallar (rasmlar, kartalar, maketlar, plakatlar) bolalarning tushunishini osonlashtiradi va o'rganayotgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlaydi. Shuningdek, konstruktiv ta'lim texnologiyalari: Bolalar o'yinchoqlari, qurilish to'plamlari, geometrik shakllar yordamida bolalar fizikaviy dunyoni o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, bolalar mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

6. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning). Loyiha asosida o'qitish — bu bolalar biror mavzu yoki muammoni chuqur o'rganish orqali bilishadi. Bu usul, bolalarni mustaqil o'ylashga, jamoaviy ishlashga va kreativ g'oyalar ishlab chiqishga rag'batlantiradi. Masalan, bolalar biror ijtimoiy yoki ekologik muammoni hal qilish uchun loyiha asosida ish olib borishlari mumkin, bu esa ularni ta'lim jarayoniga yanada faolroq jalb qiladi.

7. Ota-onalar bilan hamkorlik texnologiyalari. Ota-onalar bilan aloqani yaxshilash maqsadida ta'lim tashkilotlari onlayn platformalar va ilovalar yordamida o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida doimiy aloqani ta'minlaydilar. Bu texnologiyalar ota-onalar bilan bolalarning rivojlanishi, yutuqlari va muammolarini muhokama qilish imkoniyatini beradi.

8. Individualizatsiya va farqlash texnologiyalari. Individual yondashuv bolalarning turli ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olishga asoslanadi. Bu texnologiya orqali bolalarga mos ravishda o'qish jarayoni tashkil etiladi.

Farqlash yondashuvi yordamida bolalar uchun moslashtirilgan mashg'ulotlar va materiallar taqdim etiladi, bu esa har bir bolaga o'zining rivojlanish sur'atiga qarab o'rganish imkoniyatini yaratadi.

9. Video va multimediyali resurslardan foydalanish. Video va multimediyali materiallar bolalar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan ko'rinishda ilmiy materiallarni taqdim etishga yordam beradi. Bu usul bolalarning vizual va eshitish qobiliyatlarini birlashtiradi va o'rganishni samarali qiladi. Animatsiyalar va videolar yordamida bolalar mavzularni osonroq o'zlashtiradilar va ilg'or texnologiyalarni tushunishadi.

10. Dasturiy ta'minot va robototexnika. Robototexnika va kodlash: Maktabgacha ta'limda boshlang'ich robototexnika elementlarini o'rganish bolalarga ilmiy va texnologik sohalarda bilim olishga yordam beradi. Bu usul bolalarga matematik va texnologik ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlarini samaradorligini oshiruvchi ta'lim texnologiyalari pedagogik jarayonni yanada samarali, qiziqarli va bolalarga mos tarzda tashkil etishga yordam beradi. Interaktiv ta'lim, o'yin asosidagi yondashuvlar, STEAM texnologiyalari, didaktik materiallar, loyiha asosida o'qitish va boshqa innovatsion texnologiyalar bolalar o'rganish jarayoniga faol ishtirok etishlari va bilish qobiliyatlarini kengaytirishlariga yordam beradi. Bu texnologiyalar yordamida bolalarning kreativliklari, muammoni hal qilish qobiliyatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. MTT larda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil qilishda tashkilot direktorining vazifalari qanday?
2. Ta'limiy faoliyatni rejalashtirishda tarbiyachiga qo'yiladigan talablar haqida gapiring.
3. Ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirishda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida faoliyatlar qanday tartibda olib boriladi?
4. Ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishdagi zamonaviy texnologiyalardan misollar keltiring.

UMUMIY TURDAGI DAVLAT VA NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL ETISH.

Reja:

1. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil qilish.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida qisqa muddatli guruhlarini tashkil etish.
3. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodik ishlarni tashkil etish.

Tayanch tushunchalar: Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, Ustav, qaror, litsenziya, ma'muriy, tuzilma, menejer, marketolog, metodika, muhit.

1.Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil qilish.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tashkilotlarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

“Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida”gi Nizomga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va butlash, hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining mol-mulki va pul mablag'lari, javobgarligi, boshqaruvi va ta'lim jarayoni tashkil qilinadi.

Ushbu Nizmoda maktabgacha ta'lim tashkiloti — umumiy tipdagi davlat yoki nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga ajratilishi belgilab berilgan. Bunga ko'ra, *davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti* — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilot;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa

qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga va o‘z ustaviga muvofiq amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiya asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o‘tkaziladi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va shtampga, mustaqil balansga, budjet va budjetdan tashqari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga ega, o‘z majburiyatlari bo‘yicha ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob beradi, o‘z nomi yozilgan muhr va shtampga ega bo‘lishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o‘z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining muassislari bo‘lishi mumkin. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari binolari va inshootlarini O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan kelishmasdan xususiylashtirish, o‘zgaga berish va qayta ixtisoslashtirish mumkin emas. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

Yuridik shaxslar — xususiy mulk huquqi subyektlari va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining muassislari bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim sohasidagi nodavlat ta’lim xizmatlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalar yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tganidan keyin beriladi. Maktabgacha ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berish, litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki to‘xtatish, shuningdek, uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab bergan tartibda amalga oshiriladi².

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi asosida o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;

maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturida ko'rsatilgandan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ishlanmaydigan kunlarda yoki belgilangan ish soatlaridan tashqari bolaning qonuniy vakillari bilan kelishuv asosida bolalarni parvarishlash va ularga qarab turish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil qilish jarayoni huquqiy, moliyaviy, ta'lim tizimi va xodimlar malakasi kabi ko'plab omillarni o'z ichiga oladi. Har ikki turi ham bolalar ta'limi va tarbiyasini samarali tashkil etishga intiladi, ammo ularning moliyaviy va boshqaruv mexanizmlari farqlanadi. Tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyati ta'lim sifati, xodimlarning malakasi va o'quvchilarga xizmat ko'rsatish tizimining takomillashuviga bog'liq.

2.Maktabgacha ta'lim tashkilotida qisqa muddatli guruhlarini tashkil etish.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lish vaqtiga qarab u yerdagi guruhlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

bolalar qisqa muddat (kuniga 3-4 soat) bo'ladigan guruh;

qisqa kunli guruh (bir kunda 9 soatgacha);

to'liq kunli guruh (kuniga 10,5 va 12 soat);

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.05.2019 yildagi 391-son.1-ilova. Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida NIZOM

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruh. Ushbu guruhlar ichidan Qisqa muddatli guruhlarga to'xtalamiz.

Qisqa muddatli guruhlar - bolalarning maktabgacha ta'limga to'liq jalb etilishini va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalar maktabgacha ta'lim olishda teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlovchi guruh bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanilmaydigan xonalar bo'lganda tashkil etiladi. Qisqa muddatli guruhlar o'z faoliyatini davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i asosida amalga oshiradi. Bitta xonada ko'pi bilan 3 ta qisqa muddatli guruh faoliyatini uchta smenada tashkil etishga yo'l qo'yiladi. Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sanitariya-gigiyena talablariga va yong'in xavfsizligi qoidalariga javob beradigan xonalarida tashkil etiladi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlarga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Shuningdek, qisqa muddatli guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to'ldirilishi mumkin. Bolalarni qisqa muddatli guruhlardan chiqarib yuborish maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi va:

bola qonuniy vakilining arizasi bo'yicha;

tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha;

bola maktabgacha ta'lim tashkilotining to'liq kunli guruhiga joylashtirilganda amalga oshiriladi. Bu haqda qisqa muddatli guruhga boradigan bolaning qonuniy vakillari maktabgacha ta'lim tashkilotiga yo'llanma olgan kundan boshlab 14 kun ichida maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbarini xabardor qilishi shart.

Qisqa muddatli guruhlarning asosiy Vazifalari quyidagilardan iborat:

bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini saqlash va mustahkamlash;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

bolaning yosh va o'ziga xos imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab har tomonlama kamol topishini ta'minlash;

bolani shakllantirishda, tarbiyalashda va o'qitishda oilaga har tomonlama yordam berish;

bolalarning bilim orttirishini, ijtimoiy-shaxsiy, badiiy-estetik va jismoniy kamol topishini ta'minlash.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlarga bolalar quyidagilar asosida qabul qilinadi:

bolaning qonuniy vakili arizasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma;

bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar o'z faoliyatini davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i asosida amalga oshiradi. Qisqa muddatli guruhlarning ishlash tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavida va bolaning qonuniy vakili bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarning quyidagi turlari faoliyat ko'rsatishi mumkin:

rivojlantirish guruhi;

bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi;

inklyuziv guruh;

kechki, dam olish va bayram kunidagi guruhlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qonun hujjatlariga muvofiq qisqa muddatli guruhlarning boshqa turlari tashkil etilishi mumkin.

Shuningdek, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar uchun quyidagi shtat birliklari belgilanadi: bitta guruh uchun — 0,5 birlik tarbiyachi va 0,5 birlik tarbiyachi yordamchisi; ikkita guruh uchun — 0,25 birlik tibbiy hamshira va 0,25 birlik musiqa rahbari.

Qisqa muddatli guruhlar faoliyati tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti quyidagilar uchun javob beradi:

bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan vaqtida ularning hayoti himoya qilinishini va sog'lig'i mustahkamlanishini tashkil etish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, ruhiy va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga muvofiqligi;

bolalarni umumta'lim muassasalaridagi boshlang'ich ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda tayyorlash sifati;

umumta'lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifatda va belgilangan hajmda ta'minlamaslik kabilarni kiritish mumkin.

Shu bilan birgalikda, qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'limning davlat ta'lim

dasturiga hamda Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturida belgilab beriladi. Qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni moslashuvchan xususiyatga ega, shuningdek, bolaning o'ziga xos, shaxsga yo'naltirilgan kamol topishini ta'minlaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Qisqa muddatli guruhlarda bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim yuklamasi bir haftalik ta'lim yuklamasining eng ko'p ruxsat etilgan hajmidan va mashg'ulotlarning eng ko'p ruxsat etilgan sonidan oshmasligi kerak. Uzluksiz ta'lim faoliyati muddati sanitariya talablariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Qisqa muddatli guruhlarini moliyalashtirish. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida saqlash uchun olinadigan ota-onalar to'lovi, jismoniy va yuridik shaxslarning xayr-ehsonlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi. Ta'lim faoliyatini olib boruvchi qisqa muddati guruhlarining pedagog xodimlari mehnatiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haq to'lanadi.

3.Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodik ishlarni tashkil etish.

Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodik ishlarni tashkil etish — ta'lim jarayonini sifatli va samarali olib borish uchun muhim ahamiyatga ega. Metodik ishlar pedagoglar va tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va bolalarning rivojlanishiga ko'maklashish uchun zarurdir.

Metodik ishlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog va tarbiyachilarga quyidagi maqsadlar uchun tashkil etiladi:

pedagog va tarbiyachilarning pedagogik bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish;

ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, bolalarning umumiy rivojlanishini ta'minlash;

pedagogik faoliyatda innovatsion metodlarni joriy etish va ilg'or tajribalarni tarqatish;

ta'lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni tatbiq etish;

bolalar uchun qulay va samarali o'qish muhiti yaratish kabilardan iborat.

Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi farqlar: *Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida* metodik ishlar davlat ta'lim standartlari va dasturlariga asoslanadi. Bu tashkilotlarda metodik ishlarni tashkil etish uchun markazlashtirilgan tizim mavjud bo'lib, hududiy ta'lim boshqarmalari va maktabgacha ta'lim boshqarmalari metodik qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Shuningdek, metodik seminarlar, kurslar va ta'lim usullari davlat tomonidan belgilangan yondashuvlarga muvofiq bo'ladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa metodik ishlar ko'proq mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Nodavlat tashkilotlar ko'pincha o'zlariga xos pedagogik metodlar, dasturlar va ta'lim yondashuvlarini ishlab chiqadilar. Shuningdek, ular bozor talablariga moslashgan holda pedagogik metodlarni tanlashda erkinlikka ega.

Pedagogik texnologiyalar va metodlarning tanlovi:

